16. Мелибаев М. Эксплуатационные показатели пропашных агрегатов в тяговых и агротехнических показателях ведущих колес. Инновационное научно-образовательное обеспечение агропромышленного комплекса» 69-ой Международной научно-практической конференция. ФГБОУ ВО РГАТУ.– **Рязань**. 2018 г. - с 253-257.

17. Мелибаев М., Акбаров Ш., Дадаходжаев А. Определение деформации шины в зависимости от внутреннего давления и размеров шин ведущего колеса. /Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования “Рязанский государственный агротехнологический университет имени П.А. Костычева” “Научно-практические аспекты инновационного развития транспортных систем и инженерных сооружений”. Материалы Международной студенческой научно-практической конферен. 20 февраля 2020 г. **Рязань**, 2020. –С 164-169.

18. Maxmudov, B. J. (2022). AVTOMOBIL YO'LLARIGA ETIVOR. TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 302-305.

19. Акбаров, С., Жавохир, К., & Мелибаев, М. (2022). ШИНАЛАРНИНГ ҚОЛДИҚ РЕСУРСИНИ БАШОРАТ (ПРОГНОЗ) ҚИЛИШ. *Journal of new century innovations*, 18(1), 60-63.

20. Melibayev M., Yigitaliyev Jaloliddin Adkham ugli. Results of operational tests of tractor tires with increased service life and their technical and economic efficiency. Euro Asia Conferences. Euro Science: International Conference on Social and Humanitarian Research,

Hosted from Cologne, **Germany**. April 25rd-26th 2021. <http://euroasiaconference.com>. Pages: 113-118.

21. Melibayev M., Yigitaliyev Jaloliddin Adkham ugli. Determination of parameters affecting the performance of tractor tires. International Journal of Academic pedagogical Research (IJAPR) ISSN: 2643-9123. Vol.5 Issue 5, May - 2021, **Washington DC, USA**. <http://WWW.ijeais.org/ijapr> ijaprchiefeditor@gmail.com. Pages: 131-135.

22. Бобаматов, А. Х. (2022). ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ УСОВЕРШЕНСТВОВАННОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА-СЫРЦА. *TALIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 216-219.

23. Мелибаев, М., Хожиева, Д., Ортиков, Х., & Ахмедова, Д. (2022). Шиналарнинг хизмат мувозанати ва эскириш кўрсаткичига таъсир этувчи омиллар. *Science and Education*, 3(3), 319-330.

24. Ходжиева, Д. М., & Кобилова, С. Я. (2020). Способы повышения мотивации у молодежи к изучению истории. In *Молодежь и современный взгляд на события Второй мировой войны* (pp. 170-173).

25. Рахимова, Х. А., & Акбаров, С. А. (2022, June). О НЕРАЗРЕШИМОСТИ МЕТОДОМ ФУРЬЕ ЗАДАЧИ ТИПА ДИРИХЛЕ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ЧЕТВЕРТОГО ПОРЯДКА С РАЗРЫВНЫМ КОЭФФИЦИЕНТОМ. In *Conference Zone* (pp. 118-120).

26. Asqarjon, AS, Qizi, AMK, & Maxmujon, M. (2022). Havosiz shinalarning tuzilishi va tasnifini tahlil qilish. *Evroosiyo ta'lim va akademik ta'lim jurnali*, 8, 78-81.

27. Saidullo, A., & Mahmujon, M. (2022, April). DETERMINATION OF THE AVERAGE RESOURCE OF TIRES OF COTTON WHEELED TRACTORS. In *Conference Zone* (pp. 112-115).

28. Askarjon, A. S., Qizi, A. M. K., & Makhmujon, M. (2022). Analysis of the Structure and Classification of Airless Tires. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 8, 78-81.

Jo'rayeva Mehriniso

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

"NURLI SO'Z"

Ona so'zin aytsam nogahon,
Ko'nglim to'lar mehr, quvonchdan.
Ota so'zin aytganda nogoh,
Dilim yayrar orzu, ishonchdan.

Ota davlat, ona jannatdir,
Mehr bering, qo'ldan kelguncha.
Bir kun usiz huvillab qolar,
Keng hovlingiz, bir katta ko'cha.

Bellariga quvvati bo'ling,
Xizmat qiling yelib- yugurib.
Ko'zlariga bir nur bo'lingki,
Bolam desin sizni sog'inib.

Barcha ota va ona uchun
Farzandining baxti muhimdir.
Mehnat qilar, farzandi uchun
Bari bir so'z: "Mehr" uchundir.

AYOL...

Ayol kulib turar, qalbi yig'lar jim
Ayol yig'lab turib, kulishi mumkin.
Ne ne ayollarni ko'rgan bu olam,
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Azob- mashaqqatga berar jonini,
Ayol xiyonatdan kuyishi mumkin.
Tongda jim uyg'onib yopar nonini,
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Sadoqat bobida yetolmas hech kim,
Ayol sevilishi, suyishi mumkin.
Garchi zarrachada mehr ko'rsa ham,
Ayol shukur qilib, sevishi mumkin.

Farzandlar baxtini, kamolin ko'rib,

Ayol mashaqqatga chidashi mumkin.
Kasal farzandiga jonini berib,
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

Dunyoda ayollar ko'pdir aslida
Vafo, sadoqatdir alar naslida,
Alloh bor, o'lim haq inson nazdida.
Ayol jilmayib ham o'lishi mumkin.

BOLALIGIM SENI SOG'INDIM JUDA...

Yurak yonar hamon, ko'zlarimda nam
Qachon katta bo'ldim, ulg'aydim birdan
Sur'atlarda qoldi, qoldi dilda dam
Bolaligim seni sog'indim juda.

Endi qo'g'irchoqlar o'ynamayman, yoq.
Dilimda yonmoqda, bir olov bir cho'g',
Qalbim tublarida bir nimalar yo'q.
Bolaligim seni sog'indim juda.

Loylarda yugurib, uchmayman endi,
Dada, dadajon deb quchmayman endi.
Axir, katta bo'pman, bilyapman endi.
Bolalagim seni sog'indim juda.

Yurak fig'on yutib, yig'laganda ham
Bulbul bola kuyin kuylaganda ham
Onam allasini eshitganda dam
Bolaligim seni sog'indim juda.

Samolarda varrak uchirishlarni,
Baqirib dunyoni ko'chirishlarni
Araz qilib, ishim bitirishlarni
Bolaligim seni sog'indim juda.

ILK ZAFAR

Bugun ilk zafarni egalladik biz,
Quvonchdan ko'zimga yoshlarim keldi.
Kecha-kunduz demay, yelib yuribmiz
Endi davron kelib, davrlar keldi.

Ilk bora maqolam chiqqan ushbu kun,
Tarix zarvarag'iga muhrlanadi.

Endi marra yaqin, g'alaba butun.
Har Ishim, har kuchim qadrlanadi.
Iroda ustozim saboqlaridan,
Ushbu marralarga yetib turibman.
Onamdek ko'ribmen, ishinchlaridan,
Yiqilmay, siqilmay sergak turibman.

Rahmat deyman sizga, rahmat onajon,
Shogird yutug'ingiz ko'payaversin.
Sizsiz ustozimiz, sizsiz jonajon,
Savobdan umringiz uzayaversin.

ONA SIZNI SOG'INDIM BUGUN...

Ona sizni sogindim bugun
Ko'rgim kelar sizni onajon.
Lekin sizsiz o'tmoqda kunlar
Uzoqdadir nurli xonadon.

Ona sizni sog'indim bugun,
Nima qilay borolmasam men.
Yuragimda bir kemptiklik bor,
Bordir unda bir katta to'zon.

Ona sizni sog'indim bugun
Qachon ko'rar nurli yuzingiz.
Yuragimda quvonch to'lar goh,
Eshitganda shirin so'zingiz.

Ona sizni sog'indim bugun,
Mehnat qilib, charchab qolmang siz.
Bizni o'ylab, tunlar bedorlab,
Ming yil yashang, hech ham o'lmang siz.

Ona sizni sog'indim bugun,
O'qish tugab, boraman asta.
Shunda chiqib oldingiz shodon,
Gul tutarman, sizga bir dasta.

SEVGI NADUR?!

Sevgi nadur?
Yuraklarni qiynar ga'm- alam,
Sevgi nadur?
Ko'zlardagi yoshlar dam - badam,

Sevgi nadur?
Ikki vujud visoli birla
Tuyg‘ulardan yaralguvchi yangi bir olam.

Baxtsiz inson demang, baxtlilar qancha,
G‘amsiz inson demang, g‘amlilar qancha.
Qanchadir insonning mehrga zori,
Mehrsiz insonlar baxtlidan ancha

Yuragimda dardlarim ko‘pdir,
Ko‘zlarimda ammo, lek quvonch.
Aytadigan bir kishim yo‘qdir.
Yo‘qdir menda hech kimga ishonch.

MUVASHSHAHLAR

Sezgandirsiz ajoyib qiz u,
Ajib, xushro‘y, gul yuzli dilbar.
Lola kabi chiroyin ko‘rib
Ortga oqar ariqda suvlar
Mening ko‘zim tushib nogahon,
Ajib hislar uyg‘ondi menda
Tinmay izlab yuragim yiglab
Qaytib keldim ostonasidan
Aytsam endi dilim og‘riydi
Chiqmas ekan darvozasidan.

Malohati jonni olguvchi,
Oy yuzligim chiroyli gulim.
Hayolari dilni yoqguvchi,
Iymonligim shirin so‘zligim.
Chehrangizga oshiq ko‘ngillar,
Emishdurku, oy kabi to‘lin.
Husningizda Shirindan qochib,
Rashk qiladur sizni bulbullar.
Ayting, mensiz yashaysizmi yo,
Men aytaman, sizensizlik o‘lim.

Samolardan tushganmi go‘yo,
Umud gulim, ummonim sensan.

Ro'yolarday ko'ringanmi yo,
Aqligim, osmonim sensan.
Yoziladi dilimda umid,
Yoningda yor bo'lmoqlik istab.
Ozor qilsang, yuragim yonib,
Ketolaman, bir ketgin desang.

Uchib go'zal xayol makonlarida,
Men seni uchratdim, tushimda go'zal.
Iymanib qararding, Rayhon pinjida,
Dil tortar orazing misoli g'azal.
Ajib tuyg'ulardan aylanib boshim,
Xushimni yo'qotdim, misoli o'sal.

Hijroning dardida o'rtanmish dillar,
Imkonim bo'lsaydi, sen-la bo'lardim.
Layli hajri birla, Shirin ishqidan,
Orazing, husningni afzal ko'rardim.
Lek, birga bo'lmadi bu oshiq ko'ngil,
Ayriliq o'tidin kuyib yurardim.

Shirin so'zlaridan ko'zlar quvonsin,
Odobu, umridan taralsin ifori.
Iliq kulgusidan dillar yashnasin,
Robbim, ehtiyot qil, yig'latma zinhor.
Ardoqla, avayla, sevgin ammo lek,
Lek, jajji umrida yashnasin bahor.

Boraman yoningga bo'lib parvona,
Anvoyi iforing sezib boraman.
Hoyotim mazmuni, sensan yagona,
Otashday yal yonib, kuyib boraman.
Ruhing - la birlashib, quvonchdan kulib,
Atirgul gulidan uzib boraman.

Dunyoda yashamoq uchun ming bora,
Iltijo qilurman, sen bilan yona.
Lal, yoqut husningni ko'rsam bir bora,

Darmonsan, davosan, sensan yagona.
Ohu ko'zlaringga xumoring bo'lay,
Ruhingga, jismingga jonsan hamona.
Ardoqlab, avaylab men yoring bo'lay,
Mening yuragimsan, jonsan durdona.

Sevikligim, sevinchim o'zing,
Esar shamol shabbodasida.
Visolingni ko'rmoqlik uchun,
Istar ko'nglim vayronasida.
Netay, oshiq qalbim qiynaydi,
Chidolmasa, yuragim netay.
Yuragimning bir donasisan,
Seni tashlab qaylarga ketay.
Firoqing o'tida kuydirma meni,
Ezib, bagr- u dilim suydirma meni.
Rasmingni qalbinga saqlaganmanku,
Umidini so'ndirib, yondirma meni.
Zebo sanamlardan seni tanladim.
Alamdan kuydirib, o'ldirma meni

Faryod qilur qalbim nolasi,
Azizam, ko'zimning oq-u qorasi.
Rashk o'tida kuydirib meni,
Izhor etding so'zing donasi.
Dilim o'rtab, kuyib yondirib,
Ayt maqsading, ne nishonasi.

Nelar qilay, sening tegrangda,
Omon qoldim, dilda to'fon, g'am.
Zamon yonmish, sening vaslingda,
Ig'vo qilur yurak, ko'zda nam.
Mening ko'zim senga tushganda,
Aylanaman, o'zimdan o'zim.
Mehrimga jo'shib, qahrim oshganda,
Boraman men tap tortmas izim.

Zarlar sochay yuzingizdan men,
Essin mayin shabbodasida.

Beqarorman, lolman, hayronman,
Oshiq ko'ngil vayronasida.

SO'NGAN UMID (hikoya)

Jo'rayeva Mehriniso

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Gulzoda yangam supa chetida horg'ingina o'tirardi. Garchi endigina 28 yoshga to'lgan bo'lsa-da yuzlariga ajin, sochlariga bitta, ikkita oq oralagan. Bu ichki dardning tashqariga tomon mo'ralab chiqayotgan alomatlari edi. Sanjar akam bilan turmush qurganiga besh yil bo'lgan bo'lsa-da, xudodan tilab olgan, yakka-yu yolg'iz farzandini, jigarbandini bir hovuch tuproq undan sug'urib olgandi. O'shanda Islomjon endi yorug' olamni ko'rgan paytlari edi. Gulzoda yangamning kamqonligidanmi, yo darmonsizligidanmi Islomjon vaqtidan erta yetti oyligida kesar-kesish yo'li bilan dunyoga keldi. Odatda, vaqtidan oldin tug'ilgan bolalar, vaqtida tug'ilganlarga nisbatan judayam kichkina, nimjon bo'lishadi. Islomjon ham xuddi shunday. Gulzoda yangam unga ishonchim, umidim deya Islomjon deb ism qo'ygandi. Uni ko'rganman judayam kichkina, ilk bor yoniga borganimda qo'rqqandim. Shunchalar ozg'in va ingichka qo'llaridan ilk bora tutgandim. Nimjonligi sababli qo'shimcha ovqat talab qilar, unga esa albatta, mablag' kerak edi. Sanjar akam farzandining chalajon tug'ilgani uchunmi, yoniga kirmas, u yotgan xonadan aylanib o'tar edi. Shundan so'ng, kun ora ichib keladigan odat chiqardi, keyin kun ora har kuniga aylandi. Har kuni ichib kelib, janjal ko'tarar, Gulzoda yangamga "Sen menga chalajon farzand dunyoga keltirдинг, do'st- birodarlarimning oldida bosh ko'tarib yurolmay qoldim"- deya tana-dashnom yog'dirardi. Bu mudhish voqea sodir bo'lishidan oldin, Gulzoda yangam Islomjonni beshikka belayotgandi. Hali to'la-to'kis belab bo'lmagandi ham eshikdan odatdagidanda ko'proq mast bo'lgan Sanjar akam kirib keldi. Odatda, Sanjar akam Islomjon bor xonaga kirmasdi. Bu safar kirganini biladi, Gulzoda yangam nima qilishni bilolmay qoldi. Sanjar akam murg'akkina bo'lib beshikda yotgan Islomjonni beshigi bilan ko'tarib tashqariga tomon yo'nala boshladi. Gulzoda yangam Sanjar akamni dam oyog'iga, dam qo'liga yopishar, ammo bu urinishlari zarra ham foyda bermasdi. Beshik tashqariga chiqarilgani ko'yi ichidan oppoq matoga o'ralgan murg'akkina et yerga otilib tushdi. Gulzoda yangam jon-jahdi bilan baqirib, jigarbandi tomon yugura ketdi. Axir u nimjon, bekaazoblarga yarim ko'ngli qanday chidasin. Gulzoda yangam uning jajji jussasida urishga intilayotgan yurakchasiga quloq solib ko'rdi, " Urayapti, urayapti"- deya taskin berdi o'ziga o'zi. Yangam Islomjonni shu yaqin atrofda shifoxonaga olib bordi. Borganda yaxshi, umid bor deyishdi, ammo tongga yaqin murg'ak go'dakning joni uzildi. Onaku u qanday chidasin, yarimjon bo'lsa-dafarandi edi-ku. Farzandining mushtdek tanasiga yopishib yum-yum yig'ladi. Bu dunyoga kelib ne ko'rding sho'rligim, nima aybing bor ediki, tuxumdan chiqqan polapon misoli uchding-u ketding. Ertasiga Islomjonni qabrga qo'yishdi. Shu katta dunyoga kichkinagina jussa sig'masa, bu dunyo qanday dunyo o'zi? Gulzoda yangam bir kun qabr boshida qoldi. Islomjonga alla aytib chiqdi. O'sha voqeadan Sanjar akam bir zum o'zini yo'qotib qo'yan. O'sha kuni Sanjar akam topilmadi, ertasi kuni kirib keldi. Uning ko'zlari yig'idan shishib ketgan, teri-badanlari momataloq bo'lib ketgandi. Keyin bilishsa, u o'zini

mashina tagiga tashlagan ekan. Baxtga qarshi xudoyim uning jonini saqlab qolgan, go'yoki qilgan gunohi uchun tiriklar olamida jazolansin deya. U Gulzoda yangamdan tiz cho'kib, yolvorib kechirim so'radi. Gulzoda yangam o'tli nigohlari bilan unga tikilib, bir so'z demadi.

... Oradan ancha yillar o'tdi. Sanjar akam yana farzanli bo'lamiz deb umid bog'lagandi. Biroq, xudo bergan ne'matimga shukur qilmaganing uchun jazo deya, farzansizlikka duchor etdi. Gulzoda yangam umri davomida bir marotaba farzandli bo'la olar ekan. Faqatgina bir marotaba...! Uning umidi Islomjon bilan so'ngandi. Qalbida Islomjonning, shu murg'ak ko'zlarning mangu xotirasigina qoldi, xolos!

**ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА МАКТАБГАЧА
ТАЪЛИМНИНГ РОЛИ ВА ЎРНИ****Аткамова Гулчехра Эргашевна***Тошкент вилояти Паркент тумани 16 "Ором" МТТ тарбиячиси*

Аннотация: Ушбу мақолада ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда мактабгача таълимнинг роли, унинг вазифалари ҳамда мактабгача таълимнинг устувор вазифалари тўғрисида кўрсатилиб ўтилган.

Калит сўзлари: ёш авлодни тарбиялаш, педагогик жараён, психологик тайёргарлик, Ватанни севиш, таълим тизими, мактабгача таълим муассасалари, Учинчи Ренессанс, илм, тарбия, педагогик тарғибот, оила тарбияси, Янги Ўзбекистон, маърифат.

Ёш авлодни тарбиялаш ва ўқитиш мактабгача ва мактаб таълими тизимининг бошланғич бугини ҳисобланиб, болалар боғчалари ва умумтаълим мактабларда бошланади.

Болалар боғчасида таълим-тарбия тарбиячи-педагог, умумтаълим мактабларда эса ўқитувчилар амалга оширадилар. Улар педагогик жараёнида марказий ўринни эгаллайдилар. Шунинг учун болалар боғчаларидаги – тарбиячи, мактабларда эса – ўқитувчилар ўз соҳасини чуқур билиши, ҳар хил методик воситаларни яхши эгаллаган, пухта педагогик, психологик тайёргарликка эга бўлишлари керак. Улар ўсиб келаётган ёшларни Ватанни севиш, керак бўлса тинчлигимиз, осойишталигимизни қадрлашга ўргатадилар. Ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялайдилар.

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида таълим тизимида давлат сиёсати даражасида эътибор қаратиб келинмоқда. Хозирги вақтда таълим тизимида, жумладан, биринчи босқич мактабгача муассасаларни ташкил этиш ва уларга раҳбарлик қилиш йўналишида босқичма-босқич амалга оширилаётган кенг куламли ислохотларнинг самарали олиб борилишини таъминлаш ва бу жараёнларни педагогика фани нуқтаи назаридан чуқур таҳлил қилиш зарурати юзага келмоқда.

Бу талаблар мактабгача таълим муассасалари раҳбар ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш укув методика марказининг давлат таълим стандартлари ва укув режаси асосида мутахассислик фанлари блокига мувофиқ, мазкур соҳа учун малакали кадрларни тайёрлашга ҳам бевосита тааллуқдир.

Ушбу мақолада мактабгача таълим тизими шаклланишининг тарихий жиҳатлари, мактабгача муассасаларни ташкил этиш ва уларга раҳбарлик қилиш тамойиллари, уларнинг фаолиятини услубий жиҳатдан таъминлаш ва назорат қилиш масалалари баён этилган. Бу масалаларни чуқур ва ҳар томонлама урганишда педагогика фанлари асослари ва умумий назарий-методологик қоидаларига таянилгани мактабгача таълим педагогикаси фанининг ғоявий-назарий даражасини

таъминлашга, унинг мазмунини педагогика фани соҳасида қўлга киритилган илмий-назарий ютуқлар ва хулосалар негизида ёритишга имкон беради.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 63-моддасида «Оила жамиятнинг асосий бугинидир ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга» деган қоида мустаҳкамлаб қўйилган, 45-моддасида вояга етмаганлар давлат химоясида экани, 64-моддасида эса «Оналик ва болалик давлат томонидан муҳофаза қидинади», деб қайд этилган.

Мактабгача таълим муассасаси ана шу ҳуқуқий асосларга таянган ҳолда оила ва жамиятнинг болаларга ғамхўрлик қилиш, миллий ва минтақавий хусусиятларни эътиборга олиб, уларни ҳар томонлама баркамол инсонлар этиб тарбиялаш мақсадида ташкил этилади. Ижтимоий мактабгача таълим бу - давлат томонидан ташкил этиладиган муассаса бўлиб, унда мактабгача таълим ёшидаги болаларга таълим-тарбия берилади.

Мактабгача таълимнинг устувор вазифалари.

Мактабгача таълим боланинг соғлом, ҳар томонлама камол топиб шаклланишини таъминлайди, унда ўқишга интилиш хиссини уйғотади, мунтазам таълим олишга тайёрлайди. Мактабгача таълим бола 6-7 ёшга етгунича давлат ва нодавлат мактабгача таълим муассасаларида ҳамда оилада амалга оширилади. Мактабгача таълим мақсади ва вазифаларини руёбга чиқдрилишда маҳаллалар, жамоат ва хайрия ташкилотлари, халқаро фондлар фаол иштироқ этади. Мактабгача таълимни ривожлантириш учун қуйидаги устувор вазифаларни амалга ошириш зарур:

- юқори малакали тарбиячи ва педагог кадрларни тайёрлаш;
- мактабгача таълимнинг самарали психологик-педагогик услубларини яратиш ва амалиётга жорий этиш;
- болаларни оилада тарбиялашни ташкилий, психологик, педагогик ва услубий жиҳатдан таъминлаш;
- замонавий ўқув-услубий қўлланмалар, техник воситалар, уйинчоқлар ва уйинлар яратиш ҳамда уларни таълим-тарбия жараёнига татбиқ этиш;
- болаларни халқимизнинг бой маданий-тарихий мероси ва умумбашарий кадриятлар асосида маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш учун зарур шарт-шароитлар яратиш;
- мактабгача таълим муассасаларининг ҳар хил турлари учун муқобил дастурларни танлаб олиш, барча масалалар бўйича малакали маслаҳат кўрсатиш имкониятини яратиш;
- мактабгача таълим ва соғломлаштириш муассасалари тарморини куллаб-қувватлаш ва ривожлантириш технологияларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш.

Аҳолди ўртасида педагогик билимларни тарғиб қилиш. Педагогик билимларни тарғиб этиш натижасида миллионлаб қишилар болаларни оилада, боғчада ҳамда мактабларда тарбиялаш принципларини онгли равиша англаб оладилар.

Корхоналарда, хўжаликларда, жамоат жойларда, оилада бола тарбиячи ҳамда ўқитувчилари тўғрисида маърузалар билан чиқиш, теле ва радио эшиттиришлар, интернет расмий сайтларида педагогик тарғибот иши, ўқиб келаётган ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаётгани кенг воситаларидир.

Юртимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этиш учун бизга замонавий илм ва яна бир бор илм, тарбия ва яна бир бор тарбия керак. Бугунги ва эртанги кунимизни, ёшларимиз тақдирини ҳал қиладиган юксак малакали муаллим ва мураббийлар, профессор-ўқитувчилар, ҳақиқий зиёлилар керак.

Ота-оналар университетлари ва лекторийларида педагогика ва руҳшунослик, анатомия ва физиология, оила тарбияси назарияси ва амалиёти тўғрисидаги масалалар бўйича лекция ва маърузалар ўқилади. Лекция ва маърузалардан кейин болалар тарбияси тўғрисида кинофильм ва спектакльлар намойиш қилинади.

Машғулотларни ҳар хил соҳалар бўйича юқори мақалали мутахассислар олиб борадилар.

Педагогик тарғибот ишида қуйидагиларга амала қилини керак:

1. Педагогик тарғибот ҳаёт, жамият қурилиши амалиёти билан боғлаб олиб борилиши лозим. Педагогик тарғибот орқали кенг жамоатчиликка болаларни ҳар томонлама тарбиялаш масалалари ва уларни амалга ошириш йўллари, илмий асосланган усуллари бўйича тушунтириш ишлари олиб борилади.

2. Оила тарбиясидаги ижобий тажрибалар, оиладаги бола тарбиясида йўл қўйилган хатолар ва уларнинг олдини олиш, бартараф этиш йўллари тўғрисида тарғибот ишлари олиб борилади.

3. Педагогик тарғиботга тайёрланишда ота-оналар ҳар хил савияда эканликлари ҳисобга олиниб, улар учун тайёрланган ахборот материаллари ишонарли, кўзгармали ва уларнинг ҳис-туйғусига таъсир кўрсатадиган бўлиши керак.

Шундай қилиб, болалар муассасалари ота-оналар билан турли-туман ишларни мунтазам равишда олиб боргандагина оила оила тарбияси билан ижтимоий тарбия ўртасидаги бирлик ўрнатилиши мумкин.

Янги Ўзбекистон – маърифатпарвар давлат. Ушбу соҳада амалга оширилган ишларимиз жамиятимизни янги босқичга кўтариш, юксак марраларни эгаллаш, Учинчи Ренессанс пойдеворини қуришга хизмат қиладиган ҳозирнинг ўзида яққол намоён бўлмоқда. Маънавият етук, баркамол авлодни тарбиялаш, таълим-тарбияни ривожлантириш, миллий юксалиш ғоясини рўёбга чиқарадиган янги авлодни вояга етказиш – пировард мақсади инсон манфаатларини таъминлаш бўлган ислохотларимизнинг энг муҳим вазифаларидандир.

Хавф-хатарларга қарши фақат куч ишлатиш усуллари билан эмас, балки, жаҳолатга қарши маърифат билан курашиш лозим.

Дунада маънавий таҳдидларнинг, айниқса, сўнгги йилларда кучайиб бораётгани уларга қарши асосан куч ишлатиш йўли билан курашиш усули ўзини оқламаётганидан далолат беради.

Бу борада кўп ҳоллатда таҳдидларни келтириб чиқараётган асосий сабаблар билан эмас, балки уларнинг оқибатларига қарши курашиш билангина чекланиб қолинмақда. Бунда хатарларнинг илдизини бошқа омиллар билан бирга, жаҳолат ва мурасазлик ташкил этади.

Шу муносабат билан одамла, биринчи навбатда, ёшларнинг тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш энг муҳим вазифадир.

ФЙДАЛАНГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.

2. Шавкат Мирзиёев. “ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ”. Тошкент. “O`zbekiston” нашриёти, 2021 й.

3. Шавкат Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз” 06.11.2021 й. кунидан *(Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришини тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи)*.

4. Ф. Қодирова, Ш.Тошпулатова, М.Аъзамова “Мактабгача педагогика” Ўқув қўлланма. Тошкент «Маънавият» нашриёти. 2013 й.

5. П.Юсупова. “Маткбгача тарбия педагогикаси”. Тошкент “Ўқитувчи” 1993 й.

MEDIATA'LIM TEXNOLOGIYALARINI TASHKIL ETISH VA TANQIDIY
YONDASHUVLAR ASPEKTLARI

Yuldasheva Sarvinoz Yusupovna

JDPU Pedagogika va psixologiya fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tahsil oluvchilarda mediakommunikativ qobiliyat va tanqidiy tafakkurni kamol toptirish, medianing ijtimoiy va siyosiy aspektlari, referent tizimini va ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali boruvchi xabarlariga tanqidiy munosabatini shakllantirish masalalari borasida soʻz yuritilgan.*

Kalit soʻzlar: *mediakommunikativ qobiliyat, tanqidiy tafakkur, integratsiyalashgan, yondashuv, muhofaza, yaxlitligi, koʻnikma, shakllantirish, tadqiqotlar, konsepsiya.*

Abstract: *This article discusses the development of students' media communication skills and critical thinking, the social and political aspects of the media, the system of references and the formation of a critical attitude to messages through mass communication channels.*

Keywords: *media communication skills, critical thinking, integrated, approach, protection, integrity, ability, formation, research, concept.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы развития у студентов навыков медиакоммуникации и критического мышления, социальные и политические аспекты СМИ, система ссылок и формирование критического отношения к сообщениям через каналы массовой коммуникации.*

Ключевые слова: *медиакоммуникативные навыки, критическое мышление, комплексность, подход, защита, целостность, способность, формирование, исследование, концепция.*

Mediata'lim berishdan maqsad tahsil oluvchilarda mediakommunikativ qobiliyat va tanqidiy tafakkurni kamol toptirishdan iborat. Bunga esa o'quv muassasasi ixtisosligidan kelib chiqqan holda mediata'lim berishning bazaviy kasbiy va kengaytirilgan kurslari yordamida erishiladi. Bazaviy kurs turli tipdagi maktablar (to'garak va shunga o'xshash) da qo'llanishi mumkin. Aynan A.V.SHarikov birinchilardan bo'lib mediata'lim muammolarini yaxlitligicha o'rganishni boshladi. Qator chet el tadqiqotlarini tahlil etish asosida olim mediata'lim sohasining uch muhim konsepsiyasini ajratib ko'rsatdi:

- mediasavodxonlik konsepsiyasi, bunda asosiy e'tibor kommunikatsiyaning noverbal usullarini va mediamadaniyat tilini o'qitishga qaratiladi;
- axborot muhofazasi" konsepsiyasi - bunda media tilini o'rganish bilan bir qatorda mediamatnlar materiali asosida auditoriyaning tanqidiy tafakkur ko'nikmasi shakllantiriladi;
- ijtimoliy-pedagogik konsepsiya - medianing ijtimoiy va siyosiy aspektlari ta'sirini, "katta" va "kichik" mamlakatlar mediamatnlarining "madaniy notenglik" deb ataluvchi muammolarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, mediata'limni maktab o'quv jarayoniga joriy etishning ikki asosiy yondashuvini tahlil qilingan bo'lib, bular integratsiyalashgan (turli fanlarni o'rganish doirasida) va maxsus (fakultativ yoki majburiy yangi bir fan kiritish) yondashuvlar.

Xorij mediata'limi sohasi metodikasini tahlili natijasida, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar usuli muammosiga e'tibor qaratilgan:

- mashg'ulotlarda erkin muhit, ya'ni o'zaro ishonch muhiti, psixologik komfort yaratish;
- axborotning polisemik (ko'p ma'noli) tavsifidan o'rinli foydalanish; mashg'ulotlarning qat'iy dasturlashtirilgan sxemalaridan voz kechish (improvizatsiya tamoyili);
- axborotni talqin qilish variantlarining ko'p sonli bo'lishi qonuniyati; mashg'ulotlardagi barcha ishtirokchilarning, shu jumladan, o'qituvchining ham axborotga nisbatan tengligini e'tirof etish;
- yaqin ijtimoiy-madaniy muhit hamda bolalarning qiziqishi va hayotiy tajribasiga qarab mo'ljalni olish.

Shu bilan birga mediata'lim berishnig ikki teng huquqli maqsadi ilgari surilgan – mediamatnlarga nisbatan tanqidiy tafakkurni shakllantirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning mediakommunikativ, ijodiy qobiliyatlarini, ya'ni mediamatnlarni qabul qilish, yaratish va uzatish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Mediakommunikativ kompetentlik (omilkorlik, xabardorlik) atamasini asoslab berilgan bo'lib, u texnik va semiotik tizimlar vositasida ularning cheklovlarini hisobga olib xabarlarni idrok etish, yaratish va uzatishda kompetentlikdir. U tanqidiy tafakkur yuritishga, shuningdek, boshqa odamlar bilan medialashtirilgan muuloqotga kirishish qobiliyatiga asoslangan.

Medianing intensiv rivojlanishi sababli vujudga kelgan muammolarning butun spektri ham belgilab berilgan:

- media “parallel maktab” sifatida;
- media va an'anaviy ta'lim tizimi;
- media va bolalarni medianing salbiy ta'siridan “axloqiy himoyalash”;
- media va axborot jamiyati sharoitida tahsil oluvchilarni to'laqonli hayotga tayyorlash.

Ayniqsa bolalar va o'smirlarda qadriyatlar va axloq me'yorlarini shakllanishiga ommaviy kommunikatsiyaning ta'siri muammoasi muhim ahamiyat kasb etdi; “... endilikda o'sib kelayotgan avlodda qadriyatlarining referent tizimini va ommaviy kommunikatsiya kanallari orqali boruvchi xabarlarga tanqidiy munosabatini shakllantirmasdan bu muammoni hal etishning imkoni yo'q”. Tajriba dasturlarida asosiy mazmundor bloklar quyidagilarga ajratilgan: kommunikatsiya nazariyasining bazaviy tushunchalari va qonunlari; semiotik tizimlar, ularning tuzilishi va xususiyatlari; tahlil, talqin etish, baholash va pozitsiya qabul qilish ko'nikmalarini kamol toptirishga asoslangan xabarlarni idrok etish va tushunish; ommaviy kommunikatsiya vositalari (ontologik, tarkibiy, funksional, sotsial va boshqa aspektlar).

Dasturni amalga oshirish paytida asosiy e'tibor, muallifning fikricha, tahsil oluvchilar turli media shakllari bilan ijodiy topshiriqlarni bajarashi shart bo'lgan amaliy mashg'ulotlarga qaratilishi zarur. Bu barchasi turli mediamatnlarni anglash, tushunish, baholash, talqin qilish ko'nikmasini rivojlantirishga, tahsil oluvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon beradi. Mediata'lim – ommaviy kommunikatsiya yordamida va materiali asosida shaxsni kamol toptirish jarayoni: aniqroq aytganimizda, media bilan muloqot madaniyati, ijodiy, kommunikativ qobiliyalarni, tanqidiy fikr yuritishni, mediamatnlarni to'laqonli qabul qilish, talqin etish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini, mediatexnika ko'magida o'z fikrini bayon qilishning turli shakllariga o'qitishni rivojlantirish jarayoni. Mediata'lim olish natijasida egallanadigan mediasavodxonlik insonga televidenie, radio, video,

kinematograf, matbuot, internet axborot maydoni imkoniyatlaridan faol foydalanishda qo‘l keladi, media madaniyat tilini yaxshiroq tushunishga ko‘maklashadi. Mediata‘limni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin: 1) matbuot, radio, televidenie, kino, video va Internet olamida bo‘lajak professionallar – jurnalistlar, redaktorlar, rejissyorlar, prodyuserlar, aktyorlar, operatorlar va boshqalar mediata‘limi; 2) universitetlar va institutlarda, media madaniyat bo‘yicha kurslarda oliy o‘quv yurti va maktablarning o‘qituvchilari malakasini oshirish jarayonida bo‘lajak pedagoglar mediata‘limi; 3) mediata‘lim maktab o‘quvchilari, talabalar, o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarida, oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchilar umumiy ta‘limining bir qismi sifatida. Bunday ta‘lim o‘z navbatida an‘anaviy, kasbiy yoki maxsus fanar bilan integratsiyalashtirilgan bo‘lishi mumkin; 4) qo‘shimcha ta‘lim muassasalari va dam olish markazlari (madaniyat uylari, maktabdan tashqari ish, estetik va badiiy tarbiya markazlarida, yashash joyidagi klublarda) mediata‘lim; 5) maktab o‘quvchilari, talabalar va katta yoshli kishilarni matbuot, televidenie, radio, video, DVD, Internet tizimi (bunda mediatanqid ulkan rol o‘ynaydi) yordamida masofaviy mediata‘lim berish; 6) mustaqil-uzluksiz mediata‘lim olish (bu nazariy jihatdan insonning butun hayoti davomida amalga oshirilishi mumkin).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
2. Djuraev R. Ta‘limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
3. Jo‘raev H.O. Integratsiyalashgan mediata‘limdan foydalanib muqobil energiya manbalariga oid ma‘lumotlar berish// O‘zMU xabarlar. – Toshkent, 2016.№1/5.
4. Mirsoatova M. Yosh jurnalist kadrlarni tayyorlashda mediata‘lim tizimini olib borish jarayoni. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
5. Мурюкина Е.В., Челышева И.В. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в рамках специализации «Медиаобразование»: учеб. пособие для вузов / отв. ред. А.В. Федоров. Таганрог: Изд-во Кучма, 2007.

INNOVATIVE APPROACH TO ENGLISH TEACHING IN SECONDARY SCHOOLS

Mahkamova Nargiza

Tashkent city Bektemir district, School №-290 English teacher

Abstract: *This article discusses innovative approaches to teaching English in secondary schools, modern methods promoted by teachers for students' free thinking, deep speech, sensitivity, enthusiasm for language learning, active participation in classes. is called.*

Key words: *Novelty, grammatical structure, lexical unit, phonetic changes, primary education.*

INTRODUCTION: Today, the development of the young generation is to learn languages, especially English check the operation. Therefore, this language is used in secondary schools A wide range of innovative methods from the pedagogue for deeper teaching is required. For this reason, adopted on December 10, 2012 "Foreign "On further support for language learning" and 2013-2014 languages in the first grades of annual general public schools the introduction of teaching is a clear proof of this. English as a world language is emerging as the most desirable language in all fields, and not only because of this in elementary grades, economically, scientifically, and culturally developed times learning languages is the main factor in mastering the achievements of world science and development fully aware that it is a profession even among high school students the importance of language is definitely paid attention to in their choices. Other areas as well as learning a language together with the minds of young students also depends.

Another important aspect of teaching English is the state of the student to control the complete reception of information. Thoughts of children in a group imaginations, thinking, worldviews and receiving information will be different. That's it according to the teacher based on the characteristics of the character of each student should carry out the process. For example, in some students, visual recall, in another, the ability to remember by hearing is formed by nature possible According to these features, learning English will be in 3 main directions

Visual learning - remembering information by seeing

Auditory learning - remembering information by hearing

Kinaesthetic learning - remembering information through actions

Taking into account the above characteristics, the teacher and the students have a lesson topic during exercises, preparing role plays, and games If explained or organized, it produces a result that is felt and language in the learner motivates learning

CONCLUSION: In conclusion, it should be noted that there are different classes of English in general education schools taking into account the age and psychological characteristics of students, to fully satisfy their interest and needs in learning a foreign language a modern lesson based on pedagogical innovative technologies teaching with the help of developments is highly effective for students to learn the language will give.

REFERENCES:

1. Islam Abdug'aniyevich Karimov's December 10, 2012 "Foreign languages PQ-1875- numerical decision.
2. Iriskulov A. T. and others Kids' English pupil's book 2nd grade-TashkentUzbekistan; 2014.
3. Hashimov O'. H, Yakubov I.Y.A. English language teaching methodology-Tashkent-2003.
4. <http://www.ziyonet.uz>.
5. <http://www.pedagog.uz>.

NOMA'LUMNING KASR QISMI QATNASHGAN TENGLAMALAR SISTEMASI

Muhammademinov Alijon Azizjon o'g'li

Andijon davlat universiteti talabasi

Muhammademinov Ahmadjon Azizjon o'g'li

Farg'ona viloyati Rishton tumani umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchisi

Annotation: *The essence of the topic is that we have previously considered ways to solve equations involving the whole and fractional part of the unknown. Now let's consider the system of equations related to it. we need to know about the system of equations.*

Keywords: *System of equations, put in place, crimes, general solution, Gauss method, interval, designation.*

Annotatsiya: *Mavzuning mohiyati biz avvalda ko'rib o'tgan noma'lumning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni yechilish yo'llarini ko'rib o'tgan edik. Endi esa unga doir tenglamalar sistemasini ham ko'rib chiqaylik. Bu uchun albatta biz oddiy tenglamalar sistemasi haqida malumotlarga ega bo'lishimiz kerak.*

Kalit so'zlar: *Tenglamalar sistemasi, o'rniga qo'yish, ayniyatlar, umumiy yechim, Gauss usuli, oraliq, belgilash.*

Demak mavzu mohiyatidan kelib chiqib aytish mumkinki chiziqli tenglamalar sistemasi umumiy yechimlarga ega bo'ladi.

Biz boshlagan mavzu ham huddi shu kabi bo'ladi. Bu mavzuga kirishdan oldin tenglamalar sistemasi umuman sistema haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsak.

Sistema bu umumiylik. Yani umumiy yechimga erishilishi uchun ikki va undan ortiq noma'lumlarni o'z ichiga oluvchi bir tizim desak mubolag'a bo'lmaydi. Sistemadagi noma'lumlar bir-birini bevosita to'ldiradi. Yani birinchi noma'lum bilan ikkinchisi ikkinchi nomalum birinchi yoki uchinchisi bir-biri bilan hamohanglikda yechimni keltirib chiqaradi.

Oddiy tenglamalar sistemasini yechishning bir necha xil usullari bor. Masalan o'rniga qo'yish usuli yoki Gauss usuli (qo'shish usuli nomi bilan mashxur). Biz o'rganadigan tenglamalar sistemasini yechishda ham aynan shu usullardan foydalaniladi.

Buning uchun bizga
$$\begin{cases} a\{x\} + b\{y\} = c \\ d\{x\} + t\{y\} = e \end{cases}$$
 ko'rinishdagi tenglamalar sistemasi

berilgan bo'lsin. Bu tenglamani yechish uchun istagan usulimizdan foydalanishimiz mumkin. Dastlab noma'lumlarni belgilab olaylik. Yani $\{x\}$ ni qandaydir X va $\{y\}$ ni Y deb belgilaylik va tenglamalar sistemasini quyidagi ko'rinishga o'tkazamiz:

$$\begin{cases} aX + bY = c \\ dX + tY = e \end{cases}$$
 endi dastlabki tenglamalar sistemasi chiziqli tenglamalar sistemasiga

aylandi. Endi bu tenglamalar sistemasini yechib natijada erishilgan qiymatlarni yani X va Y larni $\{x\}$ va $\{y\}$ ko'rinishga olib o'tib asl yechim olinadi. Bizga ma'lumki yechim oraliqlar bo'ladi. $x \in x_1+n$ va $y \in y_1+m$ ko'rinishda yechimlarga ega bo'lamiz. Bunday ko'rinishdagi yechimlarni qanday olganimiz "Noma'lumning kasr qismi qatnashgan tenglamalar" nomli maqolada to'liq tushuntirilgan.

Amaliyotda ham bir nechta shu mavzuga oid misollarni ishlab ko'raylik:

$$\begin{cases} 2\{x\} - 3\{y\} = 1 \\ 2\{x\} + 4\{y\} = 2 \end{cases} \text{ tenglamalar sistemasini yechaylik.}$$

Demak birinchi navbatda belgilash kiritib olaylik, $\{x\}=X$ va $\{y\}=Y$ ko'rinishda. Natijada sistemamiz quyidagi ko'rinishga o'tadi:

$$\begin{cases} 2X - 3Y = 1 \\ 2X + 4Y = 2 \end{cases} \text{ bu ko'rinish esa biz bilgan oddiy chiziqli tenglamalar sistemasi}$$

ko'rinishiga o'tdi. Endi esa bu sistemani Gauss usuli yordamida yechishni ma'qul ko'rdim. Gauss usuli o'sha bizga qo'shish usuli nomi bilan mashxur bo'lgan usul bo'lib noma'lumning oldidagi koeffitsiyentlarini tenglab ularni qo'shib yoki ayirib noma'lumlar sonini kamaytirish usuli.

$$\begin{cases} 2X - 3Y = 1 \\ 2X + 4Y = 2 \end{cases} \text{ sistemani yechaylik. Buning uchun pastki tenglikdan tepadagi}$$

tenglikni ayiraylik va natijada X lar yo'qolib ketadi. Qolgan qismni esa yechib Y ni topsak bo'ladi:

$Y = \frac{1}{7}$ kelib chiqadi. Endi esa sistemaning hoh tepadagi hoh pastdagi tengligidagi Y larning o'rniga ni qo'yib X ni topib olaylik:

$$\text{Bundan } X = \frac{5}{7} \text{ ekanligini ko'rish mumkin.}$$

Erishilgan qiymatlar hali asl yechim emas. Dastlab biz belgilash kiritgan holatga qaytish lizim. Yani $X = \{x\}$ va $Y = \{y\}$ lardan x va y ni topaylik:

$$\{x\} = \frac{5}{7} \text{ va } \{y\} = \frac{1}{7} \text{ degan ikkita noma'lumning kasr qismi qatnashgan tenglamalar paydo}$$

bo'ldi. Bu turdagi tenglamani yechishni ko'rib o'tgannimiz. Demak: $\{x\} = \frac{5}{7}$ tenglamaning yechimi $x \in \frac{5}{7} + n$ va $\{y\} = \frac{1}{7}$ tenglamaning yechimi $y \in \frac{1}{7} + m$ ko'rinishda bo'ladi va

bu umumiy yechim deyish mumkin. Ikkita oraliq umumiylikda $\begin{cases} x \in \frac{5}{7} + n \\ y \in \frac{1}{7} + m \end{cases}$ va $m, n \in \mathbb{Z}$

Z sistemaning yechimi bo'ladi. Shu kabi tenglamalar sistemasi berilsa noma'lumni belgilab yechimga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoiljon Hayitaliyev-Butun va kasr sonlar(qo'lyozma),2020.
2. Mihaly Bencze - Tengsizliklar(qo'lyozma), 1982.
3. "Oktogon" matematik jurnali to'plami(1993-2006).
4. Shokirova - Karrali va egri chiziqli integrallar(1992).

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASHDA MILLIY
TARBIYANI O'RNI****Mamirova Gulhayo Boxadirovna***Jizzax viloyati G'allaorol tumani 79-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong.*

Tarbiya – yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, uning yetakchi g'oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta'lim olish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Ta'lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy – axloqiy sifatlar tarkib topadi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish munitkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli axborotli o'qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o'ziga xos urf-odatlar va an'analari, ta'lim-tarbiya haqidagi

g'oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o'tmishda ko'plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo'lgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan kishilar to'g'risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r istidodga ega; yomon ishlardan o'zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasbhunarning chinakam oshig'i bo'ladilar».

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. - T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 592- b.
2. Tolipov O’, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. 2005-yil.
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. . 184-185-b.

CHET TILLARINI O'QITISHDA INTENSIV METODLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Eshmamatova Asal Oybek qizi

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi**Ilmiy rahbar: Yuldasheva Salomat*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish metodikasi, ularning rivojlanish tarixi va bosqichlari, bugungi kunda chet tilini o'qitish metodikasi qo'llanilayotgan zamonaviy metodlar va ularning turlari, ulardan qanday foydalanish haqida so'z boradi.*

Abstract: *This article talks about the methodology of teaching foreign languages, the history and stages of their development, the modern methods and their types used in the methodology of teaching foreign languages today, and how to use them.*

Kalit so'zlar: *metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko'nikma, malaka, didaktika.*

Keywords: *methodology, innovation, foreign language, communication, skills, competence, didactics.*

KIRISH

Hozirgi davrda ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalishlar bo'yicha innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Shu o'rinda innovatsiya nima degan savol tug'iladi. Innovatsiya- inglizcha "yangilikni kiritish yoki tarqatish" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti esa Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni, qatnashuvchilarning tavsifi, ularning yangiliklarga bo'lgan qiziqishlari va boshqalarni o'rgangan. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari bir-biridan tubdan farqlanadi. "Yangilik"-bu vosita, yangi metod turi, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya"- bu ta'limning ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti gurkirab yashnamoqda. Holbuki, bu bizning diyorimizga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Ilm dunyomizga ilg'or innovatsion texnologiyalar ham tatbiq etilmoqda. Buning yorqin ifodasi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan 2021-yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili" deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarining ma'suliyatini yanada oshirdi. Ta'lim sohalariga ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o'rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desam xato bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet til bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G'arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o'qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta'lim muassalarining o'quv rejalaridan o'rin olgan. Uchala tilni o'qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun'iy muhitda o'rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o'rganish va o'rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tegishli chet til o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o'zlashtirish orqali o'quvchi-talabaniing to'plagan til tajribasi me'yorini aniq

bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o'rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o'rganish va o'rgatish ko'p jihatdan chet til o'qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda qo'llanishiga bog'liqdir.

Metodikaning predmeti- chet til predmeti orqali ta'lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o'rgatish ilmi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganish metodikaning predmeti sanaladi.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o'qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o'qitish metodikasi fan bo'lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o'qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiy va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug'ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodika tarixiga oid ilmiy namunalarni tubdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani *san'at* deb atashadi. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya'ni "yaxshi" yoki "yomon" metod yo'q "yaxshi" yoki "yomon" o'qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi: "Agar kimki metodikani san'at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo'llanishi bilan qorishtirib yuboradi". **Chet til o'qitish metodi** deyilganda chet til o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi "ta'lim usullari yig'indisi" va "ta'limning yo'nalishi" ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi ta'lim nazariyasida jarayon metodlar ma'nosida ishlatilsa, ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o'qitishning tarjima metodi, tog'ri metod, ongli-qiyosiy metod, an'anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. "Chet til metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni assotsatsiya "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig'indisi tushuniladi yoki o'qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko'z oldimizga keladi, Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiy nazariyasi, metodika muayyan o'quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiy nazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son-sanoqsiz ta'riflarga ega. Keling shu o'rinda bunga misol bo'la oladigan metod turini ko'rib chiqsak.

Kommunikativ didaktika chet tillarining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi va o'quvchilarga muomala qilishni o'rgatuvchi yangi o'quv rejasi hisoblanadi. Shuningdek, Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

-Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;

- mavzu va mazmun muhim; - darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;

- o'quvchilari faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e'tibor katta bo'lishi zarur; Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e'tibor berish;

-Ma'noni ochishda, harakat ko'lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko'rish tayanchi) muhim rol o'ynaydi;

- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish (dialogni mashq qilish);

- Tildan og'zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi.

XULOSA

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan, ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o'rganish natijasida o'zga mamlakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun "mashqni tashkil qilish texnologiyasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o'zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chet til o'rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchun esa, so'ngi qadam, "mashq texnologiyasi"ga e'tibor qaratish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. *Science and Education*, I(Special Issue 3). 2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. *Science va Ta'lim*, 7(7), 215-220.

3. Jo'raboyev, B. V. O. (2021). Ingliz tilidagi haqiqiy materiallardan foydalanish darslar Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Fan va ta'lim, I(Maxsus 4-son).
5. Juraboev, B. (2020). Motivirovannyye ludi dlya udovletvoreniya svoix sobstvennyx potrebnostey. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, (3)
6. Jo'raboyev, B. B. U. (2021). Onlayn o'qitish uchun muammolar va echimlar va chet tillarini o'rganish. Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 2 (Maxsus 2-son).

TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKI VA UNI BOSHQARISH

Abdullayev Shahobiddin Shamsiddinovich

O'zbekiston Respublikasi Bank va Moliya akademiyasi tinglovchisi, ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarida foiz riski va uni boshqarish usullari o'rganilgan. So'nggi paytlardagi global iqtisodiy o'zgarishlar tufayli rivojlanayotgan mamlakatimizdagi tijorat banklarida foiz stavkasini o'rnatish, foiz riskini kamaytirish va uni boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois to'g'ri foiz stavkasini o'rnatish va banklarda foiz riskini kamaytirish borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Foiz riski, tijorat banklari, foiz stavkasi, Markaziy bank, iqtisodiy o'sish.

Bugungi kunga kelib davlatning rivojlanishida, aholining yaxshi yashashida va iqtisodiy o'sishda tijorat banklarning roli muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, tijorat banklarining faoliyati va ularning doimiy o'sishi kafolatlanmagan. Dunyo miqyosidagi keskin iqtisodiy-siyosiy munosabatlar oqibati, Respublikamizdagi iqtisodiy o'zgarishlar, Markaziy bank tomonidan foiz stavkasining tez-tez o'zgartirilib turilishi tijorat banklarining bir tekis faoliyat ko'rsatishiga ma'lum darajada halaqit beradi. Foiz stavkasining noto'g'ri o'rnatilishi kredit mahsulotlarini sotishda, omonot yoki aholining bo'sh turgan mablag'larini jalb qilishda muammolarga sabab bo'lishi va tijorat banklarining daromadi tushishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy bozor sharoitida faoliyat yuritib borayotgan banklar uchun foiz riskini baholash, tahlil qilish va boshqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Resurslarni jalb qilish bo'yicha tijorat banklari faoliyati, asosan, aktiv va passivlarni boshqarish bo'yicha kuchli o'ylangan strategiyaga asoslangan holda bo'ladi. Jalb qilingan resurslarni yuqori foizlarda bankning zarariga qaytarmaslik uchun va turli zararlardan qochish uchun bank juda yaxshi o'ylangan foiz riskini boshqarish strategiyasiga ega bo'lishi zarur. Ushbu tizimning asosiy vazifalari: risklarni aniqlash, ularning hajmini hisoblash, monitoringini tahlil qilish, mavjud xavf-xatarlarga qarshi turli instrument va vositalardan foydalanish bo'yicha ishlarni amalga oshirishdan iborat. Tijorat banki faoliyati samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan kredit riski va likvidlik riski bilan bir qatordagi muhim xavflardan biri bu foiz stavkasi riskidir. Shuning uchun moliyaviy xizmatlar bozorida faoliyat yurituvchi har qanday bank faoliyatida foiz riskini boshqarishni yo'lga juda ham zarurdir. Foiz stavkasi riskini boshqarish har qanday tijorat banki faoliyatining asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanib, hatto kreditlarni qaytarish bilan bog'liq muammo yo'qligida ham bankning mavjudligi va faoliyatini davom ettirish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. [1,215]

Foiz stavkasining o'zgartirilishi natijasida yuzaga kelgan bankning moliyaviy yo'qotishlari foiz riskini tashkil qiladi. Bundan kelib chiqadiki, foiz riski deganda biz foiz stavkasi o'zgarishi tufayli kredit taqdim qilinishiga zarur bo'lgan jalb qilingan mablag'larning qiymati o'zgarishini tushunishimiz kerak. [2,56]

Risk - faoliyat yuritish davomida turli xil omillarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatar yoki xatarlar majmuasidir.

Piter S. Rouzning bankirlar orasida mashhur "Bank menejmenti" kitobida foiz riskiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Foiz riski - foiz stavkasining kutilmagan holda salbiy tomonga

o'zgarib ketishi oqibatida bankning foydasi, shu bilan birga bank kapitalining kamayishidir". [3,58]

Foiz riski - bu tijorat banklari jalb qilgan resurslari foiz stavkasining u bergan kreditlar foiz stavkasidan ortib ketishidir, deb ta'rif berishgan. Bunday ta'rif ko'plab adabiyotlarimizda tan olingan bo'lib, ko'proq bizning bank tizimimizni hisobga olib berilgan. Bizning fikrimizcha esa, ikkala ta'rif ham to'g'ri deb olsak bo'ladi. Birinchi ta'rifning o'ziga xos jihati shundaki, unda banklarning fond bozorida amalga oshiradigan operatsiyalari bo'yicha foiz risklarini ham qamrab olingan.

"Foiz riski doimiy ro'y beradimi yoki undan qochish mumkinmi?" degan savol tug'iladi. Nazariy jihatdan mumkin, agar aktivlardan olinadigan daromadni (kredit foiz stavkasini) muddatlari va miqdorlari bo'yicha jalb qilingan mablag'lar muddat va miqdoriga mos ravishda balanslashtirib turilsa, risk yo'qoladi. Ammo amaliy jihatdan har qanday vaqtda barcha kreditlarni bunday balanslashtirib bo'lmaydi, banklar ham bunday siyosat olib borishga ishtiyoqmand emas. Shuning uchun ham banklar doimo foiz riskiga duch kelishadi, bu esa foiz riskidan qochishga emas aksincha uni boshqarib turishga olib keladi.

Foiz riskining ikki turi ajratiladi:

1. Pozitsion
2. Strukturaviy

Pozitsion risk - bu faqat bitta pozitsiya bilan (aniq bir vaqtning foiz stavkasi bilan) bog'liq riskdir. Misol uchun, bank suzib yuruvchi stavkada kredit berdi. Bu unga foyda olib keladimi yo'qmi noaniq. Balansda bunday riksni oldini olish uchun nima qilsak bo'ladi? Avvalambor omonatlar bo'yicha foizlarni o'zgartirish lozim va bank aktiv va passivlar bo'yicha foizlarni tenglashtirish kerak.

Strukturaviy risk - bu bankning butun balansi bo'yicha risk bo'lib, pul bozoridagi foiz stavkasining tebranishi natijasida yuzaga keladi. [4,89]

Foiz stavkasi xarakteridan kelib chiqib quyidagi turlarga bo'linadi:

- qat'iy foiz riski;
- o'zgaruvchi foiz riski;
- hisobdan chiqarish riski (qimmatli qog'ozlar kursi o'zgarishi bilan bog'liq). [4,90]

Foiz riskini baholashda foiz marjasidan foydalaniladi. Foiz marjasi daromad keltiruvchi aktivlar bo'yicha foiz daromadlar bilan bankning majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlari o'rtasidagi farq tushuniladi. Foiz marjasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$M_{\text{xaq}} = \frac{DF - XF}{AD} * 100$$

Bu erda:

Mhaq - foiz marjasining haqiqiy hajmi;

DF - foizli daromad;

XF - foiz to'lovlari bo'yicha xarajatlar; keltiruvchi aktivlar;

AD - foizli daromad keltiruvchi aktivlar;

Foiz marjasi quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinadi:

- haqiqiy foiz marja bilan uning bazasi bilan solishtirish, natijada foizlar bo'yicha daromadning o'sishi yoki kamayishini aniqlash mumkin;
- foiz marjaning standartlarga yoki bank qoidalariga mos kelishini nazorat qilish;
- qaysi turdagi daromad (xarajat) foiz marjasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun uning tarkibini tahlil qilish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foiz marjasining o'zgarishi chegaralarini aniqlash;

Foiz marjasining hajmiga ta'sir qiluvchi omillarga kredit qo'yilmalarining tarkibi va hajmi hamda ularning manbasi, to'lovlar muddati, foiz stavkalarining foydalanilishi va ularning harakati kiradi. [5,4]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Магзумова Н.В., Найденова В.В. Менеджмент банка: проблемы и перспективы / Экономика и управление в современных условиях: проблемы и перспективы. Сборник научных трудов по материалам V Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Под научной редакцией проф. А.А. Тамова. Майкоп: АГУ, 2018. С. 215-222.

2. Солонина С.В. Болдырева Л.В. Современные проблемы и приоритеты развития рынка банковских услуг региона // Финансы и кредит. 2011. № 25 (457) С. 56-62.

3. Commercial Bank Management: Rose, Peter S. Page 58

4. Борисов А. Б. Плавающая процентная ставка // Большой экономический словарь. — М.: Книжный мир, 2003. — 89-90 с. — ISBN 5-8041-0049-1.

5. Тижорат банклари фоиз сиёсатининг ликвидликлка таъсири. Бердияров Бахриддин Тавашарович, ЎзР БМА кафедраси мудири, и.ф.н., доцент. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2017 йил 5-бет

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA O'QITUVCHILIK VA SHIFOKORLIK KASBGA
OID LEKSIKANING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

G.B.Ergasheva

*Qarshi Davlat universiteti Magistratura bo'limi
Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 022-9 -guruh magistranti*

Annatsiya: *Mazkur ilmiy maqoladan ko'zlangan maqsad o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan bir nechta so'zlarni tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqola esa namuna sifatida bir qancha o'zbek tilidagi inglizcha neologizmlarning asli va hozirgi qo'llanilish doirasi hamda shu kabi jihatlarini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy kommunikatsiya, pedagogika, tibbiyot, leksika, o'zlashgan so'zlar.*

FEATURES OF FORMATION OF LEXICON RELATED TO TEACHING AND
MEDICAL PROFESSIONS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

G.B.Ergasheva

*Karshi State University Graduate Department
Linguistics (English) major Graduate student of group 022-9*

Annotation: *The purpose of this scientific article is to analyze several words that entered the Uzbek language from English. This article, as an example, reveals the origin and current scope of some Uzbek English neologisms, as well as similar aspects.*

Keywords: *modern communication, pedagogy, medicine, lexicon, acquired words.*

The role of language in self-awareness is important. The first President I.A. Karimov said about this: "... it is necessary to preserve our mother tongue passed down from our ancestors, to enrich it and increase its prestige. Especially fundamental sciences, modern communication and information technologies, banking and finance system, expanding the scope of use of our native language, developing the necessary terms and phrases, concepts and categories, in a word, comprehensive development of the Uzbek language on a scientific basis, national identity, sense of the Motherland "It will undoubtedly serve the noble purpose of understanding him," he said. The lexicon is an important part of the language that keeps pace with society and requires reflection of changes in it. The lexicon reflects the changes in the language to a wider scope than itself.

Science is always in development and progress. Today, it has gained unprecedented momentum. If we look at the present world, we will see that the world around us is surrounded by modern technologies. On the other hand, the strong geopolitical policy between countries is also causing the globalization process to take a serious turn. At the moment, as a result of the development of society, the development of information technologies and the expansion of interstate political, economic and cultural relations, the transfer of interlinguistic words from one to another is accelerating. This process also directly

affects the Uzbek language and enriches the lexicon of the Uzbek language with borrowed words - neologisms. The lexicon of the Uzbek language is regularly enriched at the expense of internal and external sources. The changes in the life of society in the XIX-XX centuries accelerated the process of assimilation and disuse of words. During this period, not only Russian, but also English, Chinese, French, and Spanish words entered through the Russian language.

English belongs to the Germanic group of the Indo-European language family. There are different ways of acquiring English words into the Uzbek language. If the concept does not have an Uzbek name or has its own positive and effective effect, it is directly appropriated. For example, the words borrowed from the English language in medicine, such as doctor-doctor, organ-organ i.e. body parts, operation-operation, etc., do not have a clear and concise explanation in the Uzbek language. That's why they entered the Uzbek language directly from the English language. Such words are also found in the field of pedagogy. Training - training system, exercise, training mode; Since new appropriations have the color of novelty, they are written differently in the sources. There are many such words in the lexicon of their class, so their spelling should be avoided as much as possible. Learning the vocabulary of the Uzbek language has had a significant impact. There are more than 20 language acquisitions. In addition, there are also acquisitions of less active languages in our language. It is worth noting that when words are acquired from English to Uzbek, their structure or semantic meaning changes. Some words change while keeping their original meaning, while others may have expanded, narrowed, or completely different meanings. Here, as noted by linguist N. Mahmudov, it should always be remembered that the issue of the norm and nationality of foreign acquisitions of the Uzbek language is of extraordinary importance within the framework of spiritual and cultural spheres. In other words, each word that is being assimilated should be analyzed in terms of its nationality, meaning, and Uzbek mentality, and whether this word should be included in the dictionary of the Uzbek language. The explanatory dictionary of the Uzbek language in the old edition included about 80 English borrowings, while the new edition of the explanatory dictionary of the Uzbek language explained more than 500 English borrowings.

After independence, the amount and meaning development of English loanwords among loanwords is unique. Changes in the semantics of English loanwords from the lexicon of the Uzbek language are significant. takes a leading position in fast delivery of bread. also serves to make the speaker's speech effective, clear and scientific. It can be concluded that: Neologisms appear due to the needs of society and the times and acquire the color of permanence according to their use.

REFERENCES:

- 1.Karimov I.A. –Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuchll. - Toshkent:Ma'naviyat, 2008. B. - 87.
- 2.Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: Filologiya fanlari nomzodi....diss. avtoref. - T., 2010. 6-b.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildli -M., Русский язык. 1981.; O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi; 2006-2008.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. -T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12 tomli. 2000-2006.
5. Mahmudov N. O'zbek tilida o'zlashma so'zlar: me'yor va milliylik // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. 6-son. 8-bet.

**БЎЛҒУСИ ҲАРБИЙ МУТАХАССИСЛАРИДА ВАТАНГА ФИДОЙИЛИК
ТУШУНЧАЛАРИНИ СИНГДИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ****Қўчқоров Собиржон Аҳаджонович***ФарДУ Ҳарбий таълим факультети**Илмий ишлар ва инновациялар бўйича декан ўринбосари*

Бугунги кунда мамлакатимизда қабул қилинган Миллий хавфсизлик концепцияси, Қуролли Кучларнинг узок муддатга мўлжалланган Дастурининг бош мақсади – ихчам, тезкор ва ҳаракатчан, замонавий қурол-яроқ ва техника билан таъминланган, стратегик ва тактик вазифаларни самарали хал эта оладиган, сарҳадларимиз дахлсизлиги, юртимиздаги тинчлик ва барқарорликни бузишга қаратилган ҳар қандай ёвуз ҳаракат ва хуружларни бартараф этиш ва уларга муносиб зарба беришга қодир бўлган кучли армияни яратишга қаратилган.

Албатта ушбу вазифаларни амалга оширишда олий таълим муассасасида ҳарбий таълим йўналишида билим олаётган талабаларда ҳарбий интизом, масъулият, бурч, ватанпарварлик туйғуларини шакллантириш муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ҳарбий таълим жараёнида талабаларда жисмоний ва маънавий жихатдан чиниқиш, Ватан химояси учун доимо тайёр туриш каби билим, кўникма ва малакалар шаклланади. Уларда ҳарбий салоҳият, ҳарбий-сиёсий муаммолар, жамоа хавфсизлиги ҳақидаги тафаккур камол топади.

Талабаларнинг ҳарбий билимга эга бўлиши шахс сифатида шаклланишида муҳим аҳамиятга эга. Чунки, ҳарбий билим талабада масъулият, интизом хиссини шакллантириш билан бирга жисмонан ва руҳан чиниқтиради, иродасини чархлайди. Талабаларни ҳар томонлама баркамол, ватанпарварлик руҳида тарбиялайди. Ҳарбий билим талабаларда Ватан олдидаги масъулиятни хис қилиш, Ватанга садоқат туйғуси шаклланишида асосий омил саналади. Қолаверса, миллий ўзликни англаш, ватанпарварлик, ва билим олишга иштиёқ уйғотади. Мана шу туйғуларнинг асоси ҳарбий таълим жараёнида шаклланади.

Олий ўқув юртининг ҳарбий таълим йўналишида фаолият юритаётган ҳар бир талаба ҳарбий салоҳиятга эга бўлишдан ташқари маънавий жихатдан ҳам етук бўлиши, минтақадаги ҳарбий-сиёсий муаммоларни тинч йўл билан ечиш, жамоа хавфсизлигини вужудга келтириш, терроризмга қарши биргаликда кураш каби ишларни бажаришда фаол иштирок этиш масъулияти камол топади.

Мамлакатимизда олиб борилаётган туб ислохотлардан келиб чиқиб қуйидаги вазифалаврга алоҳида эътибор берилиши керак:

- талабаларда ҳарбий билим самарадорлигини ошириш педагогик муаммо сифатида илмий назарий асослаш, унинг моҳияти, асосий тушунчаларини таърифлаш;
- талабаларда ҳарбий билим самарадорлигини оширишга доир илмий-педагогик ҳамда амалиётдаги ҳолатни ўрганиш;
- талабаларда ҳарбий билим самарадорлигини ошириш мазмуни, шакл ва методларини ишлаб чиқиш;

- талабаларда ҳарбий билим самарадорлик даражасини аниқлаш;
- талабаларда ҳарбий билим самарадорлигини ошириш бўйича методик тавсиялар ишлаб чиқиш.

Инсониятнинг эзгу орзу-ниятларидан бири – бу юртда тинчликнинг барқарор бўлиши ҳисобланади. Зеро, юртда тинчлик бўлсагина, халқ меҳнат қилади, моддий ва маънавий неъматлар яратади, жамиятда ривожланиш ва тараққиёт таъминланади. Тинчлик жамият аъзолари имкониятларини ягона мақсад – халқ фаровонлигини ошириш, ижтимоий, иқтисодий ва маданий ривожланиш бўйича юқори натижаларни қўлга киритишнинг муҳим омилларидан биридир. “Башарият фақат тинчлик ва осойишталик барқарор бўлган тақдирдагина ўз олий мақсадларига эришади, моддий ва маънавий юксаклик кўтарилади”. Юрт тинчлиги халқ осойишталиги, фаровонлиги гарови бўлиб, унинг барқарор бўлиши фуқароларнинг уни сақлаш йўлида кураш олиб боришлари, фидойий ва ватанпарвар бўлишларига боғлиқ.

“Ўзбек халқи тинчликни юксак қадрлайди, уни ўз орзу-интилишлари, мақсад муддаолари рўёбга чиқишининг кафолати деб билади”. Шу боис мустақилликнинг дастлабки кунлариданоқ юртда тинчликнинг мангу барқарор бўлишини таъминлаш, уни асраш, қўшни давлатлар билан ўзаро дўстлик, биродарликка эришиш, шунингдек, халқаро майдонда ижтимоий, иқтисодий ва маданий соҳаларда ҳамкорликни йўлга қўйишга жиддий эътибор қаратиб келинмоқда.

“Бугунги кунда Ўзбекистон халқининг миллий тараққиёт йўлидаги асосий мақсади – озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт барпо этиш бўлиб, бу ғоя миллатимизнинг азалий орзу-умидларини, интилишларини, бунёдкорлик фаолиятининг маъно-мазмунини ифодалайди”.

“Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да “юрт” тушунчаси “маълум халқ, аҳоли яшаб турган жой, ўлка, мамлакат, ватан” дея таърифланса, “тинчлик” атамаси “уруш, ўзаро зиддиятли тўқнашувлар ва шу кабилардан ҳоли шароит, тинч шароит” маъносини англатишига урғу берилади.

“Тинчлик” тушунчаси муайян шароит, вазият ва ҳолатни ифода этиш билан бирга турли халқлар, давлатлар ўртасидаги муносабат даражасини ҳам кўрсатишга хизмат қилади. Бунда давлатлараро муносабатлар улар ўртасидаги ўзаро имзоланган шартномага мувофиқ ҳеч қандай зўрлик воситаларисиз, ишонч асосида ўз зиммаларига олган мажбуриятларнинг сўзсиз, қатъий бажарилиши асосида йўлга қўйилади. Ташқи сиёсатда бундай йўл тутилиши уюшган ҳарбий, қуроли тўқнашувлар рўй беришининг олдини олибгина қолмай, давлатлар ўртасида жамият раванқини кафолатловчи, фойдали шартномаларнинг имзоланишига шароит яратиб беради.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикаси миллий истиқлол ғоясининг энг асосий тамойилларидан бири сифатида юрт тинчлиги эътироф этилган. “Зеро, тинчлик ва осойишталикни сақлаш ўз-ўзидан содир бўладиган ҳодиса эмас... Айниқса, миллий мустақилликка тажовузнинг турли шакллари, мураккаб “технологияси” вужудга келган ҳозирги даврда юрт тинчлигини сақлаб қолиш учун мустақкам

қатъият, кучли ирода ва моддий-молиявий ресурслар зарур бўлади. Бу ҳақиқатни одамлар онгига сингдириш, уларни юрт тинглигини сақлаш мақсадлари, вазифалари натижасида вужудга келган айрим қийинчиликларга чидам ва сабр-тоқатли этиб тайёрлаш миллий истиқлол мафқурасининг бош йўналашларидан биридир”.

Юқорида билдирилган фикрларга кўра айтиш мумкинки, “юрт тинчлиги” тушунчаси луғавий жиҳатдан “уруш, ўзаро зиддиятли, қуроли ёки қуролсиз тўқнашувлардан ҳоли, иқтисодий, ғоявий, экологик, турли бузғунчи ахборот таҳдидларидан муҳофазаланган ўлка (мамлакат, жой)” маъносини англатади.

Миллатлараро, этник ёки диний зиддиятлар, низолар мавжуд бўлган давлатларда тинчликни барбод этувчи урушлар юзага келади. Урушларнинг рўй бериши жамият тараққиёти, унда яшовчи халқ, миллат ёки элатларнинг маданий даражаси, уларга хос бўлган кадриятлар мазмуни билан характерланади. Тинчликнинг барқарор бўлишида ҳам ана шу хусусиятлар муҳим аҳамият касб этади.

Ҳар қандай юртда тинчлик ўз-ўзидан қарор топмайди, балки унда яшовчи кишиларнинг саъйи-ҳаракатлари, хоҳиш-истаклари, давлат бошқарувининг оқилона олиб борилиши, энг муҳими, ўзаро бирлик, ҳамжиҳатлик эвазига ўрнатилади. Дарҳақиқат, “тинчликни сақлаш муаммосини ўз-ўзидан кишиларнинг хоҳиш-истаги, орзу-умидлари билан ҳал қилиб бўлмайди” . Манбаларда юртда тинчликнинг барқарор бўлишини таъминлашда қуйидагиларга эътибор бериш зарур эканлигини кўрсатилади: мустақиллик ва тинчликни асраш учун мамлакатимизни тажовузкор кучлардан ҳимоя қилишга доимо тайёр туриш ; доимо изчил ва қатъий ҳаракатларни олиб бориш.

Инсоният тарихий тараққиётини ўрганиш, шундан далолат берадики, юртда тинчликни қарор топтириш, асраш мураккаб, ўта масъулиятлилики талаб этувчи жараён сифатида қуйидагилар мавжудлигини тақозо этади:


- жамият аъзолари (мамлакат фуқаролари)нинг аҳиллиги, ҳамжиҳатлиги;
- кўп миллатли давлатда миллатлараро муносабатларнинг тўғри йўлга қўйилганлиги, муайян миллатга алоҳида имтиёзларнинг берилмаслиги, туб аҳоли саналмайдиган миллатлар вакиллариининг этник камситилишига йўл қўйилмаслик;
- қўшни давлатлар билан тинчликни таъминлаш борасида ўзаро келишувга эгалик, дўстлик муносабатларини ўрнатиш;
- ўзга миллат, элат ва халқларнинг тарихи, бугуни, тили, маданияти, миллий кадриятлари ҳамда диний эътиқодини ҳурмат қилиш, истиқболи, интеллектуал, иқтисодий ва маънавий-руҳий имкониятларига ишонч билдириш, ишлаб чиқиш, илм-фан, техника ва технология соҳаларида ўзаро тенглик асосидаги ҳамкорликни йўлга қўйиш;
- ҳарбий тузилмага эга бўлиш, Қуроли Кучлар (армия) таркибининг салоҳияти, касбий малакасини ошириш, замонавий ҳарбий техника, қурол-яроғ билан тўла таъминлаш;
- халқаро, этник муносабатларни ташкил этиш, шунингдек, ички сиёсатнинг тўғри олиб борилишига масъулиятли ёндашиш;

- минтақа ҳамда халқаро майдонда рўй бераётган воқеа-ҳодисалар моҳиятини тўғри англаш, таҳлил қилиш, оқибатларини башоратлаш орқали келиб чиқиш эҳтимоли бўлган зиддиятларнинг олдини олишга уриниш;

- мамлакат ичкарисида жиноятчиликка қарши курашиш, миллий кадриятларга ёт, бузғунчи ғояларнинг тарқатилишига йўл қўймаслик, терроризм, диний экстремизм ғояларининг ёйилиши, шунингдек, юкумли хавфли касалликлар тарқалишига йўл қўймаслик ва бошқалар.

“Ўзбек халқи тинчликни юксак қадрлайди, уни ўз орзу-интилишлари, мақсад-мудаолари рўёбга чиқишининг кафолати деб билади. Шунинг учун доимо Яратгандан тинчлик ва омонлик тилайди. Ҳолбуки, башарият фақат тинчлик ва осойишталик барқарор бўлган тақдирдагина ўз олий мақсадларига эришади, моддий ва маънавий юксакликка қўтарилади”. Шу боис республика мустақиллигининг илк кунлариданоқ ўзбек халқи юрт тинчлигини мукаддас ҳодиса сифатида ардоқлаб, бебаҳо бойлик сифатида қадрлаб келмоқда.

Олий таълим муассасаларида таълим-тарбия ишларини самарали ташкил этиш чақириққача ҳарбий таълим йўналиши талабаларида юрт тинчлигини ғоясини муваффақиятни шакллантириш имконини беради. Бу жараёнда кутилган натижаларни қўлга киритишда қуйидаги тамойиллар ўзига хос аҳамият касб этади



Қуйида талабаларда юрт тинчлигини ғоясини шакллантиришда устувор аҳамият касб этувчи тамойилларнинг моҳияти очиб берилади.

1. **Таълимнинг ғоявийлиги ва аниқ мақсадга йўналтирилганлиги.**
2. **Таълим-тарбия тизимининг бирлиги.**
3. **Таълимнинг изчиллиги ва узлуксизлиги.**
4. **Миллий ва умуминсоний кадриятлар уйғунлиги**
5. **Тарихий ворисийлик**
6. **Таълим олувчиларнинг ёш, психологик хусусиятларини инобатга олиш.**

7. Тарғибот ишларининг кўлами ва мазмуни**8. Таълим муассасалари, давлат ва ижтимоий ташкилотлар ҳамкорлиги.**

Чақириққача ҳарбий таълим йўналиши талабаларида юрт тинчлиги ғоясини шакллантириш олий таълим муассасалари фаолиятининг муҳим таркибий қисми сифатида амалга оширилади. Бу жараён таълим ва аудиториядан ташқарида ташкил этиладиган маънавий-маърифий ишлар йўналишларида кечиб, бир неча босқичларда амалга оширилади. Яъни:

1-босқич: талабаларда чақириққача ҳарбий таълим асослари билан бирга миллий истиқлол ғоясининг муҳим таркибий қисми бўлган “юрт тинчлиги” ғоясининг моҳияти борасидаги назарий билимларни ҳосил қилиш;

2-босқич: талабаларда юртда тинчликни қарор топтириш, унинг барқарорлигини таъминлаш, муҳофаза қилишга ўз ҳиссасини қўшиш эҳтиёжини қарор топтириш, ҳарбий ватанпарварлик ҳиссини уйғотиш;

3-босқич: талабаларда юрт тинчлигини таъминлаш, муҳофаза қилиш жараёнида зарур бўладиган амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш.

Талабаларида юрт тинчлиги ғоясини шакллантириш жараёнида уларнинг жисмоний жиҳатдан комилликка эришишларига ҳам алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқдир. Шу боис жисмоний тарбия дарсларида талабаларнинг жисмоний комиллик даражаларини доимий равишда инобатга олиб бориш, кўзга ташланадиган муаммоларни ўз вақтида бартараф этиб бориш талаб қилинади. Бунда тиббиёт ходимларининг ёрдамларидан фойдаланиш мумкин. Шунингдек, жисмоний тарбия машғулотларида ижодий ёндашган ҳолда ҳарбий фаолият кўринишлари, жумладан, миллий ҳарбий анъаналардан бўлган – ўйинлар элементларини қўллаш ҳам мазкур предметни чақириққача ҳарбий таълим асослари фанлари билан боғлаш учун шароит яратади.

Олий таълим муассасаларининг талабаларида юрт тинчлиги ғоясини шакллантиришда ўқув юртлари билан ижтимоий ташкилотлар ўртасида ҳамкорликни қарор топтириш ҳам эътибордан четда қолмаслиги зарур. Зеро, улар ўртасидаги ҳамкорлик талабаларнинг юрт тинчлигининг моҳияти, уни қарор топтириш ва муҳофаза қилишга доир назарий ва амалий билимларини бойитади. Шу билан бирга уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашга ёрдам беради.

Мустақиллик, Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимини такомиллаштириш, уни замонавий ҳарбий техникалар билан қуроллантириш ҳамда ҳарбий кадрларнинг юқори жанговар тайёргарликка эга бўлишларини таъминлаш йўлида кенг кўламли ишларни амалга ошириш имкониятини яратди. Миллий мустақилликни мустаҳкамлаш ва Қуролли Кучлар тизими салоҳиятини оширишга қаратилган ижтимоий-сиёсий ва маънавий-ғоявий ишларнинг сифат ва самарадорлиги бугунги кун талабаларига тўла жавоб беради. Бугунги даврда талабалар орасида соғлом маънавий муҳитни яратишда таълим-тарбия ишларига алоҳида эътибор бериш, ҳарбий тайёргарлик жараёнини илғор техник ва технологик воситалар, янгича усул-

услуглар асосида ташкил этиш, ҳарбий хизматнинг интеллектуал мезонлари ва йўналишларини такомиллаштириш мақсадга мувофиқдир.

АДАБИЁТЛАР:

1. Миллий истиқлол ғояси (Бакалавр босқичи учун дарслик). – Т.: Академия, 2005. – 368 б.
2. Педагогика назарияси. Х.Ибрагимов, Ш.Абдуллаева. Т.: Фан ва технологиялар, 2008-йил

THE IMPORTANCE OF TEACHING LEGAL ENGLISH

Usmonova Feruza

legal English teacher, Namangan law school

It is known to everyone the system of justice is important aspect of life. There are various-behavior people in the world, of course, it may be illegal events among populations. For this, not only teaching law but also learning it stays in a great importance. Also, there are business, education, medical services too.

Recently, the world has been heading into a more multi-nationalized business environment with all its commercial needs and legal aspects. Hence, the use of English for specific purposes has become urgent and obligatory. Being a proficient fluent speaker of general English, in this respect, is no more enough to get engaged in the global business world communication. The world of business these days has made necessary to learn more specific English vocabularies, and it happens that the **legal English** vocabulary is one of the most important ones.

What is legal English?

Legal English is a term that refers to the formalized English vocabulary used in legal writing. It includes very specific technical terms and concepts that are used only in the law field or the law industry. Learning this specific English vocabulary and mastering it will help legal professionals improve their career in so many different ways. Therefore, raising legal awareness in relation to cross-cultural business communication as well as writing and drafting contracts and licenses have always been the dream of so many people concerned with the legal field.

Actually, there are a lot of schools that do offer legal English pieces of training and courses outside Morocco. But in Morocco, there is no other school except ours that does offer such nice opportunity. Experts do help law students, lawyers, legal departments, business owners, and notaries fulfill their full learning potentials with the use of so techniques and methods which are professionally practical and easy. At ETA, you will be engaged in a real professional learning environment that will help you grow with flying colors.

There are 5 five more reasons why you should be learning legal English in no time:

1- It will always be your lingua franca: Whether you are an experienced lawyer or a business owner, legal English will always be your lingua franca to communicate with your international clients who obviously do not speak your own language. It will always be your communication channel that will let you maintain the needed communicative rapport with them without making more unnecessary efforts and expenses.

2- legal misunderstandings can easily be avoided: Being a proficient legal English speaker and writer will help you avoid any miscommunication or misunderstanding when it comes to the legal contracts you have to draft. It will also make you on the safe side from any misleading technical terms and concepts.

3- It makes you sound more professional: If you are already in the law industry, and you want to get your work into the international level; mastering the legal English vocabulary will help you manage that in easy essential steps. You'll have the key element to do well in

court pleadings, and you'll only need to work on the marketing matter. This will open you a lot of doors and make you get thousands of golden job opportunities.

4- It makes you eligible to participate in international events and conferences: If you are so interested in participating in international conferences that have to do with the law industry, mastering the legal English terminology will help you achieve your goal. It'd be so easy for you to prove your worth and that you deserve the chance.

5- It builds your reputation: Being able to introduce yourself professionally using legal terminology is a great way to show how much you are serious about your career improvement and your clients' satisfaction from all over the world. And this is exactly the impression you will want to make.

How Can I Improve My Legal English?

Talk to Colleagues and Clients in English.

Take Legal English Conversation.

Attend Webinars / Conferences.

Practice Speaking Out Loud.

Work on your Legal English Vocabulary.

Elemental Legal English

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS DASTURI ORQALI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISH

Ollayorova Shoira Azamat qizi

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 204-guruh talabasi

Annotatsiya: *Dunyo davlatlari ta'lim tizimlari o'zaro uyg'un holda rivojlanishi uchun turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini baholashning umumiy dasturlaridan biri bu PIRLSdir. PIRLS - (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.*

Kalit so'zlar: *PIRLS, boshlang'ich, ona tili, o'qish, iqtidor, tajriba va h.k.z.*

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalari o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish; o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida Pirls dasturidan foydalanish katta samara beradi. Dunyo davlatlari ta'lim tizimlari o'zaro uyg'un holda rivojlanishi uchun turli mamlakatlarning ta'lim tizimlarini baholashning umumiy dasturlaridan biri bu PIRLSdir. PIRLS - (Progress in International Reading Literacy Study – xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda. Sodda tilda aytganda, PIRLS – o'quvchilarning matni o'qish va tushunish darajasini baholash. PIRLS va boshqa ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi, degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

2. Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

3. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

4. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

5. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifati xalqaro baholash standartlariga moslashadi;

6. Milliy ta'lim sifati baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PIRLS tadqiqotida o'quvchilar dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida ishlatadigan o'qishning ikki turi baholanadi:

1) o'quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o'qish ;

2) ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'zgarishini yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalarga qoldirilgan. Rang - barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi . Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolarini, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlariga qaratilgan. Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan. Darslikdagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilgan edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy - ommabop uslubdagi matnlardan iborat. Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyani rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga yoki didaktik elementlarga qaratilgan edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon ti zimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki tarzda bajariladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan. Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillik bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart

mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi kitobida ketirilgan "Hoshimjonning oilasi"da ko'pincha ot so'z turkumi keltirilgan bo'lib, bunda o'quvchilar oila a'zolarini tanish orqali ot so'z turkumi haqida tushunchaga ega bo'lishadi. Rasmlar orqali ham o'quvchilarning fikrlashi kengayib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Toshkent 2021-yil.
2. Ashrapova.T, Odilova.M. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" Qo'qon 2008-yil
3. <https://uzreport.news/society/mamlakatimiz-o'quvchilari-pirls-2021-xalqaro-baholash-dasturida-ishtirok-etadi>
4. . <https://telegra.ph/PIRLS-nima-foydasi-qanday-songgi-yillardagi-natijalar-03->

MUZEYSHUNOSLIK ISTIQBOLLARI

Sh.K.O'rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o`qituvchisi

S.Sadullayeva

BuxDU San'atshunoslik fakulteti MSM guruh 3-kurs talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lgan muzeylarning bugungi kundagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, madaniyat sohasining bir bo'g'ini bo'lgan muzey sohasini davlat siyosati darajasida rivojlantirish haqida fikr yuritiladi. Milliy an'ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshlanganligi to'g'risida mulohazalarga ega bo'liniladi.

Kalit so'zlar: muzey, madaniyat, jamg'arma, ICOM, yodgorlik.

Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi. Muzeylar — tarixning sirli xilqatlarini o'zida mujassam etgan holda xalqlar madaniyatini, qadriyatlarini tarannum etuvchi maskan va davlatlarni bir-birlariga yaqinlashtiruvchi ko'prik hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqning ma'naviy dunyosini boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda ham muzeylarning o'rni beqiyos. Muzeylar har bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarzi, milliy an'ana va qadriyatlarini o'rganish, ularni targ'ib etish va kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir.

O'zbekiston 1993-yilda Xalqaro "ICOM" tashkilotiga a'zo bo'lgach, soha bo'yicha jahondagi eng ilg'or tajribalarni o'rganib, o'ziga xos milliy an'analar festivaliga asos soldi. Yillar o'tgan sayin shaklan va mazmunan takomillashib, boyib borayotgan mazkur festivalning respublikamiz miqyosida o'zagcha bayramona ruhda o'tkazilishi muzeylar ijodiy faoliyatining yangi qirralari namoyon bo'layotganidan darak beradi. Aynan 18 may kuni yurtimizdagi barcha muzeylarning tomoshabinlarga bepul xizmat ko'rsatishi, maxsus ko'rgazmalar va

teatrlashtirilgan tomoshalarning yuksak saviyada tashkil etilishi esa bayram shukuhini oshiribgina qolmay, yosh-u keksa tomoshabinlarga bir olam zavqu-shavq hadya etishi bilan ham e'tirofqa molikdir. Har bir muzey o'zining yo'nalishi, eksponatlari bilan o'ziga xos. Xususan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyida xalqimizning mustaqillikkacha hamda undan keyingi davr tarixini qiyosiy jihatdan tomosha qilib hayajonga tushasiz. O'zbekiston Davlat San'at muzeyida esa o'zbek xalqining bebaho va betakror san'at asarlarini hayrat hamda havas ila tomosha qilib, qalblarimiz iftixor, ko'ngillarimiz g'urur tuyg'ulariga to'lishi shubhasiz.

Xulosa qilib aytganda, barcha darajadagi harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati kompetentsiyani shakllantirish va ularning muhim tarkibiy qismlari, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish, shuningdek, pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir. Ta‘lim faoliyatining kasbiy yo‘nalishini taminlashga yordam berish - harbiy bilimlar ta‘lim tizimini takomillashtirish muhim vazifadir. Harbiy tayyorgarlikning samaradorligi ko‘p jihatdan har bir xizmatchilarning bilimi va aqli bilan belgilanadi. Bu birinchi navbatda, uning yuqori professionalligi va qo‘l ostidagilarga namuna bo‘la olishi bilan bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomi. “O‘zbekiston”, T-1996 y.
2. Alimov B.N. Kompetentlik yondashuvi talabalarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida. // “Uzluksiz ta‘lim” ilmiy-metodik jurnali, T-2015,
3. Muslimov N.A. Harbiy ta‘lim o‘qituvchisi kasbiy shakllanishining nazariy-metodik asoslari. // Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi. T-2017 yil.
4. Shoyusupova A.A., Kamalova S.R. Ko‘nikma va malakalarni baholash. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012 y.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, T-2012.

6. Bronevitskiy GA Kema bo'limi o'qituvchisining psixologik-pedagogik lug'ati /GA Bronevitskiy, GG Bronevitskiy , AN Tomilin . Novorossiysk-2005 .-- 76 b.
7. Gromov V. Rus donishmandlarining protokollari / V. Gromov . - Moskva, 2016 .-- 190 b.
8. Efremov O.Yu. Harbiy pedagogika. Universitetlar uchun darslik. 2-nashr, Peterburg-2017 .- 640 b.
9. Korkotsenko MN. Uchuvchi universitet kursantlari o'rtasida harbiy-professional kompetensiyalarni shakllantirish usullari/ "Harbiy ta'lim byulleteni" № 7, 2017-yil.
10. Dragomirovga ko'ra qo'shin ta'limi asoslari . AE Savinkin, IV Domnin.2000-y 184-b.
11. Surtaeva NN Kasbiy ta'limda pedagogik innovatsiyalar muammolari /NN Surtaeva, AA Makarenya, SV Krivyx // 16-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari - SPb .: Express, 2015.
12. Kalyujniy A. Harbiy qismda mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish asoslari // Landmark. - 2006. - №

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH MALAKALARINI HOSIL QILISH**Samatova Mavludaxon Xusanovna***Andijon viloyati Izboskan tumani**12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatish haqida, Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga o'rgatish haqida, Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *matematika, masala yechish, o'quvchi, o'qituvchi, tenglamalar, tushuncha, talabchanlik, predmet, misol.*

Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir sodda masalalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga zamin yaratib, o'quvchilarni fikrlash dunyoqarashini kengaytirib, ularni zehni va hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash bosh maqsaddir.

Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'quvchilar masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishni o'rganib olishlari uchun ular masaladagi berilgan va izlanayotgan miqdorlarni ajratib olishi kerak bo'ladi. Tenglamalarni tuzish yordamida sodda masalalarni yechish ikkinchi sinfdan boshlanadi. Ikkinchi sinfdan tenglamalar tuzish usuli bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum komponentlarini topishga doir sodda masalalar yechiladi.

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar echishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Eng asosiylaridan yana biri masalalar echish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlah uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak.

Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan

qonunylarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni ikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan masalalar yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qo'llashga xizmat qiladi.

Har bir masala berilgan (ma'lum) va izlanayotgan (noma'lum) sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi sonlar, to'plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarni ifodalaydi yoki topilishi kerak bo'lgan noaniq sonlar bo'ladi.

Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanish ko'rsatiladi; bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanini bildiradi.

Yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liq amallarni bajarish talab qilinadigan masalalar murakkab masalalar deyiladi.

Sodda masalalar kabi murakkab masalalar ham bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Masala yechish ketma-ketligida quyidagilarni amalga oshirish lozim.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish.
2. Masalani, dastlabki tahlil qilish, ma'lumni noma'lumdan, muhimli nomuhimdan ajratish, berilgan bilan izlanayotganlar orasida bog'lanish o'rnatish.
3. Masalani qisqa yozish malakasi.
4. Murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish.
5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib daftarga yoki doskaga yozib masala savoliga javob berish.
6. Masala yechimini tekshira olish.

Masalaning mazmunini o'zlashtirish uchun o'quvchilar bilan quyidagi usulni tajriba qilib ko'rish mumkin. O'qituvchi masalaning nomerini aytadi va o'quvchilarga masalaning shartini ovoz chiqarmasdan o'qib chiqishni shartini tushunib olishni buyuradi. Bu usul o'quvchilarni metoddan mustaqil foydalanishga o'rgatadi. Agar o'quvchi masalaning shartini masalalar to'plamidan mustaqil o'qisa, masalani ichida ikki uch marta o'qib chiqishni so'ngra kitobni yopib qo'yib, masala shartini takrorlashni buyuradi. Bunda o'qituvchi masalaning son ma'lumotini emas, balki asosiy mazmunini esda tutishni tavsiya qiladi. O'quvchilar shartlarni o'qishga va uni ichlarida takrorlashga va diqqat e'tibor berishlari uchun o'qituvchi masalaning shartini kitobga qaramasdan takrorlash kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi. Masalaning shartini eslab qolish maqsadida uning tekstni o'qish o'quvchini masalaning mazmunini chuqurroq tushunib olishga majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida masalani to'g'ri yechishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil .

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSONPARVARLIK, TA'LIM-TARBIYA
G'OYALARINI ILGARI SURILISHI

Samatova Shahnozaxon Oybekovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Inson o'z nafsini butun umr tarbiya qilishi lozimligi haqida, Navoiyning turkiy adabiyotning til ravnaqi uchun mislsiz xizmatlari va shu bilan birga asarlarida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ularing ifodalanganligi haqida fikr borishi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *inson, faoliyat, tarbiya, ezgulik, adolat, nafosat, nazorat, o`qitish, o`rgatish, tafakkur.*

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotda tug'ildi. Buyuk shoir o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida beradilar.

Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olimu fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi.

Tasavvuf va diniy ta'limotga ko'ra, har narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo'lga soluvchi, yo'ldan ozdirguvchi ham, foydaga ham, zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Oллоhdir. Inson bu dunyoda ko'ngilni Oллоhga bag'ishlab to'g'ri yo'ldan yursa kifoya. Komillik amallarining roya qilsa, komillik amallariga yo'l ochguvchi ham Oллоhning o'zidir. Ammo bu amallarni bajarish insondan bo'lgani bois ham qaysi yo'ldan yurmoqlik uning ixtiyoridadir. Har bir yomon amalning boshida nafs turadi. Mumtoz adabiyotda nafs mavzusi inson bilan bog'liq muhim hayotiylik bo'lgani sababli ham buyuk ijodkorlar, so'fiylar asarlarida, tasavvuf g'oyalarida buy o'ldan insonni qaytarishga harakat qilinadi. Barcha yaratilgan narsalarning eng yomoni nafsdur. Najmiddin Kubroning "Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim" asarida shunday deyiladi:

"Dunyo va uning bezaklari, havas va shayton, hamda ularga bog'liq bo'lgan narsalardan uning ko'p yordamchilari bo'lib, har bir yordamchisining dunyoviy hayotni bezatuvchi narsalardan lashkarlari va xizmatchilari bor. Misol suratda ko'p yemoq, ko'p uxlamok, ko'p kulmoq, oshiqlik qissalarini tinglamok, dunyoni sevmok, boylikni tanlamok, takabburlik, hasad, g'iybat, yomonlik bilan shug'ullanmok, ichimliklar ichib gunohga qo'l urish, turli o'yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig'ib istaklar va orzular ipini cho'zish, yomonlikka buyurib, yaxshiliqdan voz kechtirish, istak-havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo)ga ko'ngil bog'lab yomonni yaxshilash; boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan yordam

so'rab haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahdini haqorat qilish, shular jumlasidandir”.

Hazrat Alilsher Navoiyning turkiy adabiyotning til ravnaqi uchun mislsiz xizmatlari va shu bilan birga asarlarida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ularing ifodalanganligi haqida fikr boradi.

Hazrat Alilsher Navoiy turkiy adabiyotning mashhur va tengsiz vakili hisoblanadi, boisi ulug' mutafakkir turkiy til ravnaqi uchun mislsiz xizmat ko'rsatgan. Navoiy ijodini ulkan tog'ning eng yuqori cho'qqisiga qiyoslashadi. Bu, albatta, haq gap. Alisher Navoiy asarlari zamirida bir olam ibratli ma'no hamda hayotiy saboq mujassam. Bu esa o'z navbatida bizni haq yo'ldan og'ishmay yurishimiz va komillikka yetishishimiz uchun zarur bo'lgan hayotiy saboqlardir.

Insonni olam gultoji deb ulug'lagan hazrat Navoiyning butun hayoti ijodi zamiridagi ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg'ular dunyoni obod va munavvar qildi, bashariyatni ma'naviy halokatdan qutqardi degan qat'iy ishonch mujassam. Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarida orasida tinchlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi g'oyalar juda ko'p uchraydi. Mazkur asarlarda tinchlikning naqadar ulug' ne'mat ekanligi, osonlikcha erishib bo'lmasligi alohida e'tirof etiladi. Biz buning yaqqol misolini Navoiyning davlat arbobi sifatida yurt ravnaqi, xalqning farovonligi yo'lida qilgan barcha sa'y-harakatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Insonlarning eng ulug'i o'ziga ravo ko'rgan yaxshilikni o'zgalarga ham ravo ko'rganlaridir.

Malumki, Alisher Navoiy mutafakkir shoirlardan biridir. Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur falsafiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lgan kishi, demakdir. Uning asarlarini kuzatar ekanmiz, ularda hayotiy falsafa, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar, ezgulik va yovuzlik, do'st va dushmanlik, diyonat va hiyonat kabi qarama-qarshiliklarni mahorat bilan aks ettirilgani e'tiborga molikdir.

Nafsing etsa shuxlug', charx emgagidin qil adab, Tiflni andoqki, zajr aylar falak birla adib³.

Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" asaridan olingan mazkur misrada bolaga yoshligidanoq etarli va to'g'ri ta'lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog'lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondoshish zarurligi uqtiriladi.

SHuningdek, "Devoni foniy" da shunday misralar keltiriladi: Ba piri, ey javon, gar davlati ayn ul-yaqin hoqi, G'ubori rohi piron to'tiyo kun dar javoniho.

YA'ni, ey yigit, qariganda asl haqiqat gavharini topishni istasang, yoshlikda ulug'lar izi tuprog'ini ko'zingga to'tiyo qil⁴. Darhaqiqat, yaxshi xulqlilar bilan birga bo'lish, ular suhbatidan o'rganish insonni komillikka erishtiradi.

Navoiy asarlari orqali hayotda uchrashi mumkin bo'lgan ijtimoiy masalalarga mohirona yondoshgan tarbiya, ta'lim masalasidagi etkchi muammolardan biri bu millatlararo hamjihatlik masalasi ekanligini yaxshi bilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdumannotov A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy xislatlarni shakllantirishda Alisher Navoiy merosidan foydalanish. /Pedagogikaning dolzarb muammolari, 1-qism, Samarqand, 1998y., 61-62 b.
2. Abdumannotov A. Navoiy farzand adobi haqida. /Boshlang'ich ta'lim, 1996. №3, 38-b.
3. Abdurahmonov D., Abdurahmonova M., Usmonova G. Navoiyning til sandig'idan. - T.:Yoshlik, 1991, №3., 36-37 b.
4. Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» So'zboshi A.Hayitmetov. -T.: Adabiyot vasan'at. 1989 y. -352 b.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA KOMPETENSIYA YONDASHUVI**Hakimova Barnoxon Otabekovna***Andijon viloyati Izboskan tumani**12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Matematika fan sifatida moddiy borliqning fazoviy va miqdoriy munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni to'la ekanligi haqida, Matematika darslarida o'quvchilarga topshiriqlar berish bilan birga ularni mustaqil topshiriqlar tuzishga o'rgatish ularning aqliy faoliyatini o'stirishi haqida matematik savodxonlik haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *matematika, qonun, masala, misol, topshiriq, faoliyat, matematik savodxonlik, o'quvchi, o'qituvchi, o'qitish, ta'lim berish.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish hamda 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish vazifalari belgilab berildi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimidagi yutuqlarini baholash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazuvchi hamda islohotlarni amalga oshirishda ko'maklashuvchi nufuzli xalqaro tashkilotlar mavjud. O'zbekistonning ushbu tadqiqotlardagi ishtiroki va natijalari dunyo hamjamiyatida umume'tirof etilishi, yosh avlodni xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda yangi innovatsion usullarda ta'lim olishini ta'minlash hamda olgan bilimlarini amalda samarali qo'llay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu qonunda ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar davrida maktabning roli yanada o'sganligi, maktabning bosh vazifasi - o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berish ularni iqtisodiy - matematik savodxonligini shakllantirish, hayotga va ongli kasb tanlashga tayyorlash haqida, hamda o'quv reja va dasturlarni ta'lim mazmunini hozirgi zamon yutuqlari va talablari darajasiga keltirish to'g'risida fikrlar keltiriladi.

Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida deyarli barcha predmetlar, jumladan matematikadan ham yangi o'quv dasturi kiritiladi, o'qitish metodlari takomillashtiriladi. Boshlang'ich sinflar uch yil o'rniga 4 yillik ta'limga o'tkazildi. Boshlang'ich sinflarning matematikadan yangi dasturlarga o'tish munosabati bilan, yangi metodik tizim ishlab chiqildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o'qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o'qituvchi matematika o'qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya'ni boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallagan bo'lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak. Matematika fan sifatida moddiy borliqning fazoviy va miqdoriy munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni to'la va chuqur o'rganish, targ'ib etishni talab etadi; o'rganilayotgan qonuniyatlarning qanday mazmunga egaligi va ularning qanday usul bilan asoslanganligi rivojlanish darajasi bilan hisoblanmaydi; unda tadqiqotchining shaxsiy fazilatlarini, u yoki bu matematik qonunning qanday kashf etilganligi muhim emas; matematika fani ma'lum tizimda yaratiladi va rivojlanadi, u bir-biriga bog'liq qat'iy ketma-ket

keluvchi qonunlarni ochib beradi; fanda asosiy tushunchalar, qabul qilingan aksiomalar uning boshlang'ich asosi bo'lib hisoblanadi.

Savodxonlik hamma uchun tanish bo'lgan tushuncha. Savodxonlik bu asosiy kognitiv ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi bo'lib, ona tilida o'qish, yozish va matematik bilimlarning majmui. Ammo texnologiya va axboortlar murakkabligining rivojlanishi bilan biz uchun aniq bo'lgan savodxonlik tushunchasi kengaymoqda. Zamonaviy inson uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni tasniflashga urinayotgan xalqaro tashkilotlar raqamli, axborot va ilmiy savodxonlikning ahamiyati haqida gapirishadi. Ko'pincha bu turdagi savodxonlik bir -birini to'ldiradi.

Matematika darslarida o'quvchilarga topshiriqlar berish bilan birga ularni mustaqil topshiriqlar tuzishga o'rgatish ularning aqliy faoliyatini o'stirishga, mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga, kreativ yondasha olishga, o'rgangan nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda qo'llay olish bilan birga matematik savodxonliklarining oshishiga xizmat qiladi. Masalan: Berilgan masalaga teskari masala tuzing, yig'indi berilganda ayirmasi ushbu yig'indiga teng ifoda tuzing, sonlarni o'sish tartibida joylashtiring, mos amallarni qo'yib ifoda tuzing, shaklda nechta uchburchak bor, geometrik shakllardan manzara hosil qiling, shakllarning teskari tomonlaridan yangi shakl hosil qiling, berilgan sonning bo'luvchilarini qatnashtirib murakkab ifoda tuzing. Ushbu topshiriqlardan dars davomida, guruh bilan yoki individual tarzda qo'llash darsning samaradorligini oshiradi. Bu bilan zamonaviylik kasb etgan darslar orqali zamonaviy o'quvchilarni zamonaviy qarashlarda jahon ta'lim sistemasiga mos tarzda tarbiyalay olamiz.

Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

1. Tanqidiy fikrlash;
2. Ijodkorlik, kreativlik;
3. Tadqiqot va tahlil qilish;
4. Mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylilik;
5. Ma'lumotlardan foydalanish;
6. Tizimli fikrlash;
7. Muloqot qilish;
8. Mulohaza yuritish.

Matematik savodxonlik - bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. .
“Turon-Iqbol” 2016 yil .

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.

O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI MANZARALI DARAXTLAR

G.O.Ergasheva

Andijon Davlat Universiteti Ekologiya va botanika kafedra o‘qituvchisi

U. R.Kimsanov

Andijon Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti 4-kurs sirtqi talabasi

N.A.Normatova

Andijon Davlat Universiteti Biologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston hududidagi manzarali daraxtlar va ularning parvashi to‘g‘risid so‘z borgan bo‘lib, mavzuga oid manbalar kerakliy adabiyotlar yordamida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Daraxt, bog‘, Qarag‘ay, Chinor, Osiyo, manzara, suv, tuproq, to‘qima.*

Абстрактный: *В этой статье обсуждаются декоративные деревья в Узбекистане и уход за ними, а источники, относящиеся к теме, освещаются с помощью соответствующей литературы.*

Ключевые слова: *Дерево, сад, Сосна, Клен, Азия, пейзаж, вода, почва, текстура.*

Annotation: *In this article, ornamental trees in the territory of Uzbekistan and their care are discussed, and the sources related to the topic are highlighted with the help of relevant literature.*

Keywords: *Tree, garden, Pine, Maple, Asia, landscape, water, soil, texture.*

Daraxt ekish halqimizning qadimiy an‘analari, urf-odatlaridan bo‘lib, bu jarayon nuroniy otaxon-onaxonlarning yaxshi niyatlari, yurt tinchligi, xayr-baraka so‘ragan duolaridan boshlanadi. “Yaxshidan bog‘ qolar” deydi bobolarimiz. Haqiqatdan bu maqol bejizga aytilmagan, tabiatda yashillikni ko‘paytirish, iqlim mo‘tadilligini saqlash, muhit havosinining tozaligini, meva-cheva mo‘llicini ta‘minlash jamiyatning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, bu jarayon asosida yoshlarda odob axloq, halollik, sarishtalik va yaxshi amalda bardavomiylik kabi hislatlar tarbiyalab boriladi.

Zamonaviy bog‘ni manzarali daraxtlar va butalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular turli xil bog‘ kompozitsiyalarining eng muhim elementidir, chunki bu o‘simliklarning turlari va navlari xilma-xilligi hayratlanarlidir. Bog‘lar haqida fikr yuritilganda eng avval tasavvurga daraxtlar keladi. Shuning uchun daraxtga ta‘rif berishni lozim topdik.

Daraxt (*lot: arbor*) - tana va shoxlari yog‘ochlangan ko‘p yillik o‘simlik. Daraxtlar bo‘yiga qarab 3 guruhga: 1) 35 m dan baland (chinor, terak, qora qayin, qarag‘ay); 2) 25–35 m (qayrag‘och, yong‘oq, oq qayin, tol, qatrang‘i); 3) 25 m gacha (zarang, chetan, shumurt) bo‘linadi.

Mevali daraxtlar ham shakliga qarab 3 guruhga: 1) shoxshabbasi ko‘p, baland bo‘lib o‘sadigan (nok, gilos, yong‘oq, olmaning ayrim navlari); 2) tanasi ko‘rimsiz, ildiz bachkilaridan ham ko‘payadigan bo‘yi past (shaftoli, olmaning pakana xillari, olcha va olxo‘rining ayrim

turlari); 3) birinchi va ikkinchi guruh oralig'idagi o'rta bo'lyli daraxtlar (olma va o'rikning ko'pchilik xillari va navlari, nok, olchanning ayrim turlari)ga bo'linadi.

Daraxtlarning doim yashil va barglarini har yili kuzda to'kadigan xillari ham bor. Doim yashil daraxt barglari vaqt-vaqti bilan to'kilib, o'rniga yangisi chiqaveradi.

Daraxtlar yoshi ularning kesilgan to'nkasidan yoki o'sib turgan ildiz bo'g'zidan, yog'ochligidagi yillik halqalar soniga, shuningdek, daraxtlarning tashqi belgilari -bargining rangi, tanasining shakli, po'stlog'ining tusi va tuzilishiga qarab aniqlanadi. Masalan, katta yoshdagi igna bargli daraxtlar bargining rangi ochroq, o'sishdan to'xtagan daraxtning shoxshabbasi yumaloq telpak gumbaz shaklida, tanasining pastki qismi yorilgan, qalin, o'lik po'stloq to'qimalari bilan qoplangan, ba'zan poyasi sirtida yashil, sariq va boshqa tusli buqoqlar paydo bo'ladi. Yosh daraxtlar tik o'sadi, shox-shabbasi cho'ziq konussimon, po'stlog'i silliq, yaltiroq, igna bargli daraxtlar bargi sersuv, to'q yashil. Daraxtlarni o'g'itlash yoki hosil berishini to'xtatish bilan hayotini uzaytirish mumkin. Shaftoli daraxti 15-20, saksovul 50-60, terak 70-80, tok 100, tol 300, xandon pista 350, tut va yong'oq 400, qarag'ay, shumtol, zarang 700-1000, chinor 1000, eman 2000, shamshod 3000, mamont daraxti 6000-yil yashaydi. Daraxt insonlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Masalan, daraxtlar karbonat anhidrid (CO₂) yutib kislorod chiqaradi, insonlar esa kislorod yutib karbonat anhidrid chiqaradi. Mana shu tariqa tabiat va inson o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shakllanadi.

Barglarning ko'rinishi va tuzilishiga ko'ra daraxtlar ignabargli va kengbarglilarga bo'linadi

- Ignabargli daraxtlar - odatda qattiq doimiy yashil ignasimon yoki igna deb ataladigan qobiq barglari bilan ajralib turadi, qubba yoki archa rezavorlarini hosil qiladi. Bu guruhga qarag'ay, archa, pixta, sarv, sekvoya kiradi.

- Keng bargli daraxtlar keng va yassi barglarga ega - ular uzunligi va kengligidan ancha nozikroq, odatda yiliga bir marta tushadi. Keng bargli daraxtlar odatda gullaydi va meva beradi. Bu guruhga chinor, eman, sadda, evkalipt va boshqalar kiradi.

Barglarning turiga ko'ra tasniflashdan tashqari, daraxtlar barglarning umriga ko'ra - barg to'kuvchi va doim yashillarga bo'linadi.

- Barg to'kuvchi daraxtlarda barg qoplamining aniq o'zgarishi kuzatiladi: daraxtdagi barcha barglar yashil rangini yo'qotib, tushadi, bir muddat (qishda) daraxt bargsiz turadi, keyin (bahorda) kurtaklardan yangi barglar o'sadi.

- Doim yashil daraxtlarda barglarning aniq o'zgarishi bo'lmaydi: barglar yilning istalgan vaqtida daraxtda bo'ladi va barglarning o'zgarishi asta-sekin, daraxtning butun hayoti davomida sodir bo'ladi.

Biologik tasnifdan tashqari, daraxtlar boshqa belgilarga ko'ra ham bo'linadi: masalan, mevali daraxtlar (mevalari odamlar tomonidan oziq-ovqat uchun ishlatiladi), qimmatbaho (yog'ochlari sanoat maqsadlarida ishlatiladi), tropik (ularning diapazoni ekvator yaqinida joylashgan), shimoliy (ekvatoridan uzoqda joylashgan hudud) va boshqalar. Quyida ayrim daraxtlarga biologik tavsif berib o'tiladi.

Qarag'ay (lot. Pínus) - qarag'ay (Pinaceae) oilasiga mansub ignabargli daraxtlarning bir turi. Zamonaviy ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 120 ga yaqin qarag'ay turlari mavjud bo'lib, ular tabiiy ravishda Shimoliy yarim sharda Ekvatoridan Arktikagacha tarqalgan. Mo'tadil va subarktik iqlim sharoitida tekisliklarda o'rmonlar hosil qiladi, subtropik, tropik va ekvator yaqinida esa tog'larda o'sadi.

U nafaqat yog'och manbai, balki kimyo va farmatsevtika sanoatida ham qo'llaniladi.

Qarag'ay juda yorug'likni yaxshi ko'radigan daraxt turlariga tegishli, lekin ko'pincha sof plantatsiyalarni - qarag'ay o'rmonini hosil qiladi. Ushbu hodisaning sababi shundaki, qarag'ay eng kam tuproqqa talabchan daraxt turlaridan biri bo'lib, boshqa daraxtlarning o'sishi deyarli mumkin bo'lmagan bunday unumsiz tuproqlarda o'sishi mumkin.

Qoraqarag'ay (lot. *Picea*) - qarag'aylar oilasiga mansub daraxtlar turkumi (Pinaceae). Chiroyli tojga ega bo'lgan 35 ga yaqin doimiy yashil baland daraxtlar (balandligi 30 m gacha) mavjud. Archa - Yevropa Yangi yili va Rojdestvoning asosiy ramzlaridan biri.

Kedr (lat. *Cedrus*) - qarag'ay (Pinaceae) oilasiga mansub daraxtlarning oligotip turi. Tabiatda tarqalishi O'rta yer dengizining janubiy va sharqiy tog'li hududlarini va Himoloyning g'arbiy hududlarini qamrab oladi. Vakillari bir uyli, balandligi 40-50 metrgacha bo'lgan doimiy yashil daraxtlardir, tojlari yoyilgan. Po'stlog'i to'q kulrang, yosh tanasida silliq, eski tanasida yorilib, qichishi bor. Ignalilar ignasimon, uch yoki to'rt qirrali, qattiq, tikanli, quyuq yoki ko'k-yashildan kumush-kulranggacha.

Kurtaklar qisqaradi va cho'ziladi, ikkinchisi spiral ignalarni oladi. Urug'lar, qatronlar tufayli, kemiruvchilar tomonidan iste'mol qilinmaydi. O'simliklar yuqoridan siqilmagan va yaxshi o'tkazuvchan tuproqlarni talab qiladi; tuproqdagi suvning turg'unligiga juda sezgir (ayniqsa Himoloy kedri (*Cedrus deodara*)). Dekorativ ta'siri va o'sish tezligi tufayli ular guruhda ham, alohida-alohida ham park ekish uchun qimmatlidir. Moviy va kumush shakllari ayniqsa qimmatlidir.

Listvenitsa (lat. *Lárix*) - ignabargli daraxtlarning eng keng tarqalgan turlaridan biri, qarag'aylar oilasiga mansub yog'ochli o'simliklar turkumi. Ignalilar yillik, yumshoq. Yassilangan, och yashil, cho'zilgan kurtaklar ustida spiral va birma-bir joylashgan va qisqartirilgan kurtaklar ustida - har birida 40 donagacha. Qulay sharoitlarda u balandligi 50 metrgacha yoki undan ko'p bo'lgan magistral diametri 1 m gacha yoki undan ko'proq o'sadi. 300-400 yilgacha yashaydi, 800 yilgacha bo'lgan daraxtlar qayd etilgan.

Qarag'ay (lot. *Abies*) - qarag'aylar oilasiga mansub gimnospermlar turkumi (Pinaceae). Gorizontaal halqasimon shoxlari bo'lgan piramidal daraxtlar. Barglari ignasimon (ignalar), tekis. Shimoliy yarim sharning mo'tadil mintaqalarida keng tarqalgan. Turlarga eng boy hududlar Shimoliy Amerikaning g'arbiy qismi (Tinch okeani sohillari) va Sharqiy Osiyo (ayniqsa Yaponiya). Archalarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning konuslari, boshqa ignabargli daraxtlardan farqli o'laroq, yuqoriga qarab o'sadi.

Sarvdoshlar (lot. Cupressaceae) - tik yoki sudraluvchi shoxlangan butalar yoki daraxtlar, qarag'aydoshlar oilasining yog'ochli o'simliklari. O'simliklarning barglari xoch shaklida qarama-qarshi yoki o'ralgan (uchta, kamroq to'rtta). Yosh barglar igna shaklida (tushadi). Gullari bitta yoki ikki uyli.

Sarv (lot. Cupressus) - sarvdoshlar oilasiga mansub, piramidasimon yoki yoyilgan tojli doim yashil daraxtlar va butalar turkumi. Barglari mayda, yosh o'simliklarda ignasimon, kattalarda po'stloq, shoxlarga bosilib, to'rt qator qilib plitka qo'yilgan. Bargning dorsal tomonida odatda yog' bezi rivojlangan, ba'zan esa keskin chizilgan. Sarv daraxtlari Shimoliy yarim sharning subtropik va tropik iqlimida o'sadi, O'rta yer dengizida, Kavkazning Qora dengiz sohillarida, Qrimda, Sahroi Kabirda, Himoloyda, Xitoyning janubida va Amerikada Gvatemaladan Oregongacha keng tarqalgan.

Sarvning zamonaviy turlari juda qadimgi kelib chiqishiga ega. Sarvlar bog'larda manzarali o'simliklar yoki to'siqlar sifatida o'stiriladi. Ko'pincha, doim yashil sarv (*Cupressus sempervirens* L.) dekorativ to'siqlarni yaratish uchun ishlatiladi. Katta mevali sarv (*Cupressus macrocarpa*)ning kichik o'lchami uni hatto uy o'simligi sifatida ishlatishga imkon beradi.

Chinor (*Platanus*) - Chinordoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi o'simliklar turkumi; 10 turi ma'lum. Shimoliy Amerika (Kanadadan Meksikagacha), Janubiy Sharqiy Yevropa va O'rta dengiz bo'yi mamlakatlaridan Hindi-xitoygacha bo'lgan hududda tarqalgan. Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyoda Sharq chinori (*P. orientalis*), Janubiy Ukraina, qora dengiz sohillari, shuningdek, O'rta Osiyoda Shimoliy Amerikadan keltirilgan G'arb chinori (*P. occidentalis*) turlari o'stiriladi. Sharq Chinori yovvoyi holda o'sadi. Shox-shabbasi qalin, bo'yi baland - 50 metrgacha, tanasi baquvvat - aylanasi 18 metrgacha, tsilindsimon, po'stlog'i sarg'ishoq. O'zbekistonda manzarali Chinorning har ikki turi o'sadi. Novdalari va barglari yoshligida tukli, keyinchalik tuklari to'kilib ketadi. Barglari yirik, asosan, -7 bo'lmalı. Mevasi dumaloq, dag'al tukli yong'oqcha, diametri 1,5 santimetr, meva bandida 2-5 tadan o'rmasgan, uzoq vaqt to'kilmaydi. Aprelda gullab, mevasi may-sentabrda yetiladi. Chinor, ayniqsa, yoshligida tez o'sadi. Qulay sharoitda 2000 yil va undan ham ko'proq yashaydi. Egey dengizidagi Krit orolida tanasi aylanasi 18 metr bo'lgan 2300 yillik chinorlar bor. Surxondaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida 600-800 yoshli chinorlar uchraydi. Chinor urug'ini ekib, qalamchasidan va ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Chinorning yog'ochi yengil, pishiq, mebel sanoatida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelingan.

Terak (*Populus* L.) - toldoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 100 dan ortiq, turi bor. 30 ga yaqin turi Yevrosiyo, Shimoliy Amerika va Shimoliy Afrikada tarqalgan. O'zbekistonda terakning ko'k yaproqli terak yoki zangori bargli terak (*P. pruinosa* Schrenk), furot teragi (*P. euphratica* Olid.), mirzaterak (*P. nigra* L.), afg'on teragi (*R. afghanica*), oq terak (*P. alba*), Baxofen teragi yoki ko'kterak (*P. baxofenu* Wierzb.) turlari o'sadi. Mirzaterak, ko'kterak, oqterak turlari ko'p ekiladi. Teraklarning ba'zi turlari bo'yi 30- 45, ba'zan 60 m gacha, diametri 1,5-3 m gacha yetadi. Teraklar tanasi tik, shoxshabbasi tuxumsimon, piramidasimon, keng ovalsimon bo'ladi. Barglari bandli, ketma-ket, barg plastinkasi yaxlit yoki kertikli, nashtarsimon. Kuchalasi silindsimon, boshhoqsimon to'pgul, gullagandan keyin to'kiladi. Guli bir jinsli, ikki uyli. Aksariyati barg yozishdan oldin, ba'zilar barg yozgandan keyin gullaydi. Urug'i ko'sakcha, shamol va suv yordamida tarqaladi. Nam tuproqda tez unib chiqadi. Terak issiqsevar, yorug'sevar, sovuqqa bardoshli (masalan, mirzaterak) o'simlik. Sernam va unumdor tuproqlarda tez yetiladi, lekin ba'zilar sho'rxok tuproqni xush ko'rmaydi. Terak qisqa umrli daraxt bo'lsa ham, 25-30 yoshgacha yaxshi rivojlanadi, 150-200 yil umr ko'radiganlari ham (mirzaterak va oqterak daraxtlari) bor.

Tol (*Salix*) - toldoshlarga mansu daraxtlar va buta, chala butalar turkumi, 30 turi ma'lum. Asosan, mo'tadil mintaqada, Yevropa va Shimoliy Amerikada tarqalgan. O'rta Osiyoda 22 turi bor. Daraxtlarining xodasi yo'g'on, po'sti dag'al, barglari navbat bilan joylashgan. Ba'zilar bargi yozilguncha, boshqalari bargi yozilgandan keyin yoki bargi yozilishi bilan bir vaqtda gullaydi. Ikki yoshli novdalari kuchala chiqaradi. Gullari ikki uyli, bir jinsli, mart-aprel oylarida gullaydi. Mevasi ko'sakcha. 25-30 kunda yetiladi. Urug'i mayda, ochiq va nam yerda tez, ya'ni 5-10 soatda unib chiqadi. 15-20 kundan keyin unish qobiliyatini

yo'qotadi. Qalamchasidan, poyasidan, parxishdan yaxshi ko'payadi. O'zbekistonda oq tol, qora tol, ignabarg tol, majnuntol, suvtol, turon toli kabi turlari tarqalgan. Oq tolning (*S. alba*) balandligi 10–15 m. yog'och tanasi po'stlog'i to'q kulrang, tanasining diametri 1,5 gacha, Qora tolning (*S. excelsa* Gmel.) daraxt novdalari rangi qo'ng'ir-qizg'ish. Tez o'sadi. Issiqqa chidamli, sho'rxok yerlarda ham yaxshi o'sadi. Qalamchasi va poyasi ekib o'stiriladi. Obodonlashtirish va xo'jalik ehtiyojlari uchun ko'p ekiladi. Ignabargli tol (*S. acutifolia*) - yol bo'ylarida, kichik-kichik suv havzalari, ariqlar, xonadonlar atrofida o'sadi. Qurg'oqchilikka, sho'rxokka chidamli. Novdalari nozik va ingichka. Balandligi 2–4 m, majnuntol (*S. babylonica*) - 8–10 m ga yetadi. Manzarali daraxt sifatida o'stiriladi; suvtol yoki Vilgelms toli (*S. wilhelmsiana* Bieb.) - buta, novdasi ingichka, uzun, cho'l, adir, tog' zonalaridagi to'qayzorlarda uchraydi. Olga toli (*S. olgae* Rgl.) - yirik buta, novdalari rangi qoraqizil yoki sariq, Nedzvetskiy toli (*S. niedzwieckii* Goerz) - past bo'lyi daraxt, pishgan novdalari qizg'ish yoki qo'ng'ir. Daryo sohillarida o'sadi. Turon toli (*S. turanica* Nas.) - tog' va tog' oldi to'qaylarida to'p-to'p bo'lib o'sadi. Katta buta, balandligi 5–6 m. Barglari uzun - 12 sm, novdasi och sariq. Novdalaridan har xil savatlar to'qiladi. Ko'kalamzorlashtirish, obodonlik, ihota o'rmonzorlari tashkil etish, yog'och va xoda olish uchun ekiladi. Qadimdan tol yog'ochidan qurilish materiallari, ishqom, so'ri, har xil buyumlar, beshik, bolalar o'yinchoqlari, ketmon va belkurak dastalari yasashda foydalaniladi.

Qayin - qayindoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi daraxt va butalar turkumi. Oq qayin, kareliya qayini, yumshoq yoki tukli qayin, dauriya qayin yoki qora qayin, yapaloq bargli qayin kabi 100 ga yaqin turi ma'lum. Asosan, Shimoliy yarim sharning mo'tadil va sovuq iqlimli rayonlari hamda subtropik mamlakatlarida tarqalgan. G'arbiy Yevropaning 65°C gacha shimoliy kengliklarida, Rossiya Yevropa qismining o'rmon va o'rmondasht zonasida, G'arbiy Sibir, Zabaykalye, Oltoy va Kavkazda uchraydi. Ignabarglilar va bargli daraxtlar bilan aralash o'sib, keng Qayin o'rmonlari hosil qiladi.

O'rta Osiyoda 2 turi: Turkiston va Tyanshan qayinlari tarqalgan. To'qayzorlarda, 5-6 ga maydonlarda alohida yoki aralash o'rmonlar tashkil qilib, tog' daryolari qirg'oqlarida ingichka polosalar holda o'sadi. Ba'zi joylarda yong'oqzorlar, archazorlar, oq qarag'ayzorlarda tabiiy holda uchraydi. Turkiston qayini (*B. turkestanica*) Tyanshan-Olay tog' daryolari bo'ylarida uchraydi. Bo'yi 8–17 m. Po'stlog'i oq-sariq, tanasidan tez ko'chadi. Barglari ketma-ket joylashgan tuxumsimon, tig'simon. Gullari ayrim jinsli, bir uyli o'simlik. To'pguli kuchala. Aprel oyida gullab, oktabrda urug'laydi. Tyanshan qayini yoki qizil qayin (*B. tianschanica*) Tyanshan tog'lari vodiylarida yakka holda yoki to'p-to'p bo'lib uchraydi. Daraxtining bo'yi 20 m gacha yetadi. Shoxshabbalari keng, qalin. Po'stlog'i qatlam-qatlam. Barglari to'q kulrang-yashil, rombsimon. Yosh novdalarida smolali so'gallari bor. 8-15 yoshidan gullay boshlaydi. Qayin yorug'sevar, sovuqqa chidamli, qurg'oqchilikka bardoshli. Turli tuproq-iqlim sharoitlarida o'sa oladi. 40-150 yil yashaydi. Qayindan shaharlarni ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi, yog'ochidan parket, faner, chang'i va boshqalar, ayrim turlarining yog'ochidan qimmatbaho mebel tayyorlanadi. Po'stlog'idan qatron, barglaridan bo'yoq olinadi, kurtagi va kuchalasi qushlar uchun yaxshi ozuqa. Qayin sharbati, kurtagining qaynatmasi va tindirmasi tibbiyotda qo'llaniladi.

Qayrag'och - qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi daraxtlar turkumi, manzarali o'simlik. Asosan, O'rta Osiyo va Ozarbayjonda o'sadi. 80-120 (400–500) yil

yashaydi. Qayrag'och yorugsevar, qurg'oqchilikka chidamli, sovuqqa chidamsiz. Tog'larning 1500 m gacha baland yerlarida ham uchraydi. O'zbekistonda qayrag'ochning po'kak qayrag'och, pakana qayrag'och, maydabarg qayrag'och, silliq qayrag'och, bujun qayrag'och, dala qayrag'ochi, ayniqsa, sada qayrag'och va asl qayrag'och (gujum) yoki androsov qayrag'och keng tarqalgan. Bu qayrag'ochning bo'yi 10-15 m, shoxshabbasi qalin, sharsimon, barglari ketmaket joylashgan, tuxumsimon. Mart-aprel oylarida gullab urug'laydi. Gullari ikki jinsli. Urug'i yong'oqcha (danakcha). Quyuc soya berishi va chiroyli ko'rinishi tufayli G'arbiy va O'rta Osiyoda, Zakavkazyeda hovli, bog'larda, xiyobonlarda o'stiriladi. Qarag'ayning hamma turlari o'rmonlar, parklar, ihota daraxtzorlari barpo etish uchun ekiladi. Yog'ochi duradgorlikda turli buyumlar yasashda, asbobsozlik, uskunasoqlik va mashinasozlikda ishlatiladi. Urug'i va ildiz bachkisidan ko'paytiriladi.

Eman, dub - qoraqayindoshlar oilasiga mansub doim yashil daraxt, ba'zan butalar turkumi. SHimoliy yarim sharning mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarida 400, SHimoliy va Markaziy Amerikada 200 dan ortiq turi bor. Rossiya, Kavkaz va G'arbiy Yevropada tarqalgan bargi bandli oddiy yoki yozgi eman, qoyali yoki qishki emanni, gruziya emani, mongol emani va boshqalar emanzor o'rmonlar hosil qiladi. O'zbekistonda emanning qizil eman turi ekiladi. Ildizi o'q ildiz, 5 m chuqurlikka kirib boradi. Daraxtining balandligi 20-25 m, shox-shabbasi keng. Barglari teskari tuxumsimon, o'yma, novdalari qizgish-qo'ng'ir rangda, tuksiz. To'pguli kuchala yoki boshcha. Aprel oyida gullab, 15-60 yoshidan gullay boshlaydi, sentyabrda urug'i pishadi. Mevasi yong'oqcha. Eman yorug'sevar, qurg'oqchilikka chidamli daraxt. 400-1000 yilgacha yashaydi. Yog'ochi aviatsiya va kemasozlikda, qurilishda, mebel sanoatida, qimmatli xom ashyo hisoblanadi. Po'stlog'idan teri oshlashda foydalaniladi. Shahar ko'chalari va xiyobonlarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Eman o'rmonlar tashkil qilishda 1-o'rinni egallaydi, atrof muhitga sog'lomlashtiruvchi ta'siri bo'yicha boshqa o'simliklardan ustun turadi. Eman to'nkasidan o'sib chiqadi va yong'oqchasidan (kuzda ekib) ko'paytiriladi. Ko'chatlari birikki yildan keyin (bahorda) ko'chirib o'tqaziladi.

Tuya (lat. Thuja) - sarvdoshlar (Cupressaceae) oilasiga mansub ignabargli o'simliklarning gimnospermlari turkumi. Doim yashil daraxtlar yoki butalar, kamdan-kam hollarda balandligi 60 metrgacha bo'lgan juda katta daraxtlar, magistral diametri 2,5 metr yoki undan ko'p. Yosh o'simliklarda barglari yumshoq, ignasimon, kattalarda - qisqichbaqasimon, ko'ndalang qarama-qarshi. Tuya o'sib borayotgan sharoitlarga mos kelmaydi, sanoat shaharlarining tutuniga yaxshi toqat qiladi. Obodonlashtirishda foydalaniladi. Qoida tariqasida, ular ochiq yerga o'stiriladi. Eng keng tarqalgan Thuja occidentalis, Thuja plicata va ularning ko'plab bog' shakllari.

Archa (lot. Juniperus) - sarvdoshlar (Cupressaceae) oilasiga mansub doimiy yashil ignabargli butalar va daraxtlar turkumi. Oddiy archa veres deb ham ataladi [7]. Ilmiy adabiyotga kirib kelgan har xil turdagi yirik daraxtsimon archalarning turkiy nomi archa.

Sekvoya (lot. Sequoia) - sarvdoshlar oilasiga mansub yog'ochli o'simliklarning monotipik turi (Cupressaceae). Jinsning tabiiy diapazoni Shimoliy Amerikaning Tinch okeani sohillaridir. Sekvoyaning individual namunalari 110 metrdan oshiq balandlikka yetadi - bular Yerdagi eng baland daraxtlardan biridir. Maksimal yosh - uch yarim ming yildan ortiq.

Turning nomi Seqvoya (Jorj Xess) (Seqvoya taxminan 1770 - 1843) - cheroki qabilasining hind boshlig'i, cheroki gazetasi asoschisi sharafiga berilgan.

Bog'dorchilikda qo'llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar yuqori estetik ahamiyatga ega daraxtlardir. Bog' yaratishda daraxtlar xududning iqlim sharoitida kelib chiqib tanlanadi va agrotexnik talablar asosida parvarishlanadi, vaqti-vaqti bilan mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilib, zararkunandalardan himoya qilib turiladi.

Manzarali o'simliklar urug'i, ko'chatlari, qalamchalari manzarali bog'dorchilik xo'jaliklarida yetishtiriladi, yangi manzarali o'simliklarni madaniylashtirish va ularni tarqatish bilan botanika bog'lari va dendrariylar shug'ullanadi.

Xulosa qilib, aytganda manzarali daraxtlar insonlarga ozodalik, sharishtalik tug'usini va estetik zavqni baxsh etadi. Daraxt parvarishida ham har bir o'simlik parvarishidagi kabi, ularning turi va yashash muhitini inobatga olish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Головкин Б. Н. и др. Декоративные растения СССР/ - М.: Мысль, 1986. - 320 с.
2. Полетико О. М., Мишенкова А. П. Декоративные травянистые растения открытого грунта. Справочник по номенклатуре родов и видов/ - Л.: Наука, 1967.
3. Хессайон Д. Г. Всё о декоративных деревьях и кустарниках/ - М.: Кладезь-Букс, 2005.
4. Крестникова А. Д. Декоративные многолетники/ - М.: Россельхозиздат, 1987. - 62 с.
5. Справочник по декоративным деревьям и кустарникам Европейской части/ СССР. - М.: Министерства коммунального хозяйства СССР, 1953.
6. Плотникова Л. С. Декоративные деревья, кустарники и лианы/ -М.,2021.,-128 с.
7. Плотникова, Л. Декоративные деревья и кустарники. Иллюстрированный определитель/ - М.: БММ, 2005. - 152 с.

QUVURLARDAGI IKKI FAZALI MUHITDA VAQTINCHALIK HARAKAT DIFFERENSIAL TENGLAMALARI

Usmonova Nodira Abduqodir qizi

Samatova Munira Dilshod qizi

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Amaliy matematika va informatika kafedrası o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqola filtrlash uchun suv yo'qotilishini hisobga olgan holda turbulent beqaror harakatni (ikki o'lchovli holat) tavsiflovchi differensial tenglamalar tizimini yechish yo'llari yoritiladi. Variatsion-farq usuli qo'llaniladi va sonli natijalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: kvazy bir o'lchovli vaqtinchalik harakat, quvurlardagi ikki fazali muhit, gidravlik qarshilik, quvurlar kesishgan maydoni, Laplas transformatsiyasi, qutblar.

Аннотация: В данной статье решаются системы дифференциальных уравнений, которые описывают турбулентное неустановившееся движение (двумерный случай) с учетом потерь воды на фильтрацию. Применяется вариационно-разностный метод и приводятся численные результаты

Ключевые слова: квазиодномерные неустановившиеся движения, двухфазных среды в трубах, гидравлическое сопротивление, площадь сечения трубы, преобразование Лапласа, полюсы.

Annotation: This article solves systems of differential equations that describe turbulent unsteady motion (two-dimensional case), taking into account water losses due to filtration. The variational-difference method is applied and numerical results are presented.

Keywords: quasi-one-dimensional transient motion, two-phase media in pipes, hydraulic resistance, pipe cross-sectional area, Laplace transform, poles.

Ushbu maqolada, ikki fazali muhitning kvaziyali bir o'lchovli beqaror harakatining tenglamalari gidravlik qarshilik (1) hisobga olingan holda kvazistatsion gipotezani qo'llash asosida olingan.

Silindrsimon trubadagi ikki fazali suyuqlikning harakat tenglamalari (2) shaklga ega ekanligi ma'lum.

$$\rho_1 \frac{\partial u_1}{\partial t} = f_1 \mu_1 \left(\frac{\partial^2 u_1}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial u_1}{\partial r} \right) + k(u_2 - u_1) - f_1 \frac{\partial p}{\partial z}, \quad (1)$$

$$\rho_2 \frac{\partial u_2}{\partial t} = f_2 \mu_2 \left(\frac{\partial^2 u_2}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial u_2}{\partial r} \right) + k(u_1 - u_2) - f_2 \frac{\partial p}{\partial z}, \quad (2)$$

Bu yerda $\mu_1, \mu_2, \rho_1, \rho_2$ – birinchi va ikkinchi fazalarning yopishqoqligi va zichligi;

f_1, f_2 – g'ovakligi; k – o'zaro ta'sir koeffitsienti.

(1) va (2) tengliklarni ko'paytirib $2\pi f_1 f_2 r dr$ va 0 dan R gacha integrallab, (2) dan foydalanib, oddiy o'zgarishlardan keyin biz quyidagi natijani olamiz

$$-f_1^2 f_2 \frac{\partial p}{\partial z} = f_2 \rho_1 \frac{\partial W_1}{\partial t} - f_1 f_2 \mu_1 A_1 W_1 - k(f_1 W_2 - f_2 W_1). \quad (3)$$

$$-f_2^2 f_1 \frac{\partial p}{\partial z} = f_1 \rho_2 \frac{\partial W_2}{\partial t} - f_1 f_2 \mu_2 A_2 W_2 - k(f_2 W_1 - f_1 W_2). \quad (4)$$

Bu yerda,

$$A_1 = \frac{\alpha_1^0 \frac{mI_1(mR)}{I_0(mR)} - \frac{kR}{2f_1 f_2 \mu_1 \mu_2}}{\alpha_1^0 \frac{I_1(mR)}{mI_0(mR)} + \left(\frac{kR^2}{8f_1 f_2 \mu_1 \mu_2} - \alpha_1^0 \right)}; \quad A_2 = \frac{\alpha_2^0 \frac{mI_1(mR)}{I_0(mR)} - \frac{kR}{2f_1 f_2 \mu_1 \mu_2}}{\alpha_2^0 \frac{I_1(mR)}{mI_0(mR)} + \left(\frac{kR^2}{8f_1 f_2 \mu_1 \mu_2} - \alpha_2^0 \right)};$$

$$\alpha_1^0 = \frac{1}{f_1 \mu_1 + f_2 \mu_2} - \frac{1}{\mu_1}; \quad \alpha_2^0 = \frac{1}{f_1 \mu_1 + f_2 \mu_2} - \frac{1}{\mu_2};$$

W_1, W_2 – birinchi va ikkinchi fazalarning o'rtacha tezligi.

Ikki fazali muhit uchun doimiylik tenglamasi quyidagi shaklga ega

$$\frac{\partial p_i}{\partial t} + \frac{\partial(\rho_i u_i)}{\partial r} + \frac{\partial(\rho_i u_i)}{\partial z} + \frac{\rho_i u_i}{r} = 0, \quad (i = 1, 2). \quad (5)$$

(5) ni $2\pi f_i r dr$ ga ko'paytirib va 0 dan R gacha integrallab, har bir tarkibiy qism uchun alohida, quyidagilarni yozamiz

$$f_1 s \frac{\partial \rho_1}{\partial t} + \frac{\partial M_1}{\partial z} = 0. \quad (6), \quad f_2 s \frac{\partial \rho_2}{\partial t} + \frac{\partial M_2}{\partial z} = 0. \quad (7)$$

Bu yerda $M_i = 2\pi f_i \int_0^R \rho_i u_i r dr$ – massa xarajatlari, s- truba kesimining yuzi.

Aytaylik, aralashmaning o'rtacha zichligi va trubaning maydoni uchun Гук qonuni amal

$$\text{qiladi } \rho_{cm} = \rho_0 \left(1 + \frac{p - p_0}{K_{\text{ж}}} \right), \quad s = s_0 \left(1 + \alpha \frac{p - p_0}{E} \right),$$

Bu yerda ρ_0 - p_0 bosim zichligi, s_0 - $p = p_0$. bo'lgandagi yuza. $K_{\text{ж}}$ - suyuqlikni siqish

moduli, E- elastiklik moduli, α - o'lchovsiz koeffitsient. (1) tenglamagako'ra $\alpha \frac{(p - p_0)^2}{K_{\text{ж}} E}$,

$$\text{bundan, } \rho_{cm} s = s_0 \rho_0 \left[1 + \left(\frac{1}{K_{\text{ж}}} + \frac{\alpha}{E} \right) (p - p_0) \right]. \quad (8)$$

$$(6) \quad \text{va} \quad (7) \quad \text{niqo'shib,} \quad (8)$$

nihisobgaolgan holda vaba'zio'zgarishlardan keyin quyidagini yozamiz

$$-\frac{1}{c^2} \frac{\partial p}{\partial t} = \frac{\partial(\rho_1 W_1)}{\partial z} + \frac{\partial(\rho_2 W_2)}{\partial z}. \quad (9)$$

bu yerda

$$c^2 = \frac{k}{\rho_0}, \quad k = \frac{K_{\text{ж}}}{1 + \alpha \frac{K_{\text{ж}}}{E}}$$

(3), (4) va (9) tenglamalar - bu ikki fazali muhitning o'rtacha tezligi, zichligi va bosim kesishishlariga ta'aluqli kvazyometrik harakat.

Olingan tenglamalar, gaz quvurining boshida va oxirida bosim yoki suyuqlik oqimining o'zgarishini o'rganish, shuningdek, ikki fazali muhit (k, μ, ρ va boshqalar) parametrlarini aniqlash uchun teskari muammolarni yechishda qiziqish uyg'otadi.

Quvurlardagi ikki fazali muhitning beqaror harakati masalasini yechishni ko'rib chiqamiz, buning uchun (3), (4) va (9) tenglamalarni quyidagicha yozamiz:

Amaliy uslublar qo'llanilishi o'quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog'liq. Amaliy uslublar o'rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo'llashga o'quvchilar faoliyatining o'zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og'zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg'ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga [2]:

1. Oquvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo'yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o'tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo'yilgan savol, muammo, masalaga o'quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak.³

Tabiiy fanlar darslari tanib olish va aniqlash amaliy metodlarining bir turi bo'lib, tarqalgan o'simliklarni yoki ularning qismlarini farqiga borib, tanib olish xususiyatlarini o'rgatadi.

Taqqoslashdagi farqga borish o'quvchining aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Farq qilish va aniqlash bo'yicha ishlar darslardagina olib borilmaydi, o'qituvchi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ham o'simliklarni topish va to'plashni, namunalar yig'ishni, ularning yoshi, vegetativ usullari, tuproq kesmalari, moslashishlarini, o'zgaruvchanlikni o'quvchilarning o'zlashtira olish qobiliyatlariga qarab tanlab berishi kerak. Osimliklar, ular qismlarining shaklini bilib olish bo'yicha ishlarni o'quvchilar uy vazifasi sifatida bajaradilar. Osimliklarni yoshini tabiatda nafaqat yillik halqalardan balki osimliklarni yillik shoxlanishiga qarab aniqlash mumkin. Osimlik bahordan kuzgacha o'sish davriga ega, kuzdan bahorgacha tinim davri boladi. Bu osimlikning bir yoshi demakdir, ikkinchi yilda yana o'sish, shoxlanish sodir boladi. Shoxlanish orasidagi masofa o'simlikning bir yoshi hisoblanadi, buni o'quvchilarga tabiatda tushuntirish talab etiladi. O'quvchilar amaliy bilimga ega bo'ladilar, daraxtlar yoshini kesmasdan turib ham aniqlash mumkinligini bilib oladilar. Bu ekologik, hamda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi.

Tabiiy fanlarni o'qitish metodlari ti'imida amaliy ishlar tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishda katta rol o'ynaydi. Amaliy ishlar o'quvchilarni ular faoliyati jarayonida har xil mehnat operatsiyalariga o'rgatish metodidir. Amaliy ishlarga o'quvchilarning ekskursiya vaqtida tabiiy materiallar yig'ish, maktab oldi yer maydonidagi va tirik tabiat burchagidagi

³ M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil

o'simliklarni parvarish qilish, gerbariy va kolleksiyalar tuzish, mulyaj, maket, ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabi faoliyat turlari kiradi.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilar "Atrofimizdagi olam" darsligini o'qish jarayonida bevosita kuzatishlar yo'li bilan o'rganadilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini tashkil qilishga yordam beruvchi har xil jihozlardan va avvalo ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Ko'rgazmali qurollarga tabiiy yoki haqiqiy ob'ektlar kiradi [3].

Tabiiy qurollar-tabi'at jismlaridir. Ular o'rganilayotgan mavzular to'g'risida, bolalarda tabiat haqida tushunchalar hosil bo'lishiga imkon beradi. Chunki sinfda jonli tabiatni o'rganish uchun har xil xona o'simliklari hamda o'z joylarining daraxtlari uchun xos bo'lgan shoxchalar, barglar, gullar, meva va urug'lar bolishi mumkin. Tabiiy fanlar darslarida tabiat burchagida o'stirilayotgan o'simliklardan, shuningdek gerbariy va ekskursiyadan olib kelingan o'simliklardan foydalaniladi. Shuningdek, tabiiy ob'ektlardan hayvonlarni o'rganishda ham foydalansa boladi. Ko'pgina hayvonlarni bolalarga sinfda (jonli tabiat burchagida) ko'rsatish mumkin bo'lsa ham ekskursiyalarga afzallik berish kerak boladi, chunki bunda o'quvchilar faqat ularning tashqi ko'rinishini emas, balki xulq-atvorlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Tirik hayvonlar bo'lmaganda ularning chuchelalari (tulumlari), mulyajlari yoki fotosuratlar va rasmlaridan foydalanish mumkin. Jonsiz tabiatni o'rganishda ham tabiiy tarqatma material, masalan, har xil rangdagi granit, kvars, dala shipati, loy, qum, kal'sit (bo'r, marmar, ohak, har xil toshko'mir, temir, mis rudalarining namunalari, shuningdek metallar hamda qotishmalar) temir, cho'yan, polat, alyuminiy, tuproq namunalari va boshqalar bo'lish mumkin. O'quvchilarga bevosita qabul qilish mumkin bo'lmagan tabiat jismlari va hodisalari to'g'risida aniq va to'g'ri tasavvurlar hosil qilish uchun ko'rsatiluvchi qurollardan foydalaniladi. Tabiiy fanlar bo'yicha devoriy o'lkashunoslik suratlaridan, foydalanish mumkin. Ular tabiatning o'lkashunoslik ob'ektlari to'g'risida tasavvur va tushunchalar shakllantirishga yordam beradi. Sinflarda bosma rasmlari, ularni ifodalovchi matnlari, o'quvchilar uchun savol va topshiriqlari bo'lgan "Kuzatishlar kundaliklari" dan foydalanish zarur.⁴

Tabiiy fanlar materiallarini amaliy o'zlashtirishda xarita-sxemalarni chizish katta o'rin tutadi. Ularni qo'llanish yo'lida (ufq tomonlarini aniqlashda) maktab hovlisidagi narsalarning joylashishining oddiy rasmini chizish birinchi qadam bo'ladi. Kartografik tasvirlarni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishni tekshirish uchun xarita-sxemalardan foydalanish qulay.

O'quvchilarni amaliy bilimlarini sinash maqsadida 4-sinflarda quyidagi muammoli savollarni o'rta tashlash mumkin. Yozning jazirama issig'ida cho'lda turibsiz. Amaliy kuzatish bilimlaringizga tayanib, turgan joyingizdan orientir olib, janub tomonni belgilang. Amaliy tabiatni kuzatish natijasida quyidagi faktorlar asosida janubni aniqlash mumkin: 1) sudralib yuruvchi hayvonlar o'z inini kirish yo'lini doim janubga qaratadi; 2) qushlar o'z uyasini doimo janub tomonga qo'yadi; 3) osimliklar shoxlari doimo janub tomonga egilgan; 4) osimlik poyasining janub tomoni doimo yog'onlashgan boladi; 5) barxan qunlar bir uchi shimolda ikkini uchi esa janubga yotgan boladi.

O'quvchilarga har xil narsalarni berib rasm, fotosurat va gugurt qutisi, kubik, stakan boshqa narsalarni olib chiqib, o'xshashlik farqlarini topishni topshiradi, so'ng geometrik

⁴ A.Baxronov, Tabiatshunoslik 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.

figuralarni tarqatadi, uni o'quvchilar daftar varag'iga ustiga qo'yib atrofini qalam bilan qog'ozga chizadilar. Topshiriq bajarilgandan keyin narsaning yuqoridan ko'rinishini plan deyiladi degan xulosaga olib keladi. Undan keyin stolning plani chizdiriladi. Agar o'quvchilar narsalarning kattaligiga qiynalsalar tasvirlanadigan narsani shartli ravishda kichraytirish mumkinligini tushuntiradi. (Masalan 10, 20 marta) Dasturlashtirilgan o'qitish uchun quyidagilar kerak:

-o'quv materialining puxta tahlili, uning qat'iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo'yicha bo'linishi;

-o'quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik.

Dasturlashtirilgan o'qitishda o'quvchilarning o'quv materialini qo'llashda faolligi va mustaqilligi ortadi, o'qitish jarayonini individuallashtirish imkoni paydo bo'ladi, texnik vositali o'qitish keng qo'llaniladi, o'qitish va o'quvchi mehnatini oqilona tashkil etishga erishiladi. Nazorat ishlarini dasturlashtirishning tamoyili o'quvchilarning og'zaki javoblarini shartli belgilar va chiziqlar bilan yozma ravishda. Ularning afzal jihati shundaki, ular qisqa vaqt ichida har bir o'quvchining o'tilgan mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlay oladi. Tajriba atrof olam bilan tanishish darslarida bilim olish faoliyatini faollashtirish maqsadida dasturlashtirilgan o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatadi. Bu usullarning afzalligi shundaki, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini o'quvchilarning o'zlari shu dars mobaynida tekshirishlari mumkin. 2 - sinfda dasturlashtirilgan o'qitishda tezis turidagi tarqatma topshiriqlar, raqamlar, tarqatma testlar, grafik topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Grafik topshiriqlarini bajarayotganda o'quvchilarga « — » noto'g'ri javob, «1» — to'g'ri javob ekanligini tushuntirish lozim. O'qituvchida esa grafik usuldagi javoblarni tezda aniqlashga moslashtirilgan asbob bo'lishi kerak. Masalan:

21- mart — Navro'z bayrami.

1- sentabr — Ustozlar va murabbiylar kuni.

1- oktabr — Mustaqillik bayrami.

8- dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

«So'z top» o'yini. Bu metoddan darsning hamma qismlarida foydalanish mumkin. O'qituvchi qushlar, hayvonlar, meva, sabzavotlar haqida bir so'z aytadi, o'quvchilar davom ettiradilar. O'qituvchi boshlagan so'z qaysi harf bilan tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak.⁵

Masalan: tulki — ilon — ninachi — it — tipratikan — nortuya — yalqov (panda) — ayiq — qarg'a — ari va hokazo. Bu usul o'quvchilarni tezkorlik bilan fikr yuritib, javob berishga hamda xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

«Klaster» usuli. Bu usul o'quvchiga berilgan mavzu bo'yicha erkin o'ylash va fikrlarini bemalol bayon etish uchun sharoit yaratadi. Bu usulda o'quvchi nimani o'ylagan bo'lsa, shuni aytadi va yozadi. Yozilgan fikrlar to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'i nazar muhokama qilinmaydi va belgilangan vaqtgacha davom etadi. Bu sinfning har bir o'quvchisi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirib, ular o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash

⁵ A.Baxronov Tabiatshunoslik 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.

imkoniyatini yaratadi. «Klastyer» usuli yangi mavzuni boshlashdan avval o'quvchini darsga qiziqtirib, shu mavzu bo'yicha oldin egallagan bilimlarini aniqlash maqsadida hamda o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'tkaziladi. Masalan, «O'lkamizdagi uy va yovvoyi hayvonlar» mavzusi.

«Mozaika», ya'ni mayda bo'laklardan yaxlit ko'rinishni hosil qilish. Bunda qushlar, hayvonlar, daraxtlar, mevalarning rasmlari bo'laklarga bo'linib, har bir guruhga alohida tarqatiladi. Guruhlarning qatnashchilari bo'lakchalarni bir butun ko'rinishga keltiradilar. Guruh sardorlari yaxlit holga kelgan hayvon, meva yoki daraxt haqida gapirib beradilar.

«To'xtab o'qish» usuli. O'qituvchi matn bilan tanishtirish jarayonida bir necha marta to'xtab, o'quvchilarga savollar bilan murojaat qiladi. Savollar aynan matnga tegishli bo'lishi zarur. Yoki o'quvchi matn o'qish jarayonida to'xtatilib, nima haqida o'qiganligi so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilarning diqqati jamlanadi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

«Zanjir» usuli. Bu usulni she'r, topishmoq, maqollar berilgan darslarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar tartib bilan ketma-ket berilgan she'r misrasi yoki topishmoq qatorini aytadilar. Bu usul qo'llanganda o'quvchi uyalib qolmasligi uchun berilgan she'r, maqol, topishmoqni yod olishga majbur bo'ladi.

«Rasmi rebus» o'yini. Sinf o'quvchilari uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga rasmlar tarqatadi. Berilgan rasmlar nomining bosh harflaridan hayvon yoki qushlar nomi kelib chiqishi kerak. Masalan, it, laylak, ohu, ninachi – non, anor, rediska, chinni gul, arpa – archa.

«Kim tez bajaradi» o'yini. O'quvchilar uch guruhga bo'linadilar. Har bir guruhga 5 tadan hayvonlar yoki qushlar rasmlari teskari qilib beriladi. Belgilangan vaqt ichida (1–2 daqiqada) o'quvchilar hayvon yoki qushlarni yovvoyi yoki uy hayvonlari guruhlariga ajratadilar. Topishmoqni birinchi bo'lib xatosiz bajargan guruh g'olib hisoblanadi.

«O'z guruhingni top» o'yini. O'quvchilarga rangli buklangan qog'ozlar tarqatiladi. Ularga hayvon va parrandalar nomi yozilgan bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga qog'ozda rasmi berilgan hayvon yoki parranda qanday tovush chiqarsa, ular ham shunday tovush chiqarib o'z guruhini topishlarini tushuntiradi.

1. Mushuk (miyov-miyov). 2. Kuchuk (vov-vov). 3. Xo'roz (qu-qu-qu-qu). 4. Sigir (mo'-mo'). Guruhga bo'linib olganlaridan so'ng guruhga tegishli hayvon yoki parrandalar haqida bilganlarini so'zlab beradilar.

Uzoq vaqt davom etadigan kuzatish va tajribalar uchun jonli tabiat burchagi tashkil qilinishi kerak, u yerda hayvon va osimliklarni saqlash va zaruratga qarab ulardan tabiiy fanlarni o'rganishda foydalanish mumkin. Burchak shuningdek o' quvchilarning darsdan va sinfdan tashqari ishlari uchun moddiy baza hisoblanadi. Bu yerda ular yilning istagan vaqtida ish olib borishlari mumkin ekskursiya jonli tabiat burchagi tashkil qilishning boshlanini bo'lishi mumkin. Suv havzasidagi hayot bilan o'quvchilar mollyuska, ninachi qurtlari, har xil qo'ng'izlar, gambuziya, peskar (tanga baliq), shuningdek suv o'simliklarining barchasi akvarium, shisha banka idishlarga joylashtiriladi. Bog' va polizlarda ko'pincha meva, rezavor meva hamda sabzavod o'simliklari zararkunandalarning g'umbak va qurtlari uchraydi. Jonli tabiat burchagi uchun alohida xona ajratgan ma'qul. Bunday imkoniyat bo'lmaganda osimlik va hayvonlarni tabiiy fanlar xonasida yoki sinfdan joylashtiriladi. Jonli tabiat burchagi uchun xona yorug' bo'lishi, deraza ro'parasiga har xil tokchalarga suv hayvonlari hamda osimliklari

bo'lgan akvariumlarni qo'yish qulay bo'ladi. Burchakda hayvonlar uchun ajratilgan joy ularning tabiatdagi hayot sharoitlariga muvofiq bo'lishi kerak. Akvariumni zoomagazindan olish ma'qul. Ammo akvarium sifatida xohlagan shisha idishdan foydalanish mumkin, lekin shuni hisobga olish mumkinki, baliqlar to'rtburchak idishda yaxshi ko'rinadi. Akvariumdagi baliqlar soni uning katta-kichikligiga (o'lchamiga) va undagi o'simliklarning soniga muvofiq bo'lishi kerak. Bunda yutiladigan va chiqariladigan kislarodning balansi ta'minlansin. Akvariumda yashovchilarga doimiy parvarish zarur, oziqni zoomagazindan sotib olish mumkin. Baliqlarni ularni shartli refleks hosil qilishi uchun muayyan vaqtda oziqlantirish kerak. Bolalar termometr bilan o'lchab, suv haroratini tekshirib borishga o'rganishlari lozim.

Sudralib yuruvchilar va suvda ham quruqda yasovchilar uchun xilma-xil ko'rinish va katta kichiklikdagi terrariumlar kiritiladi. Odatdagi terrarium metallardan yoki yog'ochdan tayyorlangan yashik bo'lib, yon va tepa devorlari shisha va to'rdan iboratdir. Shisha devor terrariumda yashovchilarni kuzatish, yon devor hamda tepasining to'rdan bo'lishi ham ventilyasiyasini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Jonli tabiat burchagining o'simlik va hayvonlari uning asosini tashkil qiladi. Unga qarab jihozlar tanlanadi. O'simlik va hayvonlar tanlovi tabiiy fanlar dasturiga qarab, o'lkashunoslik xususiyatlarini hisobga olib belgilanadi. Barcha xona o'simliklari ularning nomlari va qachon va qayerdan olinganligi to'g'risida ma'lumotlar yozilgan etiketkalar bo'lishlari zarur. O'simliklardan avval shundaylarni tanlash kerakki, ular yordamida namlik, issiqlik, yorug'lik, suv iste'mol qilishdagi farqlarini, jumladan quruq iqlimga (kaktus, aloe) nam iqlimga moslangan o'simliklarni, tropik o'simliklarni (navro'zgul), yorug'lik sevuvchi (xina) va soyaga chidamli (aspidistra) o'simliklarini namoyish qilish mumkin bo'lsin. Keyin shunday o'simliklar tanlanadiki, ular masalan, yorongul, fuksiya, begoniya, kaktus, tradeskansiya, elodeya, binafsha kabilarning har xil turlari yordamida turlicha tajribalar o'tkaziladi.

Maktab o'quv tajriba maydonchasi bevosita maktab yaqinida bo'lishi, yer tekis, yaxshi tuproqli, soya tushmaydigan bo'lishi kerak. Uning atrofini albatta o'rash kerak bo'ladi. Maktab tajriba maydonchasi agrotexnika nuqtai nazardan namunali bo'lsin. Tajriba maydonchasini tashkil qilishda o'quvchilar o'tkazadigan mashg'ulotlar, mehnat qurollarini saqlash uchun kichikroq xona bo'lishini mo'ljallash kerak. O'quv tajriba maydonchasidagi ishlarni butun sinf bilan dars vaqtida o'tkaziladigan majburiy ishlarga, o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda (uy vazifasi yoki yozgi topshiriq tarzida) bajaradigan majburiy ishlarga va yosh tabiiy fanlar to'garagi a'zolarining ishlariga ajratish mumkin.

O'quvchilar kuz davrida daraxt, buta va o'simliklar bilan, ular barglari va gullari shakllari hamda ranglarining xilma-xilligi va chiroyiligi bilan, qo'l bilan ishlatiladigan asboblardan (xaskash, zambil) va ular bilan ishlash uslublari bilan tanishadilar. Bahorda birinchi sinf o'quvchilari bilan o'quv tajriba maydonchasida amaliy ishlar o'tkaziladi. Ularni urug'larni ekish va ularni parvarish qilish, sug'orish, o'toq qilish, tayanch qoziqlarini qoqish qoidalarini bilib oladilar. Birinchi sinf o'quvchilari urug'larni ekishga tayyorlaydilar va yerga ekadilar, o'simliklarni parvarish qiladilar. O'quvchilar kuzda o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar vaqtida amal qilinishi kerak bo'lgan mehnat haftaligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan, urug'larni yig'ish va saqlash qoidalari bilan tanishadilar, kuzda tuproqqa ishlov berishga tayyorlaydilar, to'kilgan barg va shoxlarni yigib oladilar, o'simlik qoldiqlari va axlatlarni chiqarib tashlaydilar. Katta yoshdagi o'quvchilar eski tuproqni chopib beradilar. Bahorda o'quvchilar gul manzarali

hamda dukkakli o'simliklarning urug'larini ekishga tayyorlaydilar, buning uchun yirik va sog'lom urug larni tanglab oladilar ularni ivitadilar va undiradilar (urug'larni tuproqqa ekish) o' simliklarni o' stiradilar. Keyin materialni xaskash bilan tekislaydilar. Yerga urug'lar ekish bilan ustini bir yo'la ko'madilar, o' simliklarni keyingi parvarishini olib boradilar.

O'quvchilar kuzda xaskash va belkurak bilan ishlashda mehnat xavfsizligi va shaxsiy gigiena qoidalari bilan tanishadilar, maydonchada o'stirilgan o'simliklarning urug'larini yig'adilar maydonchani o'simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, o'g'it soladilar, tuproqni ag'darib chopadilar, ikkinchi sinfdagi o'qish davrida maktab oldi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlar yakunini chiqaradilar, maktab ko'rgazmasi uchun materiallar tayyorlaydilar. O'quvchilar ildizmeva (rediska, lavlagi, sabzi) va bir yillik gul manzarali o'simliklarning (kosmeva, astra, itog'iz, gulto'jixo'roz) urug'larini ekishga tayyorlaydilar. Ko'chat qalinligini ildiz mevalar ekishga tayyorlaydilar, o'g'itlarning ildiz mevalar hosiliga va gul manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tajriba va kuzatishlar olib boradilar. Ildiz meva va gul manzarali o' simliklar urug'larini yerga ekadilar, tajribalar qo'yadilar va ekinlarga qaraydilar. Sug'oradilar, o'toq va yagona qiladilar ko'chat o'tkazadilar.

O'quvchilar kuz davrida hosilni yig'adilar va hisobga oladilar, ularni saqlash qoidalari bilan tanishadilar, urug'lar yig'adilar, tuproqqa ishlov beradilar, rezavor, buta va mevali daratlarni qishga tayyorlaydilar. Bundan tashqari o' quvchilar mevali daraxtlarning tanasi hamda asosiy poyasidagi eski po'stloqlarini olib tashlaydilar, tana atrofiga tuproq tashlaydilar, unga o'g'it soladilar va manzarali butalar o'tkazadilar.

Boshlangich sinf o'qituvchisi o'quv-tajriba maydonchasidagi ishlarni tashkil qila borib, iqlim sharoitlarini, maktabning hududida joylanishini hisobga olishi va barcha masalalarni biologiya o'quvchisi bilan kelishib olishi lozim. Tajriba yosh tabiatshunosning qishloq xo'jalik tajribalari va qo'shimcha amaliy ishlari bazasidir: chunki u yerda tabiiy fanlar darslarida o'rganiladigan o' simliklar o' stiradi.

Boshlangich sinfdan boshlab o'z o'lkalarini, o'z joylarini o'rganadilar, tabiat ustida kuzatishlar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlangich maktabda o'qish vaqtida ularda boy aniq material to'planadi va bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlangich maktabni ilgarigi bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiiy fanlarni o'qitishda sistemali ravishda foydalaniladi. O'lkashunoslik burchagi tabiiy fanlar xonasida yoki alohida sinfda barpo etiladi. Material uch bo'limga ajratiladi: bizning o'lka, ob-havo va tabiat belgilari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiiy fanlar va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005-yil
3. A.Baxronov, Tabiiy fanlar 3-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Cho'lpon NMIU 2012 y.
4. A.Baxronov Tabiiy fanlar 4-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. T; Sharq NMIU 2011 y.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI**Alimjanova Fatima Batirovna***Toshkent shahar Olmazor tumani 28- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi***Dusmuxamedova Zulfiya Xusanbayevna***Toshkent shahar Olmazor tumani 28- maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yangi interfaol uslublardan foydalanishning ijobiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan namunalar tavsiya qilinib yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'qish, interfaol, izohli o'qish, intonatsiya, metod, ta'lim, ifodali o'qish, badiiy o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilar turli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari- norasmiy bahs- munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media - ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof -muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estetik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Darsliklardagi har bir mavzu uchun tanlangan matnlarning janriy rang-barangligiga, poetik mukammalligiga, o'quvchilarning bilim darajasi va yosh xususiyatlariga mos kelishiga alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilar darsliklar yordamida o'zlashtiriladigan bilim, ko'nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo'lishini tushunib yetishishlariga erishish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Umuman olganda, o'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qishlarini shakllantirish.
2. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yirituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish.
3. O'quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.
4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.
5. O'quvchilarning bog'lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o'stirish.
6. O'quvchilarning xayolot olamini boyitish.
7. Elementar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi.

O'qish inson xayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfda o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l –yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi.

Masalan, eski maktablarda o'qish quruq yod olish metodida o'rganilgan bo'lsa, hozirgi maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib boriladi. Yod olish metodida matndagi so'zlarga izoh berishga, mazmunini tushuntirishga, o'qilganini qayta hikoyalashga, umuman olganda, o'qishning ongli bo'lishiga mutlaqo e'tibor berilmagan. Ularda ko'proq turli talaffuzga, qiroat bilan o'qishga, ifodali o'qishga katta e'tibor berilgan. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti. Izohli o'qishga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. Bilim berish bilan o'quvchi shaxsi tarbiyalanib boradi. V.A.Suxomlinskiy bu haqida shunday deydi: «Bolalar dunyoni va o'z-o'zini bila borish bilan birga katta avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar uchun o'zining mas'ulligini ozozdan bila borishlari kerak. ...bolaga yaxshilik va yomonlikni to'g'ri ko'rish imkonini berish kerak. Yaxshilik unda quvonch, zavq, hayajon, ma'naviy go'zallikka ergashish ishtiyoqini hosil qiladi; yomonlik qahr-g'azab, murosasizlik uyg'otadi, haqiqat va adolat uchun kurashga chorlovchi ma'naviy kuchga to'ldiradi. (1-4 sinf "O'qish kitobi" da berilgan asarlar misolida ochib beriladi).

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqea va tafsilotlar asosida o'quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo'llaniladigan usuldir. O'qish

darslarida reproduktiv metod keng qo'llaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki darslarda o'zi asar matnini qismlarga bo'ladi, yozuvchi yoki sho'irning aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko'rsatadi, o'quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma'noni ochib, o'quvchilarga ko'maklashadi. Bularning bari o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini o'taydi. Shun-dan so'ng o'quvchilar o'qituvchining ko'rsatmalari yordamida yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni o'zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", „Blis texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf, T. 2006 yil
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2006.
3. Abdullayeva Q., va boshqalar "Ona tili" T., "O'qituvchi "1999 yil.
4. «Kitobim-oftobim» Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti, 2008 yil.

ONA TILI FANINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI**Kalanova Dilnora Shanazarovna***Toshkent shahar Yunusobod tumani**273-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi***Tog'ayeva Marhabo Abdinazar qizi***Toshkent shahar Yunusobod tumani 273-umumta'lim maktabi**boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada «Ona tili o'qitish metodikasi» fanining tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. «Ona tili o'qitish metodikasi» garchand pedagogik sikldagi fan sanalsada, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab ona tili kursining mazmuniga ta'sir ko'rsatadi: zaruriyat tug'ilganda uni yangilash yuzaga keltirishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, metodika, dars, o'qitish, mazmun, ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, faoliyat.*

Ona tilini o'qitishda, u haqida o'quvchilarga tushuncha berishda ona tili fani o'qituvchilarining xizmatlari benihoya kattadir. Bugun ta'lim sohamizda ona tili fanini o'qitishda ba'zi bir muammolar ham mavjudki, bular tilimizning sofligiga, milliyligiga, boyligiga putur yetkazayotgan holatlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Natijada ushbu fanni o'qitishda, o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazib berishda ba'zi bir qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Bu holatlar esa, albatta, ta'lim sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ona tili o'qitish metodikasi» fanining falsafa bilan aloqadorligi. «Ona tili o'qitish metodikasi» xususiy pedagogik sikldagi fan bo'lganligi uchun ham, ijtimoiy fanlar guruxiga kiradi va ijtimoiy fanlarning asosini tashkil etadigan falsafa bilan chambarchas bog'langan. Mazkur fanning falsafa bilan aloqadorligi ona tilining maqsad va vazifalarini tushumishingizga, bu fanning ta'lim mazmunini to'g'ri belgilashingizga, o'quvchi faoliyatini to'g'ri uyushtirishingizga, o'qitishning eng samarali metod, vosita va usullarini tanlashingizga, faoliyat mahsulini nazorat qilishingizga yordamlashadi.

O'quvchiga o'z ona tilini o'rgatish tafakkur bilan chambarchas bog'langan. Chunki til hodisalarining o'quvchi ongida voqealanishi tafakkur orqali yuzaga chiqadi. Til tafakkurning aloqadorligi ona tili darslarida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash muammosini hal qilishga ko'maklashadi.

Ma'lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz'iy tushunchalar yig'indisidan tashkil topadi, degan qoida mavjud. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi faoliyatini tashkil etishda ham biz xuddi shu qoidaga asoslanamiz. Muayyan bo'laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o'quvchi umumiy ta'rif, qoida va xulosalarga keladi.

Til materiallari o'quvchi tomonidan ijodiy fikrlash orqali egallagan bo'lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko'nikma va malakalar bo'lib sanaladi.

Shuni unutmaslik lozimki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali ro'yobga chiqadi.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fanining tilshunoslik fanlari bilan aloqasi. «Ona tili o'qitish metodikasi» garchand pedagogik sikldagi fan sanalsa-da, ammo uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan har bir ilmiy yutuq, shubhasiz, maktab ona tili kursining mazmuniga ta'sir ko'rsatadi: zaruriyat tug'lganda uni yangilash yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik lozimki, tilshunoslikda fan erishgan barcha yutuqlarni umumiy o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji yo'q hamda bunga extiyoj ham sezilmaydi. Modomiki, shunday ekan, «Ona tili o'qitish metodikasi» fani ana shu til ilmi sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlardan nimani ajratib olib o'quvchiga o'qitish lozimligini ham hal qiladi.

Maktab ona tili kursi o'zbek tili fonetikasi, leksikasi va grammatikasidan zaruriy ma'lumotlarni o'quvchilarning yoshi va taraqqiyot darajasiga mos ravishda ularga etkazishga xizmat qiladi.

Til bir butun tizim bo'lganligi sababli, maktab ona tili kursining bir bo'limi ikkinchisi bilan chambarchas bog'langan. Chunonchi, tilning tovush tizimi o'rganilar ekan, ayni vaqtda so'z va uning ma'nolari, gapda so'zlarning aloqaga kirishi xususida ham ma'lumot beriladi. Leksika va grammatika bo'limlari o'rganilar ekan, fonetikadan berilgan bilim, ko'nikma va malakalarga tayanib ish ko'riladi.

Maktab ona tili ta'limi nafaqat «Hozirgi zamon o'zbek tili» kursi, balki umumiy tilshunoslik, til tarixi, shevashunoslik singari fanlar bilan ham aloqador. Til tarixidan xabardor o'qituvchi mumtoz adabiy asarlarning til xususiyatlari ustida ishlay oladi, dialektologiyani bilgan o'qituvchi esa adabiy til bilan shevani qiyoslab, nutqdagi dialektal xatolarning olidini olishi yoki bartaraf etishi mumkin.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fani nutq madaniyati bilan ham aloqador. Zero nutq madaniyati asoslarini po'xta bilgan o'qituvchilar o'quvchi nutqi ustida samarali ishlay oladi.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fani ifodali o'qish adabiyotshunoslik fanlari bilan ham bog'liqdir.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fanining didaktika bilan aloqasi. Ma'lumki, ta'lim jarayonining umumiy va xususiy tomonlari bor. Ta'limning umumiy tomonini umumiy didaktika, xususiy tomonini xususiy didaktika urganadi.

Umumiy didaktika ukituvchi va ukuvchi faoliyatining o'zaro ta'sirini o'rganadi, va u barcha o'quv fanlari uchun aloqadordir. «Ona tili o'qitish metodikasi» umumiy didaktika bo'yicha o'rganilganlarni oydinlashtiradi: ya'ni umumiy didaktikadan o'rganilgan ta'lim maqsadi qonuniyatlari, tamoyillari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarning ona tilini o'qitish jarayonida voqealanishini aniqlaydi.

Modomiki, shunday ekan. «Ona tili o'qitish metodikasi» fani didaktikasiga tayanib ish ko'radi. Chunonchi, ona tili o'qitish tamoyillari yoki metodlari xususida fikr yuritilar ekan, avvalo umumdidaktik prinsiplar va meodlar, keyin xususiy prinsiplar va metodlarga to'xtalishga to'g'ri keladi.

«Ona tili o'qitish metodikasi» fanining psixologiya bilan aloqasi. Ta'limni tashkil etish, o'qitish bola psixologiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bu aloqadorlik avvalo

o'quvchilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq. O'rganilgan til hodisalarini qiyoslash yoki ularni o'xshash va farqli tomonlariga qarab guruhlash, umumlashtirish, hukm va xulosalar chiqarish shaxsning aqliy faoliyati bilan bog'liq bo'lib, xotira, tafakkur, xayol singari individual psixik xususiyatlarga tayanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning shaxsiy psixik xususiyatlarini bilishi va unga tayanib ish ko'rishi lozim.

Akademik Pavlovning assosatsiyasi (aloqa bog'lanish) haqidagi ta'limoti ona tili ta'limida muhim o'rin egallaydi. Agar til hodisalari orasidagi aloqadorlikka asoslanilmasa, o'quvchi tilni bir butun sistema sifatida qabul qila olmaydi. Yangi o'quv materialni oldin o'rganilganlar bilan bog'lash bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash imkoniyatini beradi. Bu esa ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun asosdir.

Hozirgi zamon psixologiyasi bilim olishda extiyojni zaruriyat deb biladi. Bu ta'limot ona tili mashg'ulotlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi o'z so'z zaxirasini oshirishga, so'zdan foydalanishga, har xil nutqiy vaziyatlarga ehtiyoj sezmasa, tilni o'rganishga qiziqmaydi, unga zaruriyat sezmaydi.

Psixologik nuqtai nazardan shaxsning o'z ona tilini bilishi uni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muloqot, dars jarayonida tuzilgan og'zaki va yozma matnlar, o'tkaziladigan savol-javoblar rivojlanishni ta'minlovchi omillardir.

Ona tili ta'limining hozirgi bosqichida-test topshiriqlariga talab oshgan bir davrda o'quvchilarda kom'pyuter bilan ishlash psixologiyasini tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu dars mashg'ulotlarida kom'pyuter xizmatidan uzluksiz foydalanish orqali qo'lga kiritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. X.Ne'matov, A.G`ulomov. Maktabda til sathlarini o`zaro bog`lab o`rganish. Toshkent. 1992 yil.
2. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, " Til va adabiyot ta`limi" jurnali. 1993 yil 3-4 qo`shma soni. 27-30 betlar.
3. Yu. K.Babanskiy. Hozirgi zamon umumiy ta`lim maktabida, o`qitish metodlari. Toshkent. " O`qituvchi" 1990 yil.
4. M.Mahmutov. Maktabda muammoli ta`limni tashkil qilish. Toshkent. "O`qituvchi" 1981 yil.
- M.Saidov. Muammoli ko`rgazmalardan foydalanish. " Til va adabiyot ta`limi" jurnali. 1993 yil. 5-6 qo`shma soni. 13-14 betl

**ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА В ВОЕННЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

Тилаволдиев Шахобиддин Холдарович
Мадалиев Рахмиддин Исмаилович
Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье излагаются основные положения организации учебного процесса военных образовательных организаций.

Ключевые слова: подготовка специалистов, развитие системы, учебный процесс, преподавательский состав, основополагающие принципы, критерии качества, основные факторы усвоения знаний.

Значительные противоречия, возникшие и накопившиеся за последнее время по вопросам обеспечения необходимого качества подготовки специалистов высшей профессиональной квалификации, выдвигают на первый план проблематику обоснования новых методов управления образовательным процессом. Особенно это актуально для военных факультетов и кафедры, находящиеся в системе высшего образования. В этом случае все учебные мероприятия образовательного процесса, в том числе, и самостоятельная подготовка, регламентируются руководством учебного заведения и ведомственными нормативно-правовыми актами. В таких системах, мера ответственности за результат, в первую очередь, лежит на управляющем органе, так как обучающимися не выбираются действия по собственному усмотрению. Они обязаны следовать указаниям, определяемым учебными планами.

Исходя из этого, получение соответствующего качества подготовки специалистов может обеспечиваться только в условиях тотальной управляемости образовательным процессом. При этом, если применяемый метод управления определен без учета всей совокупности воздействующих факторов, трудно говорить о предсказуемости и гарантированности результатов подготовки специалистов высокой профессиональной квалификации, то есть, о формировании компетенций, определяемых соответствующими документами. Общеизвестно, что для эффективного функционирования система управления образовательным процессом должна опираться на аппарат теоретического обеспечения целевых управляющих воздействий и организацию обратной связи. В отсутствие теоретически обоснованных прямых и обратных связей между органом управления и объектом управления сложно говорить о возможности эффективного функционирования образовательного процесса, и тем более, о разработке новых методов управления. Необходимо также не забывать об использовании творческого подхода к совершенствованию системы управления.

Прежде чем рассмотреть существующую организацию образовательного процесса, необходимо точно определить, что понимается под категорией «образовательный процесс». Образовательный процесс представляется как привитие

обучающимся в ходе обучения конкретных морально-психологических, физических, профессиональных и других качеств, которые, составляя определенные компетенции, в совокупности формируют феномен специалиста конкретной квалификации (направленности), отвечающий предъявляемым к нему требованиям в любой социокультурной среде. Следовательно, образовательный процесс в военных факультетах должен быть организован таким образом, чтобы в ходе обучения каждый обучающийся сформировался как носитель феномена специалиста конкретной квалификации (направленности), т.е., обладал соответствующим комплексом компетенций, предусмотренных программой подготовки кадров, позволяющих ему решать задачи в соответствии с предназначением на определенном уровне, отвечающем квалификационным требованиям.

Подготовка военных специалистов в системе высшего образования организована в соответствии с законодательными актами, регламентирующими военное образование. При этом деятельность военных факультетов регламентируется, как соответствующими профильными министерствами, так и Министерством высшего и специального образования Республики Узбекистан.

Согласно требованиям профильных министерств и Министерством высшего и специального образования Республики Узбекистан на военные факультеты возлагаются следующие основные задачи:

- подготовка для войск квалифицированных специалистов с высшим образованием, научно педагогических и научных кадров высшей квалификации;
- удовлетворение потребности обучающихся в интеллектуальном, культурном и нравственном развитии, в приобретении высшего или послевузовского профессионального образования, повышение квалификации в избранной области профессиональной деятельности.

Исходя из вышеприведенных задач, органами управления проводится комплекс мероприятий по организации образовательного процесса, который в общем виде включает:

- комплектование военных факультетов научно-педагогическими кадрами (обучающими) и формирование на этой основе структурных научно-педагогических подразделений (кафедр, циклов, лабораторий и т.д.); - комплектование переменным составом (обучающимися) и формирование на этой основе структурных учебных подразделений (факультетов, учебных групп);
- формирование соответствующей системы управления, включающей определенные органы управления (отделы, группы управления и т.д.); - организацию обучения и воспитания обучающихся, то есть разработку учебных планов, программ, методических и дидактических материалов, в т.ч. определение необходимых учебных дисциплин и соответствующей тематики учебных занятий;
- создание учебной материально-технической базы военной образовательной организации и её совершенствование.

Организация образовательного процесса происходит в определенной внешней среде, воздействие которой осуществляется, в основном, в таких аспектах, как уровень подготовки абитуриентов, набираемых для обучения, и их побудительная направленность к обучению; уровень подготовки научно-педагогического и руководящего состава и их побудительная направленность к педагогической, управленческой и научной деятельности; наличие учебной материально-технической базы и состояние финансирования вуза и т.д.

Организация образовательного процесса в военных факультетах базируется на основополагающих принципах высшего военно-специального образования, которые можно сформулировать следующим образом:

- принцип последовательности, то есть, накопление знаний обучающимися на всех без исключения этапах обучения;

- принцип беступиковости, предполагающий организацию образовательного процесса в виде определенных образовательных этапов, каждый из которых является промежуточной ступенью для обретения новых образовательных возможностей;

- принцип непрерывности, т.е. образовать у военного специалиста конкретную, системно связанную структуру знаний, умений и навыков, а так же других свойств, формирующих компетенции, соответствующие требованиям квалификационных характеристик;

- принцип политехнизма, предполагающий ориентацию на усвоение общих и фундаментальных научных законов, лежащих в основе деятельности специалиста;

- принцип опережающей подготовки специалиста, ориентирующий образование на потенциальные возможности развития техники и систем управления;

- принцип неразрывности, определяющий непрерывную взаимосвязь обучения и воспитания в ходе образовательного процесса;

- принцип непрерывной гуманизации, требующий рационального совмещения гуманитарных, технических и специальных дисциплин на всех этапах образовательного процесса.

Анализ документов по руководству военно-профессиональным образованием в военных факультетах показал, что в настоящее время образовательный процесс в них организован с учётом современных требований педагогики и позволяет обеспечивать потребность в специалистах с военно-специальным образованием для комплектования должностей руководителей ДПЮ в учебных заведениях. Однако, статистические сведения, основанные на отзывах о подготовке специалистов, говорят о невысоком качестве их подготовки, о тенденции снижения качества подготовки выпускников в последние годы.

Следовательно, в существующей организации образовательный процесс в военных факультетах обеспечивает только количественные показатели подготовки специалистов, в отдельных случаях за счет снижения качественных показателей. Требования об обеспечении приоритетности качества подготовки специалистов

являются основополагающими при решении вопросов организации образовательного процесса.

Существующая организация образовательного процесса в недостаточной мере привлекает специалиста качества, которые ему необходимы: для реализации себя как руководителя коллектива; для ведения служебной документации; для высокой самоорганизации при выполнении служебных обязанностей; для проведения занятий по подготовке молодежи к военной службе; для репродуцирования полученных теоретических знаний в процессе служебной деятельности.

Таким образом, из анализа сведений о работе выпускниками военной образовательной организации следует, что существующая организация образовательного процесса не в полной мере отвечает требуемому качеству подготовки специалистов. Исходя из вышеизложенного, необходимо провести более подробный анализ организации образовательного процесса с целью установить наиболее весомые факторы, влияющие на его эффективность.

9. Шамаев, М. К. ., Ахмадов, А. У. ., Рахматуллаев, И. М. ., & Тоштемиров, У. Т. . (2022). ИЗВЕСТНЯК В ПРИРОДЕ, ТЕХНОЛОГИЯ ПРОИЗВОДСТВА И НЕКОТОРЫЕ ИХ СВОЙСТВА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ. ARHITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI, 1(4), 26-30. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4911>
10. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли, Қулмонбетов Асадбек Юсуфали ўғли. КОНТУРНОЕ ВЗРЫВНИЕ ПРИ ПОДЗЕМНЫХ ГОРНЫХ РАБОТ. Журнал «Новости образования: исследование в XXI Том 1 № 4 (2022). <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1321>
11. CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH. Искандар Махмуд ўғли Рахматуллаев
12. Разработка эффективный способа буровзрывных работ обеспечивающий проектный сечения горизонтальных подземных горных выработок (pp. 63-67). <https://caajsr.uz/storage/app/media/2-3.%20012.%2063-67.pdf>
13. Рахматуллаев Искандар Махмуд ўғли. Напряженное Состояние Горного Массива И Факторы, Влияющие На Механические Свойства Горных Порода. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES 2022/6. 65-69 ст. <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/612>
14. Регулирование режима горных работ и экономические показатели планирования Б.Ш. Шакаров, И.М. Рахматуллаев - Uz ACADEMIA, 2021.

**КВАНТ ТЕЛЕПОРТАЦИЯ ВА КВАНТ ЧИГАЛЛИК ҲАҚИДА НИМАЛАРНИ
БИЛАМИЗ?****А.А. Махмудов***Тошкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси***А.М. Худайбергенов***доцент*

Аннотация: Ушбу мақолада физика фанига кириб келган квант телепортация квант чигаллик жараёнлари ҳақида фикр юритилади.

Аннотация: В этой статье обсуждаются процессы квантовой телепортации и квантовой запутанности в физике.

Annotation: This article discusses the processes of quantum teleportation and quantum entanglement in physics.

Калит сўзлар: телепортация, квант телепортация, Эйнштейн-Подольский-Розен парадокси, Давид Клишко, бифотонлар, бифотонлар жуфтлиги, Элис, Боб, Стивен.

Ключевые слова: телепортация, квантовая телепортация, парадокс Эйнштейна-Подольского-Розена, Давид Клишко, бифотоны, бифотонные пары, Алиса, Боб, Стивен.

Key words: teleportation, quantum teleportation, Einstein-Podolsky-Rosen paradox, David Klishko, biphotons, biphoton pairs, Alice, Bob, Steven.

Илм-фаннинг ривожланиши натижасида физика фанида телепортация ва квант чалкашлик ёки чигаллик тушунчалари пайдо бўлди. Ушбу тушунчалар кўпроқ микроолам физикасига, янада аниқроқ айтиладиган бўлса квант физикага оид тушунчалар ҳисобланади. Бу мақолада ана шу тушунчалардан бири-квант телепортация тушунчаси билан танишиб ўтамиз. Телепортация - объектларнинг исталган масофага бир лаҳзада ҳаракатланиш жараёнидир. Савол туғилади, бирор моддий объектни бир лаҳзада фазонинг бир нуктасидан ихтиёрий масофадаги бошқа нуктага ўтказиш мумкинми? Чунки бизнинг цивилизациямизда энергия етарли эмаску. Ушбу саволнинг жавоби ҳа, ўтказиш мумкин. Аммо ушбу фикрни инсон онги қабул қила олмайди, сабаби бундай бўлиши мумкин эмас. Агар телепортация амалга оширилса, нисбийлик назариясининг иккинчи постулати бузилади. Яна савол туғилади, у ҳолда телепортацияни қандай тушунтириш мумкин?

Замонавий фан моддий объектларнинг телепортациясини эмас, балки квант телепортациясини ўрганади. Ушбу иккала телепортация бир-бирига ўхшамайди. Бир пайтлар Эйнштейнга квант механикаси умуман ёқмасди. Умумий қилиб айтганда, квант механикаси коинотдаги энг кичик жисмлар, яъни атомлар, электронлар, фотонлар ва зарралар ҳақидаги фан ҳисобланади. Физикада Эйнштейн-Подольский-Розен парадокси мавжуд. Унинг маъноси шундаки, квант механикаси коинотнинг чекка қисмларидаги системаларга ўз ҳаракатларини бир зумда мувофиқлаштиришга

имкон беради. Бу қандай ишлайди? Буни тушунтириш учун спин векторларининг йўналиши ҳар хил бўлган иккита электронни олайлик. Биринчи электрон спининг йўналиши юқорига, иккинчисининг спини пастга йўналган ёки аксинча бўлган иккита шундай ҳолатни ҳосил қилиш мумкин. Агар бу электронлар бирдан маълум масофага узоқлаштирилса ва бу ҳолда спинларнинг йўналиши аниқланса, кўриш мумкинки, иккинчи электрон ҳам юқорига йўналган спинга эга бўлади. Биринчи электрондан иккинчи электронга маълумот ҳатто ёруғлик тезлигидан катта бўлган тезликда етиб келади.

80-йилларнинг охирида Москва давлат университетида квант телепортация бўйича биринчи тажрибалар ўтказилди. Унга Давид Клишко бош бўлди. У тажрибаларда бифотонлардан фойдаланишни таклиф қилди. Бифотонлар-бир-бири билан биргаликда яшовчи, битта кристаллдан туғилган икки фотон ёки ёруғлик квантларидан ташкил топган система ҳисобланади. Ушбу ҳолат электронлар ёки бифотонлар жуфтлигининг чалкаш ҳолатда бўлишига олиб келади. Бошқача қилиб айтилса, квант чалкашлик (чигаллик) содир бўлади.

"Квант чигаллик" тушунчаси квант механикаси тенгламаларидан келиб чиқадиган назарий фараздан пайдо бўлган. Бу шуни англатадики, агар иккита квант зарралари (улар электронлар, фотонлар бўлиши мумкин) ўзаро боғлиқ, яъни чалкаш бўлиб чиқса, у ҳолда улар коинотнинг турли қисмларида бир-бирдан ажратилган бўлса ҳам, улар ўртасидаги алоқа сақланиб қолади. Бу эса квант механикаси квант механикаси постулатларининг тўғрилигини исботлайди.

Агар жуфтликка кирган зарралар бир-бирдан маълум бир каттароқ масофага узоқлаштирилган бўлса ҳам уларнинг чигал ҳолатда қолиши муҳим аҳамият касб этади. Бундан шу нарса келиб чиқадики, квант механикаси постулатлари экспериментал тасдиқлаш нуқтаи-назаридан тўғри экан. Квант телепортацияни куйидагича тушунтириш мумкин. Тасаввур қилинг, Элис ва Боб бор, анъанавий равишда барча квант муаммоларида учрайдиган икки персонаж. Фараз қилайлик, Элиснинг юқорига йўналган спинли зарраси-электрони бўлсин, лекин Бобда эса ҳеч қандай зарра йўқ. Элис ҳақиқатан ҳам Бобнинг зарраси бўлишини жуда хоҳлайди. Чалкаш ҳолатларни ҳосил қиладиган генератор(машина) олинади. У ёрдамида иккита зарралар ҳосил қилиниб, уларнинг биттаси Элисга, иккинчиси эса Бобга жўнатилади. Элис эса ўзига келган зарра устида ўлчашларни амалга оширади ва натижани Бобга хабар қилади. Боб эса ўз заррасининг ҳолатини Элисдаги зарранинг бошланғич ҳолатидаги ҳолатга ўтказди. Ушбу ўлчашлар натижасида Элиснинг зарраси ўз ҳолатини ўзгартиради ва бошқа ҳолатга ўтали. Боб эса Элиснинг зарраси ҳолатини тиклаши мумкин.

Мана шундай нарса, эътибор берилса юқорида баён этилган жараён оддийдек кўринади. Лекин ундай эмас, ҳамма нарса анча мураккабдир. Бу ерда моддий объект эмас, балки унинг ҳолати узатилмоқда. Ушбу далил квант телепортацияни илмий-фантастик романларда учрайдиган классик телепортациядан ажратиб туради.

Биз классик физика амал қиладиган оламда яшайпмиз. Маълумки, квант қонунлари микрооламда амал қилади. Савол туғилади, қандай қилиб умумий нисбийлик назариясини квант механика билан бирлаштириш мумкин? Бу иш амалга ошиши учун улар бир постулатдан келиб чиқиши керак, лекин бунинг иложиси йўқ. Квант объектларида квант телепортацияси содир бўлади. Моддий объектларда эса бундай телепортация кузатилмайди, чунки моддий объектлар ва квант объектлари бир хил нарса эмас. Моддий объектлар маълум массага ва параметрларга эга. Квант зарралар, яъни квантлар электромагнит нурланишнинг бир қисмидир. Улар маълум энергияга эга ва ёруғлик тезлигига тенг бўлган тезликда ҳаракатланадилар. Уларнинг массаси йўқ.

Квант телепортация аввалги асрнинг 90-йилларнинг бошларида оптик тажрибалар ёрдамида намойиш қилинди. Бироз вақт ўтар-ўтмас 1993 йилда физик Чарльз Беннет бошчилигида IBM тадқиқот марказида биринчи тажрибалар амалга оширилди. Бунда атомлардан фойдаланган ҳолда квант зарралари кўринишидаги телепортация намойиш қилинди. 2020 йилда Ферми лабораториясининг американик олимлари оптик телепортацияни намойиш қилдилар, улар квант зарраларни оптик толали тармоқлар орқали 44 км масофага телепортация қилишди. Албатта, бу масофани, яъни квант корреляция масофасини иложи борича ошириш керак.

Ҳозирги даврда квант технологияларининг глобал тенденцияси-портловчи ривожланиш тенденцияси мавжуддир. Ушбу квант технологияларини ишлаб чиқишга бўлган қизиқиш, зарралар жуфтлигининг узоқ муддатли чигал ҳолатини олиш ва уни бошқариш имкониятига эга бўлиш истагига асосланади. Бу муаммо квант телепортацияси, квант алоқаси ҳамда компьютернинг квант ҳисоблашлари учун долзарб бўлган муаммодир. Квант телепортациясининг ривожланиши ҳарбий ва давлат хавфсизлик хизматларининг қизиқишини кучайтиради. Нима учун квант телепортацияси ва квант технологиялари ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларини бунчалик қизиқтирди?

Улардан фойдаланиб, қуйидагиларни амалга ошириш мумкин: 1) шифрлаш кодларини бузиш; 2) ахборотларни эшитиш ёки эшитишни йўқ қилиш, яъни ахборотни ҳимоя қилиш; 3) ахборотни бошқалар умуман эшитмаслигини таъминловчи канални яратиш. Буларни амалга ошириш учун эса маълумот чигал ҳолатдаги фотонлар жуфтлиги орқали узатилиши зарур. Тахминан 5 йил олдин Хитойда ишлаб чиқилган Quantum Science Satallity QUESS лойиҳаси асосида биринчи сунъий йўлдош учирилди. Бундай сунъий йўлдошлар ўзлари учиб ўтган жойлардан маълумотни Ерга квант телепортацияси орқали узатади. Бу ҳолдаги квант телепортация оддий фотонлар жуфтлиги орқали амалга оширилади. Сунъий йўлдош ўзи учиб ўтган ердан ана шундай жуфтликларни юборади. Унда қуйидаги схема кўриб чиқилади: Элис Бобга бирор маълум маълумотни юборади. Ушбу маълумотни тинглаш ва билишни хоҳлаган Стивен учинчи шахс сифатида пайдо бўлади. Агар оддий алоқа мавжуд бўлса, Стивен Элис узатадиган маълумотни олиши ва тинглаши мумкин. Агар алоҳида олинган фотонлар юборилса, Стивен тутиб олиб, унинг

ҳолатини ўзгартириб, яна жараёнга қўйиб юборадиган ҳар бир фотонни Боб кузатиши мумкин бўлади,

Москва университетининг квант технологиялари марказида ривожланиб бораётган технология биринчи қадамдан сўнг Москва шаҳри доирасида ишлайдиган квант телефонини намойиш этди. Ушбу марказда квант технологияларини янада ривожлантириш учун катта куч ва маблағ сарфланади. Яна у ерда узок вақт яшайдиган квант чигал системаларни яратиш муаммоси ҳал қилинмоқда. Агар квант телепортацияси одатий ҳолга айланса ва мобил алоқа каби ҳаётга кириб келса, у келажакда ҳар бир инсоннинг ҳаётини белгилаб бериши мумкин бўлади. Бунинг натижасида инсонларнинг махфийлиги ва сирлари камроқ бўлади. Бу эса бошқача олам бўлади. Буни оддий инсонга қандай таъсир қилишини олдиндан айтиш қийин. Квант телепортациянинг ривожланиши моддий объектларнинг телепортацияси ғоясидан алоҳида бўлади. Инсон телепортациясини кутамизми? Бу ҳақида гапириш ҳали вақтликдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.М. Худайберганов, А.А. Махмудов. Атом физикаси, асосий тушунча, қонун, тажриба ва формулалар. Тошкент. Наврўз. 2018.
2. А.М. Худайберганов, А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг “Шредингер тенгламаси” мавзусини ўқитиш бўйича методик қўлланма. / Методик қўлланма. -Тошкент, Зилол булоқ, 2019. -726.
3. P. Ewart. Atomic physics. Atomic physics lecture notes final. 1990.
4. Телепортация – от фантастики к реальности. Что такое квантовая телепортация и квантовая запутанность. <https://www.youtube.com/watch?v=yfdAE6Jl-2Y>.
5. А.А. Махмудов. Эрвин Шредингернинг илмий фаолияти қандай бўлган? // XXXXVI Международной научной –практической интернет-конференция. Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации. – Переяслав-Хмельницкий, 27 апреля 2019 года. –С.221-27.
6. А.А. Махмудов. Что должны знать студенты технических учебных заведений об атоме? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы III Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 8 апреля 2019 года. –С.140-45.
7. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Атом физикасининг “Резерфорд тажрибалари ва формуласи” мавзусини ўқитишда “Аукцион” дидактик ўйиндан фойдаланиш методикаси // Физиканинг ҳозирги замон таълимидаги ўрни. Республика илмий – амалий анжумани материаллари. –Самарқанд, 13-14- декабр 2019 йил. –Б.36-38.
8. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Известна ли нам революция, которую совершил Планк? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы IV

Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 6 апреля 2020 года. –С.106-10.

9. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Роль дидактических игр при преподавании курса общей физики в высших учебных заведениях // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы V Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 8 апреля 2021 года. –С.133-38.

10. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Что надо понимать под термином “Квантование” в общей физике? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы VI Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 14 апреля 2022 года. –С.103-10.

11. А.А. Махмудов. Умумий физика курси дарсларида «Физик суд» ва «Шахмат эстафетаси» дидактик ўйинларини ўтказиш методикаси// Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. –Фарғона, 2022. – №19. –Б.582-86.

12. А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг «Комптон эффекти» мавзусини педагогик технологиянинг «ФСМУ» ва «Венн диаграммалари» методларидан фойдаланиб ўқитиш.//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали.– Фарғона, 2022. – №21. –Б.267-70.

13. А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг "Водород атоми спектрлари ва улардаги қонуниятлар" мавзусини "Шартнома" дидактик ўйинидан фойдаланиб ўқитиш методикаси//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали.– Фарғона, 2022. – №22. –Б.336-40.

14. А.А. Махмудов. Атом физикасининг «Квантлаш тушунчаси, доиравий орбиталарни квантлаш» мавзусини ўқитишда педагогик технологиянинг «БББ» методидан фойдаланиш методикаси//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. – Фарғона, 2022.– №23. –Б. 377-80.

15. А.А. Махмудов. Атом физикасининг «Рентген нурлари» мавзусини ўқитишда инновацион педагогик технологиянинг «БББ» методидан фойдаланиш методикаси// Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. – Фарғона, 2022. – №24. –Б.313-16.

16. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Атом физикасини «Водород атомининг Бор назарияси» мавзусининг ўқитиш методикасини такомиллаштиришда инновацион педагогик технология методлари ва дидактик ўйиндан фойдаланиш// International scientific-practical conference on "Modern education: problems and solutions". France. – Vol.1– No.5(2022). – P.126-32.

17. А.А. Makhmudov, А.М. Khudayberganov. Use of innovative technologies in improving the methodology of teaching the subject of atomic physics “Schrodinger's equation” in higher education institutions//United States American Conference “Principal issues of scientific research and modern education”. –Vol.1 –No.9(2022). –P.73 -77.

18. А.А. Makhmudov, А.М. Khudayberganov. Analysis of the level of coverage of topics expressing Bohr's theory of the hydrogen atom in educational literature// International

Scientific online conference “Innovative developments and research in education”. – Canada(Ottava). –Vol.1 –No.8(2022). –P. 85 -92.

19. A.A. Махмудов, А.М. Худайберганов. Мослик принципи хақида нималарни билишимиз керак? // Иждокор ўқитувчи илмий-услубий журнали. – Фарғона, 2023. – №25. –Б.118-22.

20. A.A. Махмудов, А.М. Худайберганов. Олий таълим муассасаларида атом физикасининг «Штарк эффекти» мавзусини ўқитишда инновацион педагогик технология методларидан фойдаланиш//Иждокор ўқитувчи илмий-услубий журнали. – Фарғона, 2023. – №25. –Б.123-25.

21. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. What is the significance of conducting didactic games in teaching atomic physics courses in higher education // International journal of innovations in engineering research and technology. – VOLUME 7, ISSUE 6, June-2020. – P.116-20.

22. A.A. Makhmudov, A.M.Khudayberganov. What should a future physics teacher know about the history of the atom and its development? // Вестник науки и образование. – Иваново, 2018. –15(51), №5, С.74-78.

23. A.A. Махмудов. Методика преподавания темы «Опыты Резерфорда.

Формула Резерфорда» раздела атомной физики общего курса физики // Физическое образование в вузах. –Москва, 2018. – Т. 24, № 4, –С.113-21

24. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Photoelectric effect"//Journal of Advanced Research and Scientific Progress. –Germany.–Vol.1 – Issue 6 (2022). –P.56 -59.

25. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Compton effect"// International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. –Germany. –Vol.1 –Issue 6 (2022). –P.141 -45.

26. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Rutherford's experiments and Rutherford's formula"// Current Research Journal of Pedagogics. –USA. – Vol.3 –Issue 12(2022). –P.31-35

27. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Methods of theoretical teaching the topic "Compton effect" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions// International Journal of Education, Social Science & Humanities. – Finland. –Vol.11 –Issue 1(2023). –P.123-31.

28. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Teaching methodology of the topic "Stark effect" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions//American Journal of Research . –USA. –Vol.1 –Issue 2(2023). – P.19-26.

29. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Methods of teaching the topic "Bohr's postulates" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions // European Journal of Innovation in Nonformal Education. – Belgium. –Vol.1 –Issue 2(2023). –P.29-38.

30. А.М. Худайберганов. Олий таълим муассасаларида ўқитиладиган умумий физика курсида ўтказиладиган дидактик ўйинларнинг аҳамияти нимадан иборат? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №19. Б.572-77.

31. А.М. Худайберганов. Умумий физика курсидаги тўлқин функция тушунчасини киритишда эҳтимолий-статистик ғояларнинг роли. Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №21. Б.261-66.

32. А.М. Худайберганов. Квант атом физикасини тушунтиришда квант механик операторларнинг роли. Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №22. Б.331-35.

33. А.М. Худайберганов. Нильс Борнинг атом физикасининг ривожланишига қўшган ҳиссасини биласизми? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №23. Б.373-77.

34. А.М. Худайберганов. “Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг “Шредингер тенгламаси” мавзусини ўқитиш бўйича методик қўлланма” номли методик қўлланманинг мазмуни нимадан иборат? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №24. Б.325-28.

35. Б. А. Мирсалихов, Ш.Н. Сайтджанов. Значение принципа организации в преподавании строения атома и ядра на основе междисциплинарных информационных технологий. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. 1(4). 2022. 72-76.

36. Ш.Н. Сайтджанов, Ш.Б. Юсупов. Инновацион таълим технологиясини қўллаш орқали изчиллик принципини татбиқ этиш (физика-математика фанлари мисолида). Журнал физико-математические науки. 2022. 3(1).

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА «АТОМ ФИЗИКАСИ» БЎЛИМИНИНГ «ФРАНК-ГЕРЦ ТАЖРИБАЛАРИ» МАВЗУСИНИНГ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

А.А. Махмудов

Тошкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси

А.М.Худайбергенов

доцент

Аннотация: Ушбу мақолада «Атом физикаси» бўлимининг «Франк-Герц тажрибалари» мавзусининг ўқитиш методикасини инновацион педагогик технологиянинг баъзи методларидан фойдаланиб такомиллаштириши йўллари ҳақида фикр юритилади.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути совершенствования методики преподавания темы «Опыты Франка-Герца» раздела «Атомная физика» с использованием некоторых методов инновационной педагогической технологии.

Annotation: This article discusses ways to improve the methodology of teaching the topic "Experiments of Frank-Hertz" of the section "Atomic Physics" using some methods of innovative pedagogical technology.

Калит сўзлар: постулат, Бор постулатлари, Франк, Герц, Франк-Герц тажрибалари, тиратрон, уйғониш потенциали, критик потенциал.

Ключевые слова: постулат, постулаты Бора, Франк, Герц, опыты Франка-Герца, тиратрон, потенциал возбуждения, критический потенциал.

Key words: postulate, postulates of Bohr, Frank, Hertz, experiments of Frank-Hertz, thyatron, excitation potential, critical potential.

Маълумки, Нильс Бор биринчи бўлиб физикага дискрет энергия ва ҳолат тушунчаларини олиб кирган. Ушбу тушунчалар квант физика ва механиканинг ривожланишида катта аҳамият касб этди. Ушбу тушунчаларни у ўзининг постулатлари орқали киритди. Бор постулатларининг тўғрилигини тажрибада текшириш зарур эди. Бу ишни Франк ва Герц 1913 йилда амалга ошириб, тажриба ўтказдилар.

Аввал ана шу тажрибанинг мазмунини тўғрисида қисқача маълумот келтирамиз. Франк-Герц тажриба қурилмасининг асосий қисмини лампали триод тимсоли бўлган уч электродли шиша трубка ташкил қилади. Бу трубка газ, яъни симоб буғлари билан тўлдирилган. Бундай трубкага тиратрон дейилади. Трубкадаги газнинг босими 1 мм сим. уст. ни ташкил қилган.

Франк-Герц тажрибасининг ғояси қуйидагидан иборат. Катоддан учиб чиққан электронлар катод-тўр орасидаги электр майдонга келиб тушадилар ва бу майдонда тезлашиб тўр томон ҳаракат қиладилар. Катод ва тўр орасидаги кучланиш тезлатувчи кучланиш вазифасини бажаради. Тўрдан ўтган электронлар тўр-анод орасидаги электр майдонга келиб тушадилар. Бу майдон тезлатувчи майдонга нисбатан қарама-қарши

йўналишга эга бўлганлиги учун электронлар бу майдонда тормозланадилар. Тўр-анод орасидаги кучланиш тормозловчи кучланиш вазифасини бажаради. Демак, тезлатувчи ва тормозловчи кучланишларнинг қийматларига қараб, электронлар анодга етиб борадилар ва занжирдаги гальванометрда анод токи ҳосил бўлади ёки тўр-анод майдонида тормозланиб тўрда тутилиб қоладилар.

Катод-тўр орасидаги электронлар шиша трубкадаги газ атомлари билан эластик ёки ноэластик тўқнашадилар. Эластик тўқнашишлар вақтида электронларнинг кинетик энергиялари ўзгармайди, уларнинг тезлик векторларининг йўналиши ўзгаради. Тезлик векторларининг модуллари эса атом массаси электрон массасидан анча катта бўлганлиги сабабли ўзгармайди. Ана шу электронлар катод-тўр электр майдонида тезлашиб, тўр томон ҳаракатланадилар. Трубкадаги газнинг босими 1 мм сим. уст. бўлганлиги учун, катоддан учиб чиққан электронлар катод-тўр оралиғида симоб буғлари атомлари билан тўқнашадилар. Франк ва Герц тормозловчи кучланиш сон қийматини ўзгармас 0,5-2 В қилиб танлашди. Шу туфайли анод токи тезлатувчи кучланиш тормозловчи кучланишдан катта бўлган заҳотиёқ пайдо бўла бошлади.

Франк-Герц тажрибаларининг натижалари 4 йилдан сўнг, яъни Бор назарияси олимлар томонидан тан олинганидан сўнг тўғри талқин қилинди ва Франк-Герц тажрибалари Бор постулатларининг тўғрилигини исботловчи биринчи тажрибалар эканлиги ҳам тан олинди. Бирор йўл билан атомдан бир ёки бир неча электронларни чиқариш процессига ионизация (ионлаштириш) дейилади. Франк-Герц тажрибаларида атомни ионлаштириш процессини эмас, балки уни уйғотиш процессини кузатиш мумкин экан. Унда симоб атомини ионлаштириш энергияси деб ҳисобланган энергия атомнинг биринчи уйғонган ҳолат энергиясини кўрсатади. Атом ёки ундаги электронни юқори энергетик ҳолатдан пастки энергетик ҳолатга ўтказиш, яъни атомни уйғотиш учун керак бўладиган минимал энергияга мос келувчи кучланишга уйғониш потенциали дейилади.

Икки қўшни уйғониш потенциаллари орасидаги фарққа резонанс ёки критик потенциал дейилади. Атомдаги электронларни чиқариш учун зарур бўладиган минимал энергияга мос келувчи кучланишга ионизация ёки ионлаш потенциали дейилади. Ҳар қандай физик системадан ташқарига чиқиш шу система учун физик чексизлик ҳисобланади. У ҳолда ионизация процессига қуйидагича ҳам таъриф бериш мумкин. Атомдан бир ёки бир неча электронларни физик чексизликка чиқариш процессига ионизация дейилади.

Атомдан бир ёки бир неча электронларни физик чексизликка чиқариш учун зарур бўладиган минимал энергияга мос келувчи кучланишга шу атомнинг ионлаш ёки ионизация потенциали дейилади. Франк-Герц тажрибалари атом тузилиши назариясини ривожлантириш учун экспериментал асос бўлиб хизмат қилди. 1925 йил қилган ишлари учун Франк-Герц Нобель мукофоти билан тақдирландилар.

Франк-Герц тажрибалари тўғрисида ана шу маълумотларни билганимиздан кейин, ушбу мавзунини олий таълим муассасаларида ўқитиш методикасини такомиллаштириш йўллари билан танишиб ўтса бўлади. Бунинг учун инновацион

педагогик технологиянинг баъзи методларини қўллаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Ана шундай методлардан бири «Қора қути» методидир. Мазкур методни қўллашдан мақсад, талабалар томонидан атом физикасига оид мавзунини пухта ўзлаштиришга эришиш билан бирга уларни актив бўлишга ундаш, улар билан ҳамкорликда ишлаш, маълум вазиятларни бошқариш ҳамда мантикий тафаккур юритиш кўникмаларини шакллантиришдан иборат. Методдан фойдаланишда қуйидаги ҳаракатлар амалга оширилади:

1) талабалар жуфтликка бириктириладилар;

2) жуфтликларга мавзу моҳиятини ёритувчи асосий тушунчалар (таянч сўзлар, саналар, рақамлар, белгилар ва ҳ.к.)ни карточкаларга қайд этиш вазифаси юкланади:

3) ўқитувчи талабалар билан ҳамкорликда гуруҳлар томонидан топшириқнинг бажарилиши текширилади;

4) топшириқни тўғри бажарган гуруҳнинг бир аъзоси ўқитувчи ролини бажаради ва топшириқнинг ечимини доскага ёзади;

5) талабалар доскада қайд этилган фикрни шарҳлайдилар (таянч сўзлар, саналар, рақамлар, белгилар қандай маънони англатишини айтадилар);

6) тўғри жавоб берган талабалар ўқитувчи ролини бажариб, жуфтликларга мавзу моҳиятини ёритувчи шакл, жадвал ёки тасвир яратишини топширадилар ва ўқитувчи ёрдамида топшириқнинг бажарилишини текширадилар.

«Қора қути» методи бўйича «Франк-Герц тажрибалари» мавзусини ўқитишда жуфтликларга бериладиган ва уларнинг карточкаларида қайд этиладиган таянч сўзлар, саналар, рақамлар, белгиларга қуйидагилар кириши мумкин: Герц, Франк, критик потенциал, 1913 йил, 1925 йил, уйғониш потенциали, Бор постулатлари, ионлаш, тиратрон, ионлаш потенциали, тезлатувчи потенциал, тормозловчи потенциал. «Франк-Герц тажрибалари» мавзусини ўқитишда мавзу моҳиятини ёритувчи шаклнинг қуйидагича бўлиши мақсадга мувофиқдир: 1) Бор постулатлари; 2) Франк-Герц; 3) Франк-Герц тажрибалари; 4) 1913 йил; 5) тиратрон; 6) уйғониш потенциали; 7) критик потенциал; 8) ионлаш; 9) ионлаш потенциали; 10) 1925 йил.

«Франк-Герц тажрибалари» мавзусининг ўқитиш методикасини такомиллаштиришда қўлласа бўладиган педагогик технологиялардан яна бири «Бешинчиси (олтинчиси, еттинчиси, ...) ортиқча» методи ҳисобланади. Уни қўллашда қуйидаги ҳаракатлар амалга оширилади:

1) ўрганилаётган мавзу моҳиятини очиб беришга хизмат қилувчи тушунчалар системаси шакллантирилади;

2) ҳосил бўлган системадан мавзуга тааллуқли бўлган тўртта (бешта, олтита, ...) тушунчанинг ўрин олишига эришилади;

3) талабаларга мавзуга тааллуқли бўлмаган тушунчаларни аниқлаш ва уларни системадан чиқариб юбориш вазифаси топширилади;

4) талабаларни ўз ҳаракатлари моҳиятини шарҳлашга ундалади (мавзунини мустаҳкамлаш мақсадида талабалардан системада сақланиб қолган тушунчаларга

ҳам изоҳ бериб ўтишлари ҳамда улар ўртасидаги мантиқий боғлиқликни асослашлари талаб этилади).

Мавзу моҳиятини ёритувчи тушунчалар ўртасидаги мантиқий боғлиқликни кўрсата оладиган ва уларни асослайдиган талабаларда мустақил фикрлаш, шахсий ёндашувларни асослай олиш, шунингдек, тенгдошларининг фикрлари билан шахсий мулоҳазаларини ўзаро таққослаш кўникмаларини ҳам ушбу метод шакллантиради.

«Франк-Герц тажрибалари» мавзусини шу метод ёрдамида ўқитишда мавзу моҳиятини ёритувчи шакллантирилган ва ортиқча тушунчалар системасига мисол тариқасида қуйидагиларни келтириш мумкин: Шредингер, Бор постулатлари, 1920 йил, Франк-Герц, 1913 йил, тиратрон, уйғониш потенциали, Дэвисон-Жермер, критик потенциал, 1925 йил. Олий ўқув юрти талабалари ушбу тушунчалар ичидан мавзу моҳиятини ёритувчи шакллантирилган қуйидаги тушунчаларни ажратиб олишлари зарур бўлади: Бор постулатлари, Франк-Герц, 1913 йил, тиратрон, уйғониш потенциали, критик потенциал, 1925 йил.

«Франк-Герц тажрибалари» мавзусининг ўқитиш методикасини такомиллаштиришда юқорида келтириб ўтилган методлардан фойдаланиш олий таълим муассасалари талабаларининг ушбу мавзу бўйича олган билимларини мустаҳкамлайди ҳамда шу мавзу бўйича кўникма ва малакаларни ҳосил бўлишига ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. А.М. Худайберганов, А.А. Махмудов. Атом физикаси, асосий тушунча, қонун, тажриба ва формулалар. Тошкент. Наврўз. 2018.

2. А.М. Худайберганов, А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг “Шредингер тенгламаси” мавзусини ўқитиш бўйича методик қўлланма. / Методик қўлланма. –Тошкент, Зилол булоқ, 2019. –72б.

3. А.А. Махмудов. Эрвин Шредингернинг илмий фаолияти қандай бўлган? // XXXXVI Международной научной –практической интернет-конференция. Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации. – Переяслав-Хмельницкий, 27 апреля 2019 года. –С.221-27.

4. А.А. Махмудов. Что должны знать студенты технических учебных заведений об атоме? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы III Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 8 апреля 2019 года. –С.140-45.

5. А.А. Махмудов, А.М. Худайберганов. Атом физикасининг “Резерфорд тажрибалари ва формуласи” мавзусини ўқитишда “Аукцион” дидактик ўйиндан фойдаланиш методикаси // Физиканинг ҳозирги замон таълимидаги ўрни. Республика илмий – амалий анжумани материаллари. –Самарқанд, 13-14- декабр 2019 йил. –Б.36-38.

6. А.А. Махмудов, А.М. Худайбергенов. Известна ли нам революция, которую совершил Планк? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы IV Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 6 апреля 2020 года. –С.106-10.

7. А.А. Махмудов, А.М. Худайбергенов. Роль дидактических игр при преподавании курса общей физики в высших учебных заведениях // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы V Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 8 апреля 2021 года. –С.133-38.

8. А.А. Махмудов, А.М. Худайбергенов. Что надо понимать под термином “Квантование” в общей физике? // Молодежная наука: вызовы и перспективы. Материалы VI Международной научно-практической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. –Макеева, 14 апреля 2022 года. –С.103-10.

9. А.А. Махмудов. Умумий физика курси дарсларида «Физик суд» ва «Шахмат эстафетаси» дидактик ўйинларини ўтказиш методикаси// Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. –Фарғона, 2022. – №19. –Б.582-86.

10. А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг «Комптон эффекти» мавзусини педагогик технологиянинг «ФСМУ» ва «Венн диаграммалари» методларидан фойдаланиб ўқитиш.//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали.– Фарғона, 2022. – №21. –Б.267-70.

11. А.А. Махмудов. Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг "Водород атоми спектрлари ва улардаги қонуниятлар" мавзусини "Шартнома" дидактик ўйинидан фойдаланиб ўқитиш методикаси//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали.– Фарғона, 2022. – №22. –Б.336-40.

12. А.А. Махмудов. Атом физикасининг «Квантлаш тушунчаси, доиравий орбиталарни квантлаш» мавзусини ўқитишда педагогик технологиянинг «БББ» методидан фойдаланиш методикаси//Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. – Фарғона, 2022.– №23. –Б. 377-80.

13. А.А. Махмудов. Атом физикасининг «Рентген нурлари» мавзусини ўқитишда инновацион педагогик технологиянинг «БББ» методидан фойдаланиш методикаси// Ижодкор ўқитувчи илмий-услугий журнали. – Фарғона, 2022. – №24. –Б.313-16.

14. А.А. Махмудов, А.М. Худайбергенов. Атом физикасини «Водород атомининг Бор назарияси» мавзусининг ўқитиш методикасини такомиллаштиришда инновацион педагогик технология методлари ва дидактик ўйиндан фойдаланиш// International scientific-practical conference on "Modern education: problems and solutions". France. – Vol.1- No.5(2022). – P.126-32.

15. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Use of innovative technologies in improving the methodology of teaching the subject of atomic physics “Schrodinger's equation” in higher education institutions//United States American Conference “Principal issues of scientific research and modern education”. –Vol.1 –No.9(2022). –P.73 -77.

16. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Analysis of the level of coverage of topics expressing Bohr's theory of the hydrogen atom in educational literature// International Scientific online conference "Innovative developments and research in education". - Canada(Ottava). -Vol.1 -No.8(2022). -P. 85 -92.

17. A.A. Махмудов, А.М. Худайберганоv. Мослик принципи хақида нималарни билишимиз керак? // Иждокор ўқитувчи илмий-услугий журнали. - Фарғона, 2023. - №25. -Б.118-22.

18. A.A. Махмудов, А.М. Худайберганоv. Олий таълим муассасаларида атом физикасининг «Штарк эффекти» мавзусини ўқитишда инновацион педагогик технология методларидан фойдаланиш//Иждокор ўқитувчи илмий-услугий журнали. - Фарғона, 2023. - №25. -Б.123-25.

19. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. What is the significance of conducting didactic games in teaching atomic physics courses in higher education // International journal of innovations in engineering research and technology. - VOLUME 7, ISSUE 6, June-2020. - P.116-20.

20. A.A. Makhmudov, A.M.Khudayberganov. What should a future physics teacher know about the history of the atom and its development? // Вестник науки и образование. - Иваново, 2018. -15(51), №5, С.74-78.

21. A.A. Махмудов. Методика преподавания темы «Опыты Резерфорда.

Формула Резерфорда» раздела атомной физики общего курса физики // Физическое образование в вузах. -Москва, 2018. - Т. 24, № 4, -С.113-21

22. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Photoelectric effect"//Journal of Advanced Research and Scientific Progress. -Germany.-Vol.1 - Issue 6 (2022). -P.56 -59.

23. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Compton effect"// International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. -Germany. -Vol.1 -Issue 6 (2022). -P.141 -45.

24. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Creative lesson on the general course of physics on the topic "Rutherford's experiments and Rutherford's formula"// Current Research Journal of Pedagogics. -USA. -Vol.3 -Issue 12(2022). -P.31-35

25. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Methods of theoretical teaching the topic "Compton effect" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions// International Journal of Education, Social Science & Humanities. - Finland. -Vol.11 -Issue 1(2023). -P.123-31.

26. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Teaching methodology of the topic "Stark effect" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions//American Journal of Research . -USA. -Vol.1 -Issue 2(2023). - P.19-26.

27. A.A. Makhmudov, A.M. Khudayberganov. Methods of teaching the topic "Bohr's postulates" of the section "Atomic physics" of the course of general physics in higher educational institutions // European Journal of Innovation in Nonformal Education. - Belgium. -Vol.1 -Issue 2(2023). -P.29-38.

28. А.М. Худайберганов. Олий таълим муассасаларида ўқитиладиган умумий физика курсида ўтказиладиган дидактик ўйинларнинг аҳамияти нимадан иборат? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №19. Б.572-77.

29. А.М. Худайберганов. Умумий физика курсидаги тўлқин функция тушунчасини киритишда эҳтимолий-статистик ғояларнинг роли. Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №21. Б.261-66.

30. А.М. Худайберганов. Квант атом физикасини тушунтиришда квант механик операторларнинг роли. Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №22. Б.331-35.

31. А.М. Худайберганов. Нильс Борнинг атом физикасининг ривожланишига қўшган ҳиссасини биласизми? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №23. Б.373-77.

32. А.М. Худайберганов. “Олий таълим муассасаларида умумий физиканинг “Шредингер тенгламаси” мавзусини ўқитиш бўйича методик қўлланма” номли методик қўлланманинг мазмуни нимадан иборат? Ижодкор ўқитувчи илмий-услубий журнали. 2022. №24. Б.325-28.

33. Б. А. Мирсалихов, Ш.Н. Сайтджанов. Значение принципа организации в преподавании строения атома и ядра на основе междисциплинарных информационных технологий. Scientific aspects and trends in the field of scientific research. 1(4). 2022. 72-76.

34. Ш.Н. Сайтджанов, Ш.Б. Юсупов. Инновацион таълим технологиясини қўллаш орқали изчиллик принципини татбиқ этиш (физика-математика фанлари мисолида). Журнал физико-математические науки. 2022. 3(1).

**TA'LIM TARBIYA TUSHUNCHASI VA UNING XALQ MAQOLLARIDA
IFODALANISHI****Xoshimova Dilorom Ruxutdinovna***Khoshimova Dilorom O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti**Magistratura Lingvistika ingliz tili 2-kurs 10- guruh talabasi**Yashnobod tumani 244- maktab ingliz tili o'qituvchisi*

Og'zaki xalq amaliy san'ati insonga axloqiy va estetik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida. O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim siyosatida o'quvchilarni xalqning milliy-madaniy merosiga keng jalb etish ta'limning birlamchi vazifalari qatoriga qo'yilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quvchilarning hissiy, kognitiv, intellektual, ijodiy va kommunikativ salohiyatiga murojaat qilib, milliy madaniyatni yosh talabalar ongiga singdirish, unga qiziqishni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda samarali vositalardan biri xalq og'zaki ijodi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining ijtimoiy ahamiyati xalq og'zaki ijodining ko'p asrlik tarixi, ezgu g'oya va intilishlari asosida vujudga kelgan va tarbiyalangan folklorning estetik ta'sir kuchi bilan uyg'unlashgan holda uning tarbiyaviy, g'oyaviy va tarbiyaviy ahamiyati bilan belgilanadi. , yuksak badiiy shaklda uning dunyoqarashi kengligi, urf-odatlarini, ta'lim va tarbiyaning qimmatli manbasi bo'lgan ijtimoiy munosabatlar xilma-xilligini aks ettirgan.

Xalq amaliy san'atining shaxsga axloqiy-estetik ta'sir ko'rsatish vositasi sifatidagi katta ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Olamni estetik idrok etish qonuniyatlarini, xalq pedagogikasi va san'atining til boyligi hamda badiiy va ifodali vositalarini, ularda aks ettirilgan hodisa va tarixiy voqealarning g'oyaviy asoslarini tushunmasdan turib, insonning dunyoqarashiga qiziqishni shakllantirish qiyin. ularning asosidagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar.

Shuni tan olish kerakki, zamonaviy yoshlarning milliy ma'naviy-estetik va axloqiy qadriyatlarga munosabati jamiyat talablariga javob bermaydi. Ana shu bo'shliqni to'ldirishga xalq og'zaki ijodining barcha turlari xizmat qiladi. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodining bu janri namunalari o'rganish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb vazifasidir.

Xalq amaliy san'ati dastlab mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bir vaqtning o'zida ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatni ifodalagan. Bu san'at ibtidoiy madaniyatdan kelib chiqadi va asosan dunyoning mifologik va poetik tuyg'usini saqlaydi. U asosan uzviylik va an'analarga asoslangan jamoaviy ijod sifatida rivojlandi. O'z mohiyatiga ko'ra, epik asarlarda - ertak, rivoyat, bylichki va boshqalarda xalqning axloqiy, axloqiy, dunyoqarash qarashlari, ongi, dunyoqarashi ochib beriladi. Og'zaki xalq ijodiyoti va undagi xalq pedagogikasining tarbiyaviy qudratini o'rta asrlarda Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy, Sa'diy, Xisrov va boshqa faylasuf va mutafakkirlar nafaqat ilk o'rta asr pedagogik g'oyalar xazinasini boyitdilar. Asrlar, balki keyingi davrlar ham. Xullas, Abu Ali ibn Sino beshik kuyi, botil qo'shiq, uning tarbiyaviy qudrati haqida o'z fikrlarini qoldirgan; Rudakiy xalq ijodiyoti xazinasiga kirgan risola va she'riy satrlarida matal va matallardan foydalangan; Sa'diy Sheroziy o'zining pedagogik qarashlarida bolalarning kasbiy mahoratini shakllantirishga, xalq hunarmandchiligini o'rganishga katta e'tibor bergan.

Ijtimoiy-tarixiy sharoitlar folklor rivojiga ta'sir qiladi – uning mifologiyasi yo'qoladi, dindorlik, sinfiy mavzular, ijtimoiy muammolar ustunlik qiladi. An'anaviy syujetlar paydo bo'ladi - haqiqiy hayot, xarakterlar, ijobiy va salbiylarning sig'imli, noyob rasmlari. Tasvirlangan voqelikning mafkuraviy yoritilishi kuzatiladi, real tarixiy voqelikka aloqador syujetlar, motivlardan foydalaniladi – hamma narsa badiiy adabiyot prizmasi orqali barcha janr va janrlarga mansub og'zaki xalq og'zaki ijodiga o'z aksini topadi.

- doston - miflar, dostonlar, balladalar, rivoyatlar, bylichkilar, unutilmas voqealar haqidagi qo'shiqlar, qahramonlar haqidagi hikoyalar, vatanparvarlik va pafos haqidagi afsonalar va xalq maqollari.

Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlodajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafak-kurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiysiyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiyi qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda.

Millatni madaniyatini, xalqning o'zligini milliy qadriyatlarini ko'rsatuvchi, ifodalovchi omillardan biri bu shu xalqqagina xos bo'lgan xalq og'zaki ijodidir. Xalq og'zaki ijodining takrorlanmas janrlari va o'ziga xos durdonalari bo'lib shulardan xalq o'g'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Folklorshunos olimlar asrlar davomida maqollar yuzasidan o'z mamlakatlarining olis qishloqlariga ekspeditsiyalar uyushtirib kelishmoqda va xalq tilidan yildan yilga turli mavzularga doir bo'lgan takrorlanmas maqollarni jamlab kelishmoqda. O'zbek folklorshunosligida maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'oz Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “O‘zbek xalq maqollari” T.Mirzayev,A. Musaqulov. Toshkent (2005)
2. J.Raymond “Naprijonnost v poslovitsah” Zapadniy folklor. 1956 yil
3. Kim Mun Buyuk Britaniya. A.Ismoilov. Koreyscha-O'zbekcha lug'at T: O'zbekiston. 2006-700b
4. Bayonxonova, I. F. (2021). Koreys tilida somatik frazeologizmlarning ifoda ma'nosiga ko'ra turlari. Xalqaro Word Art jurnali.

Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

BOSH MUHARRIR:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

MAS‘UL MUHARRIR:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

MAS‘UL KOTIB:

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li